

TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY
MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“Bank ishi”
yo‘nalishi**

**“ZAMONAVIY BANK ISHI”
moduli bo‘yicha**

**O‘QUV USLUBIY
MAJMUUA**

Toshkent – 2022

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: TDIU, "Bank ishi va investisiyalar" kafedrasida, Ph.D, dotsent.
Mamadiyarov Z.T.

Taqrizchilar: Karimov F., Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti,
Ph.D.
Raximov M., Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti,
Ph.D.

Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvarda 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MATERIALLAR	18
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	75
V. KEYSLAR BANKI.....	78
VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	82
VII. GLOSSARIY	85
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	87

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Mazkur ishchi dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonlari, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish hamda amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejaları asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni O'zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida oliy ta'lim vazifalari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari, ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlaridan foydalanish va masofaviy o'qitishning zamonaviy shakllarini qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar o'zgartirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Zamonaviy bank ishi modulining **maqsadi** bank haqida ilgari surilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalar to'g'risida qiyosiy, tahliliy ma'lumotlar berish, zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanib tinglovchilarni malakasini oshirishga ko'maklashish xisoblanadi.

Zamonaviy bank ishi modulining **vazifasi**:

- Bank tizimi, uning bo'g'inlari bo'yicha olib borilayotgan islohotlar to'g'risidagi asoslarning ishlab chiqilganligini yoritish va tinglovchilarda ularni aniq ilmiy nazariy tahlil qilish, xolis baholash va mustaqil hayotiy pozitsiyasini vujudga keltirishga erishish;

• Bank tizimi va uni boshqarish tizimidagi islohotlar bilan bog‘liq o‘zgarishlar va yangilanishlarni ilmiy nazariy tahlil etish va o‘ziga xos xususiyatlari, maqsad-vazifalarini tinglovchilarga yetkazish;

• O‘zbekiston Respublikasi bank tizimidagi islohotlar, Markaziy bank va uning pul-kredit siyosati borasidagi islohotlarni tahlil etish, Prezident asarlariga tayangan holda o‘rganishdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Zamonaviy bank ishi” fanini o‘zlashtirish jarayonida tinglovchi:

- bank xizmatlarini shakllantirish tamoyillari, shakllari va yo‘nalishlari;
- masofaviy bank xizmatlari va ularning xususiyatlari;
- banklarni boshqarish va ularni tartibga solish tartibi;
- bank faoliyatini tartibga solish tizimlari;
- to‘lov tizimida naqd pulsiz hisob kitoblarning o‘ziga hos jihatlari;
- bank faoliyati sohasida xalqaro talablar *haqida bilimlarga ega bo‘lishi kerak*;
- bank faoliyatini doimiy o‘zgarib turuvchi bozor kon’yunkturasi asosida tahlil qilish va o‘z vaqtida unga moslasha olish;
- bank faoliyatini tashkil etish va tartibga solish bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilish;
- bank faoliyatini boshqarish borasida rivojlangan davlatlar bank tajribasidan foydalanish;
- bank faoliyatini tahlil qilish; tijorat banklarini faoliyatini takomillashtirishda xalqaro talablar mohiyatini anglash *ko‘nikma va malakalarlariga ega bo‘lishi kerak*;
- tijorat banklarining faoliyatida Bazel talablarining muhimligi;
- banklar faoliyatini boshqarishda rivojlangan mamlakatlari tajribasi, raqamli iqtisodiyot sharoitida masofaviy bank xizmatlari va ularning zarurligi *haqida kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak*.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Zamonaviy bank ishi” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

• ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalardan;

• o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

O‘quv modul mazmuni o‘quv rejadagi uchinchi va mutaxassislik o‘quv modullarining barcha sohalari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning umumiy

tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

O'quv modulning oliy ta'limdagi o'rni

Banklarning transformatsiya sharoitida zamonaviy bank ishi va undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan bo'lib, unda jahon mamlakatlari tajribasi va Respublikamiz bank tizimidagi islohotlarning konseptual asoslari yoritib berilgan. Zamonaviy iqtisodchi pedagog kadrlar uchun ushbu yo'nalishdagi ma'lumtlarni o'zlashtirish talab qilinadi va bunda fanning roli yuqoridir.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					Mustaqil ta'lim
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				
			jami	Jumladan			
			Nazaifi	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot		
1.	Bank faoliyatini tartibga solishning xalqaro andozalari	8	8	2	6		
2.	Elektron (naqd pulsiz) to'lov tizimi va to'lov tizimida masofaviy bank xizmatlarining ahamiyati	14	14	4	10		
	Jami:	22	22	6	16		

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Bank faoliyatini tartibga solishning xalqaro andozalari (2 soat)

Bank faoliyatini tartibga solishning zarurligi. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni tashkil etish, xorijiy mamlakatlarda bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zarurligi, Bazell qo'mitasining vujudga kelishi, bank nazorati tizimining turlari va xususiyatlarini o'rganish.

1. Bazell I va Bazell II talablarining ahamiyati.

Bazell qo'mitasining asosiy tamoyillari, kapital yetarliligiga minimal talablari, bank nazoratini tashkil etish asoslari va kapital yetarliligi, yirik kreditlar, likvidlilik riski, bozor riski, operasion risk, kredit riski, mamlakat riski, foiz riski, risklarni boshqarish riski, ichki nazorat va ichki audit tizimini o'rgatishdan iborat.

2. Bazell III talablari va uni joriy etish shartlari.

Tijorat banklarining resurslari boshqarishda Bazell III talablari va uni joriy etish shart sharoitlari ko'rib chiqilmoqda. 2013 yil birinchi yanvardan boshlab 2019 yil birinchi yanvariga qadar yangi standartlarni tatbiq etish. Bazell III – Bazell II ga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar. Bankning o'z kapitali strukturasiidagi o'zgarishlar. Kapital yetarliligiga qo'yiladigan talablarning oshirilishi. Kapitalni himoyalovchi buferlarni tashkil etilishi.

2-mavzu: Elektron (naqd pulsiz) to'lov tizimi va to'lov tizimida masofaviy bank xizmatlarining ahamiyati (4 soat)

1. Elektron (naqd pulsiz) to'lov tizimi tushunchasi va ahamiyati. Banklarda ish kunini ochish va tugatish tartibi. Naqd-pulsiz hisob-kitob turlari, amaliy holati tahlili va ularning xususiyatlariga sharhlar keltirilgan. Elektron to'lov hujjatlarning o'tish tartibi va buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilishi keltirilgan.

2. Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi tahlili. Respublikamizda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Kliring tizimi orqali milliy valyutada naqd pulsiz chakana to'lovlarni amalga oshirish, Kliring tizimida tijorat banklari filiallari, kassalari va O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Protsessing markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat.

3. Masofaviy bank xizmatlarining vujudga kelishi va evolyusiyasi, "bank xizmati" va "masofaviy bank xizmatlari" iqtisodiy kategoriyalarining ilmiy-nazariy talqini bayon qilingan, shuningdek, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari tadqiq qilingan. Undan tashqari masofadan turib boshqariladigan bank xizmatlari bevosita elektron vositalar yordamida amalga oshirilishi, masofaviy bank xizmatlarining turlari va ularning o'ziga hos xususiyatlari ochib berilgan. E'tirof etish zarurki, O'zbekiston Respublikasida masofaviy xizmat turlaridan foydalanish rivojlanish jarayonida bo'lib, qisqa davr mobaynida masofadan bank xizmatlari ko'rsatilishini tashkil etish va amalga oshirishga asos bo'luvchi qonunchilik bazasi sharhi keltirilgan.

4. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmat turlarining amaldagi holati tahlili rivojlangan mamlakatlar tajribasi, jumladan, banklarda axborot texnologiyalardan foydalanishning amaldagi holati, zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish, jumladan «raqamli» banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovasion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirishni yo'nalishlari keltirilgan.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1– amaliy mashg'ulot:

Bank faoliyatini tartibga solishning xalqaro andozalari (6 soat)

1. Bank faoliyatini tartibga solishning zarurligi. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni tashkil etish, xorijiy mamlakatlarda bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zarurligi, Bazel qo'mitasining vujudga kelishi, bank nazorati tizimining turlari va xususiyatlarini o'rganish.

2. Bazel I va Bazel II talablarining ahamiyati. Bazel qo'mitasining asosiy tamoyillari, kapital yetarliligiga minimal talablari, bank nazoratini tashkil etish asoslari va kapital yetarliligi, yirik kreditlar, likvidlilik riski, bozor riski, operasion risk, kredit riski, mamlakat riski, foiz riski, risklarni boshqarish riski, ichki nazorat va ichki audit tizimini o'rgatishdan iborat.

3. Bazel III talablari va uni joriy etish shartlari. Tijorat banklarining resurslari

boshqarishda Bazel III talablari va uni joriy etish shart sharoitlari ko‘rib chiqilmoqda. 2013 yil birinchi yanvardan boshlab 2019 yil birinchi yanvariga qadar yangi standartlarni tatbiq etish. Bazel III – Bazel II ga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar. Bankning o‘z kapitali strukturasiidagi o‘zgarishlar. Kapital yetarliligiga qo‘yiladigan talablarning oshirilishi. Kapitalni himoyalovchi buferlarni tashkil etilishi.

2– amaliy mashg‘ulot:

Elektron (naqd pulsiz) to‘lov tizimi va to‘lov tizimida masofaviy bank xizmatlarining ahamiyati (10 soat)

1. Elektron (naqd pulsiz) to‘lov tizimi tushunchasi va ahamiyati. Banklarda ish kunini ochish va tugatish tartibi. Naqd-pulsiz hisob-kitob turlari, amaliy holati tahlili va ularning xususiyatlariga sharhlar keltirilgan. Elektron to‘lov hujjatlarning o‘tish tartibi va buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilishi keltirilgan.

2. Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi tahlili. Respublikamizda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Kliring tizimi orqali milliy valyutada naqd pulsiz chakana to‘lovlarni amalga oshirish, Kliring tizimida tijorat banklari filiallari, kassalari va O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Protsessing markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni, shuningdek, kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari uchun to‘lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat.

3. Masofaviy bank xizmatlarining vujudga kelishi va evolyusiyasi, “bank xizmati” va “masofaviy bank xizmatlari” iqtisodiy kategoriyalarining ilmiy-nazariy talqini bayon qilingan, shuningdek, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning huquqiy-me‘yoriy asoslari tadqiq qilingan. Undan tashqari masofadan turib boshqariladigan bank xizmatlari bevosita elektron vositalar yordamida amalga oshirilishi, masofaviy bank xizmatlarining turlari va ularning o‘ziga hos xususiyatlari ochib berilgan. E’tirof etish zarurki, O‘zbekiston Respublikasida masofaviy xizmat turlaridan foydalanish rivojlanish jarayonida bo‘lib, qisqa davr mobaynida masofadan bank xizmatlari ko‘rsatilishini tashkil etish va amalga oshirishga asos bo‘luvchi qonunchilik bazasi sharhi keltirilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmat turlarining amaldagi holati tahlili rivojlangan mamlakatlar tajribasi, jumladan, banklarda axborot texnologiyalardan foydalanishning amaldagi holati, zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish, jumladan «raqamli» banklar va chakana xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bank bo‘linmalarini tashkil etish uchun innovasion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish, to‘lov tizimini yanada rivojlantirishni yo‘nalishlari keltirilgan.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o‘zlashtirishda quyidagi:

→ o‘quv ishini tashkillashtirishning interfaol shakllaridan: ko‘rgazmali ma’ruza, savol-javobli ma’ruza, suhbat-ma’ruzalar orqali tashkillashtirish nazarda tutilgan.

→ o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari sifatida quyidagilardan foydalanish nazarda tutilgan:

- ma'ruza mashg'ulotlarida ommaviy, juftlik, individual;
- amaliy mashg'ulotlarda juftlik, individual.

BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

№	Baholash turi	Eng yuqori ball 2,5	Izoh
1.	Ta'lim oluvchilar modulli o'quv axborotini o'zlashtirishlari uchun, o'qitishning maqsad va natijalarini, modul mazmunini aniq tanlanganligi	1,0 ball	Masala va topshiriqlarni bajarish - 1,0 ball.
2.	Modulli o'quv axborot: grafik, rasm ko'rinishda yetarli miqdorda, sifatli ma'lumotdan iborat bo'lishi		
3.	Vaziyat modelini yaratilishi	1,5 ball	Keys-stadi texnologiyasini ishlab chiqishi - 1,5 ball.
4.	Keys matni bayon etilishi		
5.	Keysning pedagogik pasportining tuzilishi		

KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

Mazkur modul bo'yicha o'quv rejada ko'chma mashg'ulotlar nazarda tutilmagan.

MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISH SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ishni tashkil etishda tinglovchilar tomonidan "Zamonaviy bank ishi" modulida o'rganilayotgan masalalar, diskussiyalar bo'yicha bildirilayotgan fikr-mulohazalarni shakllantirish maqsadida ular tomonidan qo'shimcha manbalardan, jumladan internet saytlari, ingliz tilida chop etilgan adabiyotlar va maqolalardan foydalanishni ko'zda tutadi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

1- ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Topshiriq mazmuni → «FSMU» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarining mamlakat bank tizimiga ta’sir etmasligi uchun boshqa davlatlar bilan eksport-import operatsiyalarini olib bormasligi lozim”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

1 - Amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi.

1) Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “SWOT-tahlil”dan foydalaniladi.

Topshiriq mazmuni → “Internet banking masofaviy bank xizmati imkoniyatlari va kamchiliklarini keltirib o‘ting?”

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Namuna: Internet banking masofaviy bank xizmati imkoniyatlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning kuchli tomonlari	To‘lov tizimining elektronlashib borayotgani jarayonida mijozlar bankka bormasdan masofadan shaxsiy kompyuterlari orqali to‘lovlarni amalga oshirishi...
W	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Internetga ulangan kompyuter (noutbuk) va unga Microsoft Internet Explorer dasturining 6.0 yoki undan yuqori versiyasi o‘rnatilgan bo‘lishi...
O	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	<ul style="list-style-type: none"> • o‘z hisobvarag‘ingizdagi operatsiya-larni osongina va yengil amalga oshirish; • hisobvaraqdagi pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi ko‘chirma, karta hisobvara q to‘g‘risidagi hisobotni olish; • yuqorida sanab o‘tilgan funksiya-lardan sutkasiga 24 soat va haftasiga 7 kun foydalana olish...
T	To‘siqlar (tashqi)	Aholining texnik tomondan yetarli bilimga ega emasligi va viloyatlarda kommunikasion infrastrukturaning yaxshi rivojlanmaganligi...

2 - ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Topshiriq mazmuni → “Masofaviy bank xizmatlari turlari va ularning misollar keltiring?”

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Masofaviy bank xizmatlari turlari					
Internet banking		SMS banking		Mobil banking	
Afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

2-amaliy mashg'ulotda quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Mashg'ulotning motivatsiya bosqichida: "Assesment" metodidan foydalaniladi.

Topshiriq mazmuni → Berilgan turli topshiriqlarni bajarish?

"Assesment" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini

baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 4 ball yoki 1-4 balgacha baholanishi mumkin.



Test

- 1. Internet banking tizimi orqali to'lovlarni amalga oshirishda lozim?
- A. Elektron raqamli imzo
- V. Telefon
- S. Faks



Qiyosiy tahlil

- Bankning kunlik balansini tahlil qiling?



Tushuncha tahlili

- KAMI ni izohlang...



Amaliy ko'nikma

- Ipoteka kreditini olish uchun talab etiladigan xujjatlar nomini aytib bering?

3 - ma'ruza mashg'ulotida quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalaniladi:

Topshiriq mazmuni → «Tushunchalar tahlili» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Inflation	bu tovar muomalasiga nisbatan qog‘oz pul massasining ortiqchaligidir.	
Income	ishlab chiqarish omillarini ishlatishdan keladigan pul va natural tushumlar.	
Currency	bu xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to‘lov hujjatlari va pul majburiyatlaridir.	
Audit	xo‘jalik faoliyatini tekshirish, taftish va tahlil qilish.	
Loan	u vaqtincha o‘z egalari qo‘lida bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lov sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni bildiradi.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

3-amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi: Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Blis-so‘rov” usulidan foydalaniladi.

“Blis-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat

kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

«Savdo kreditining bir martaga olish va so'ndirish» ketma-ketligini joylashtiring. O'zingizni tekshirib ko'ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Talab etiladigan xujjatlar					
Yillik 18% dan berilgan kreditning 3 oylik foizini hisoblang					
Asosiy qarz va foizni so'ndirish provotkalarini yozing					
Kreditning so'ndirish grafigini tuzing					

4-5 - amaliy mashg'ulotlarda quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalaniladi:

Mashg'ulotning motivatsiya bosqichida: “Venn Diagrammasi” usulidan foydalaniladi.

Topshiriq mazmuni → Berilgan turli topshiriqlarni bajarish?

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:


- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga

birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;

• juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Bank depozitlari turlari bo‘yicha



6-8 - amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Keys-stadi” usulidan foydalaniladi.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash

<p>4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
---	--

Keys. Bank tomonidan jismoniy shaxsga berilgan 10,0 mln. so'mlik iste'mol krediti qaytmayapdi. Mijoz doimiy ishlab turgan ish joyidan bo'shaganligi ma'lum bo'ldi. Kredit uchun mijoz tomonidan qo'shimcha garov qo'yilmagan.

Кейсни бажариш босқчилари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Муаммони ҳал этиш кетма-кетлигини аниқланг (жуфтликларда бажаринг)

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Bank faoliyatini tartibga solishning xalqaro andozalari.

Reja:

- 1. Bank faoliyatini tartibga solishning zarurligi.**
- 2. Bazel I va Bazel II talablarining ahamiyati.**
- 3. Bazel III talablari va uni joriy etish shartlari.**

Tayanch iboralar: *Federal Rezerv Tizimi, I darajali kapital, II darajali Bazel talablari, bank nazorati, kapital yetarliligi.*

1.1. Bank faoliyatini tartibga solishning zarurligi.

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga ko'ra, emissiya banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga olgan ikki pog'onali bank tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'ymay turib, davlat iqtisodiyotini yuksaltirish va uning barqarorligiga erishish mumkin emas. Bunda birinchi pog'onada Markaziy bank bo'lib, u mamlakatning pul muomalasini va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solib turadi. Ikkinchi pog'onani esa tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari shakllantiradi.

Bank tizimining bunday bo'linishi avvalambor, Markaziy bankning va tijorat banklarining maqsadlari, vazifalari va mavqeini belgilaydi. Tijorat banklari o'z faoliyatida jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishni tijorat asosida amalga oshiradilar. Markaziy bank esa mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini, respublika moliya sektorining mustahkamligini, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi.

Jumladan, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining talablariga asosan, tijorat banklarining mablag'lari yetarliligi va likvidliligi darajasi ko'rsatkichini qo'llab-quvvatlash, boshqaruv va bank tavakkalchiligi tizimini CAMELS tizimi orqali nazorat qilish, shu jumladan, ilg'or xorijiy amaliyotlari asosida tijorat banklarida menejment tavakkalchiligi samaradorligini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligi e'tirof etilmoqda.¹

Bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida tijorat banklari faoliyatini baholashda «CAMELS» reyting tizimidan faol foydalanilmoqda.²

Xususan, yangi iqtisodiy voqeiyliklarda milliy valyutaning barqarorligiga asosan uning ichki xarid qobiliyati pasayishining yoki mamlakatda narxlarning oshishini oldini olish orqali erishish mumkinligini inobatga olib, Markaziy bank tomondan 2018 yildan boshlab pul-kredit siyosatini amalga oshirishda, asosiy e'tibor, iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga tegishli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2016 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, www.cbu.uz

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ishlari amalga oshirilmoqda.³

Shuningdek, tijorat banklari va ularning bo'linmalari faoliyatini nazorat qilish hamda tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ularda kapital yetarliligi, likvidlilik, aktivlar sifati va diversifikatsiyasi hamda bank boshqaruv organlarining faoliyati baholanib, tegishli nazorat choralari ko'rib borilmoqda.⁴

Jahon moliya tizimida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar, shuningdek mamlakatda milliy iqtisodiyotni keng ko'lamli isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosatini shakllantirish, amalga oshirishda hamda bank tizimini yanada rivojlantirishda yangicha yondashuv va prinsiplar qo'llanilishini taqozo qilmoqda.

Xolis tan olish kerakki, bugungi kunda pul-kredit siyosati va banklarni tartibga solishdagi imkoniyatlardan amalda to'laqonli foydalanilmayapti, pul-kredit instrumentlarining lozim darajada ishlashi va samaradorligini ta'minlovchi transmission mexanizmlarning rivojlanmaganligi qo'yilgan maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining boshqaruv va risk-menejmenti sifatiga ta'sir qilish mexanizmlarining takomillashmaganligi, banklar faoliyatiga ma'muriy aralashuv amaliyotining davom etayotganligi, ayniqsa, banklar tomonidan o'z faoliyatiga xos bo'lmagan korxonalar tashkil etilishi, shuningdek ularning faoliyat yo'nalishiga muvofiq bo'lmagan vazifalarning yuklatilishi bank nazoratini ta'sirchan amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, shuningdek pul-kredit siyosati, umuman bank tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishi ustidan samarali nazoratni va Markaziy bank faoliyatini yanada takomillashtirishni ta'minlash maqsadida Markaziy bank faoliyatining bir qancha strategik maqsadli yo'nalishlari belgilab olindi.⁵

Amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida Markaziy bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

birinchidan, asossiz inflyatsion kutilmalarni oldini olish maqsadida inflyatsion targetlashning prinsip va mexanizmlarini bosqichma-bosqich tatbiq qilish bilan pul-kredit siyosati va uning instrumentlarini tubdan takomillashtirish, ushbu usulga o'rta muddatli istiqbolda to'liq o'tish va pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan siyosat va choralarning shaffofligini oshirish;

ikkinchidan, inflyatsiya omillarini chuqur o'rganish va to'lov balansini hisobini yuritish va tahlil qilish tizimini to'liq shakllantirish asosida pul-kredit siyosatini shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish uslublarini takomillashtirish maqsadida statistik, tahliliy va tadqiqot bazasini rivojlantirish;

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, www.cbu.uz

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2016 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, www.cbu.uz

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli Farmoni

uchinchidan, bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini, shu jumladan tijorat banklar faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni dastlabki bosqichlarida aniqlash va ularni bartaraf etuvchi choralar ko'rish imkonini beruvchi tijorat banklar tavakkalchiligini boshqarish va baholash tizimini takomillashtirish;

to'rtinchidan, o'rta va uzoq muddat istiqbollarda iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim tarkibiy qism sifatida bank tizimini rivojlantirish, tijorat banklar va tadbirkorlik sub'ektlarining o'zaro to'liq sheriklik munosabatlarini shakllantirish, aholining bank tizimiga ishonchli institusional sherik sifatida ishonchini mustahkamlash uchun raqobat sharoitlarni yaratish;

beshinchidan, to'lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o'tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko'rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish;

oltinchidan, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kuchaytirish, shuningdek ularning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yettinchidan, bank xizmatlari iste'molchilari huquqi va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish kabi maqsadlar Markaziy bankning ustuvor vazifalaridan ekanligi keltirilgan.⁶

Har qanday davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni, yuqori bandlikni, barqaror ichki baholarning mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadga iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida erishiladi. Pul-kredit siyosati, byudjet siyosati, narx-navo siyosati, ish haqi va bandlik siyosati iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Pul-kredit siyosati inflyatsiyani jilovlash, ishlab chiqarishning pasayishi va ishsizlikning oldini olish, to'lov balansining muvozanatlashgan holatini saqlab turish, faol bozor kon'yunkturasini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan siyosatdir.

Mazkur siyosat barcha davlatlarda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Ayrim davlatlarda u Milliy bank deb ham yuritiladi, AQShda esa Federal Rezerv Tizimi (FRT) deb ataladi va ba'zan Fed deb yuritiladi.

Bank faoliyati barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Zero, banklar mamlakatdagi kapitalni safarbar qilish va kreditlar taqdim etish bilan mamlakat moliya tizimida faol ishtirok etadi. Va albatta, nazoratning asosiy maqsadi aholini qolaversa, mamlakat manfaatlarini himoya qilishdir. Bank nazoratini amalga oshirishning bir qator sabablari manfaatlar nuqtai-nazaridan kelib chiqadi va ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, banklar mamlakat aholisining jamg'armasini asosiy saqlovchisi hisoblanadi. Banklar faoliyatini nazorat qilish mamlakat aholisini moddiy zarar ko'rishdan saqlash uchun tashkil etiladi. Chunki banklarning asosiy maqsadi daromad olishga qaratilgan bo'lib, bank daromadlilikligi uning likvidligi bilan teskari mutanosiblikda bo'lgan holda risk bilan to'g'ri mutanosiblikdadir. Bu esa ba'zi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli Farmoni

hollarda banklarning investision va kredit portfelining yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Bank mijozlari esa bank ro'para kelayotgan risk haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Demak, bankning riskni qabul qilish ehtimolining oshishi mamlakat aholisining jamg'armasining jiddiy zarar ko'rishiga olib keladi. Bankning salbiy faoliyatidan aholi jamg'armalarining faqat qisqa muddatli yuqori likvidli depozitlarga qo'yilgan qismi zarar ko'rib qolmay, balki uzoq muddatli jamg'armasi masalan, pensiya fondiga ajratilgan ajratmalar ham jiddiy zarar ko'rishi mumkin. Bu esa bank nazoratining naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, bank kreditorlari manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish amaliyotlari qo'llaniladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va individual shaxslar o'z faoliyatlarini rivojlantirish, turmush faravonliklarini oshirish uchun tijorat banklarining turli xil kreditlaridan foydalanishadi. Ushbu kreditlar keng omma uchun yo'naltirilishini hamda bank xizmatlarining narxini oshib ketmasligini ta'minlash maqsadida hukumat, bank nazoratining bilvosita vositasi bo'lgan banklar o'rtasidagi kuchli raqobatni ta'minlab, erishadi.

Uchinchidan, hukumat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun samarali bank nazoratini tashkil qilishga harakat qiladi. Banklar hukumatning fiskal agenti bo'lish bilan birga ularning o'zlari ham mamlakat byudjetiga soliq to'lovlarini amalga oshirishlari bilan hukumat tomonidan ularning yuqori daromadlilik qo'llab-quvvatlanadi va shu bilan birga, yuqori daromadlilik past darajadagi likvidlilikni keltirib chiqarib, o'z navbatida yuqori risk tufayli mamlakatda tizimli riskni keltirib chiqaradi. Bu butun iqtisodiyotni inqirozga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, banklar bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni kreditlar uchun yo'naltirish bilan mamlakatdagi iqtisodiy faollikni oshirib, ishsizlik darajasini kamaytiradi, shu bilan birga, mamlakatdagi pul massasiga bilvosita tasir etib, inflasiyani keltirib chiqaradi. Shuning uchun hukumat samarali bank nazoratini tashkil etishga harakat qiladi.

To'rtinchidan, bank aksiyadorlari va ishchi-xodimlar manfaatlarini himoya qilish uchun ham bank nazorati tashkil etiladi.

Bozor iqtisodiyoti to'liq qaror topgan rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- a) pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish;
- b) iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorliklarga barham berish;
- v) banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash;
- g) bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvining qisqarishi, moliyaviy munosabatlarni erkinlashtirilishi barqaror pul-kredit tizimini rivojlantirishga imkoniyat tug'diradi. Ayni vaqtda, kuchayib boruvchi raqobat, o'zgaruvchan baholar sharoitida bank risklari va nobarqarorlik kuchayadi. Yirik banklarning bir vaqtning o'zida bankrot bo'lishi milliy iqtisodiyotga jiddiy ziyon yetkazadi, to'lov tizimining izdan chiqishiga, pul taklifining keskin qisqarishiga olib kelishi mumkin. Demak, bank tizimini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish orqali umumiy nobarqarorlik

darajasini pasaytirish mumkin.

Turli mamlakatlarda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning turlicha mexanizmlari qo'llaniladi. Shuningdek, tashkiliy yondashuvlar ham xilma-xildir. Ammo birorta mexanizm kredit institutlarining joriy faoliyatiga davlatning aralashuvi mavjud bo'lgan sharoitda samara bermagan. Banklarni bankrotlikdan himoya qilish tizimida yetakchi o'rinni banklarning ichki boshqaruv tizimining sifati egallaydi. Shu sababli, bank tizimini takomillashtirishga qaratilgan harakatlar bank muassasalarini rivojlantirish jarayonida ularni boshqarish va tartibga solishni mustahkamlash masalasiga yo'naltirilishi lozim.

Tijorat banklarining bankrot bo'lishi aholining, korxonalar va tashkilotlarning pul mablag'larini yo'qotilishiga olib keladi. Ayniqsa, banklarning tizimli inqirozga yuz tutishi xo'jalik sub'ektlarining ommaviy tarzda bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin. Buning og'ir ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari sifatida, birinchidan, aholining, korxonalar va tashkilotlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchiga putur yetadi; ikkinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni og'irlashuviga olib keladi; uchinchidan, hukumatning iqtisodiy manfaatlariga ziyon yetadi.

Bank ishi paydo bo'lgan vaqtdan boshlab alohida banklarning bankrotligi, depozitlarni ommaviy tarzda banklardan qaytarib olinishi natijasida yuzaga keladigan nobarqarorliklar bank tizimini tartibga solish amaliyotining vujudga kelishini taqozo qildi. Bank faoliyatini tartibga solish orqali hukumat omonatchilarni va kreditorlarni moliyaviy yo'qotishlardan, iqtisodiyotni esa banklarning bankrotligi natijasida yuzaga keladigan og'ir oqibatlardan himoya qiladi.

O'zbekiston bank tizimini qayta qurish mustaqil davlatimiz iqtisodiy tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Xo'jalik mexanizmi bir maromda faoliyat yuritishi barqaror ishlaydigan banklar milliy tizimini taqozo etadi. Bugungi kunda iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida sifat jihatidan butunlay yangi bank tizimi hamda bank nazoratini tub asosini yaratish va qurish uzluksiz davom ettirilmoqda.

Banklar ustidan nazorat qilish, ular faoliyatida muayyan cheklashlarni o'rnatish iqtisodiy erkinlikka zid bo'lgan holat sifatida qaralishi mumkin. Lekin jahonning ko'pgina rivojlangan davlatlarida banklar, shuningdek, boshqa moliya tashkilotlarining faoliyatlari ko'p darajada davlat tomonidan tartibga solinadi. Boshqacha qilib aytganda, hatto rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy sektor jiddiy ravishda tartibga solinar ekan, o'tish davrida buni to'la oqlash mumkin.

To'g'ri, bank faoliyatini tartibga solishda haddan tashqari va raqobatning rivojlanishiga xalaqit beradigan omilga aylanadigan chegarani belgilash oson emas. Shuning uchun, jahonda umumiy qabul qilingan tamoyillar va qoidalar har bir mamlakatda aniq vaziyat tahlilini hisobga olgan holda qo'llaniladi.


U yoki bu bankning faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga majbur qilish uchun nazorat organi ixtiyorida ta'sir ko'rsatish choralarining muayyan to'plami bo'lishi kerak. Respublikamizdagi yangi bank qonunlarimizga ko'ra, turli vaziyatlarda foydalanish mumkin bo'lgan tabaqalashgan choralar majmui ko'zda tutilgan. Jumladan, iqtisodiy me'yorlarni o'zgartirish, majburiy rezerv fondini oshirish, ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishni taqiqlab qo'yish, hissadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatib qo'yish, bank ustidan vasiylik o'rnatish

kabilardir. Eng so‘nggi chora esa, ularga berilgan lisenziyalarni qaytarib olishdan iboratdir.

Tijorat banklarini nazorat qilish deganda banklarning barqarorligini ta‘minlash maqsadida doimiy ravishda amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi.

Shu o‘rinda rivojlangan davlatlarda, xususan Yevropa Ittifoqi davlatlarida, AQSh, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda bank nazoratining zarurligi 1975 yilga kelib o‘z aksini topdi, ya‘ni rivojlangan davlatlar bank nazoratini faqat moliyaviy sektorda emas, balki, umuman iqtisodiyotda asosiy rol o‘ynashini tan oldilar. Natijada bank nazorati bo‘yicha xalqaro tashkilot “Bazel qo‘mitasi” vujudga keldi. Banklarning tizimli riskni keltirib chiqarishi, bir-biri bilan iqtisodiy aloqada bo‘lgan davlatlarni ham iqtisodiy inqiroz yoqasiga olib kelishi mumkin. Bu xuddi Lorensning “Kapalak effekti” nazariyasiga o‘xshaydi. Unga ko‘ra, Braziliyada qanot qoqqan kapalaklar Texasda tornado bo‘lishiga olib keladi. Bunday inqirozlar ehtimolining ortishi mamlakatlar o‘rtasida mintaqaviy bank nazoratini tuzish zarurligini keltirib chiqardi.

Hozirgi kunda bank nazorati tizimini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Bank nazorati tizimining turlari⁷

⁷ Norqobilov S., Dadaboyeva H., Jo‘raev O‘. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. Magistrlar uchun darslik / Toshkent Moliya instituti.–T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007, 180 bet.


Davlatning pul-kredit siyosati, xususan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish siyosati qonun hujjatlari, hukumat qarorlari, Markaziy bankning yo‘riqnomalari asosida amalga oshiriladi. Huquqiy me‘yorlar banklar uchun majburiy bo‘lgan cheklovlar va faoliyatining qat’iy chegaralarini belgilab beradi. Bu esa, bank sifatsiz boshqarilgan taqdirda jiddiy zararlar yuzaga kelishini oldini oladi. Bank faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarining mustahkam emasligi banklarning bankrot bo‘lishi va umumiy nobarqarorlikni yuzaga kelishini kuchaytiradi.

Bank tizimini ishonchli tarzda himoya qilishni ta‘minlaydigan huquqiy tartibga solish me‘yorlarini yaratish lozim. Masalan, iqtisodiy normativlar barcha tijorat banklariga nisbatan bir xil tarzda qo‘llanilishi lozim. Aks holda, ayrim banklar erkin raqobat muhitidan chetga chiqib qoladi.

Bank nazorati 100 yildan ortiq muddat davomida AQSh da va G‘arbiy Yevropa davlatlarida o‘zining qanday ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar, shakllanib kelgan edi.

Bazel qo‘mitasi butun dunyo mamlakatlari uchun bank nazorati tamoyillarini ishlab chiqadi va mintaqaviy bank nazoratida banklar faoliyati, ularning nazorat qilish tamoyillari ishlab chiqilib, davlatlar uni o‘zlarining iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda bank nazorati bo‘yicha standartlariga muvofiqlashtirishadi.

Umuman olganda, bank nazoratining mamlakatlar o‘rtasida va xalqaro miqyosda qamrab olish ko‘lamini quyidagicha tasvirlash mumkin.



2-rasm. Bank nazoratining ko‘lamiga ko‘ra turlari⁸

Keng ma‘noda aytganda, bank nazorati bu hukumat tomonidan moliyaviy sektorni ishonchliligini, barqarorligini ta‘minlashda ishlatiladigan tizimdir.

⁸ Norqobilov S., Dadaboyeva H., Jo‘raev O‘. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. Magistrilar uchun darslik / Toshkent Moliya instituti.–T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007, 180 bet.

Barcha davlatlardagi bank nazorati tizimlari oldida 2 ta muhim vazifa turadi:

1. Bank tizimini mustahkamlash hamda iqtisodiy o‘shishiga hamkorlik qilish.
2. Barcha omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish.

Bank nazorati oldida turgan asosiy vazifa butun bank tizimi barqarorligini ta’minlash bo‘lsada, lekin alohida olingan bank duch kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy muammolarni va inqirozlarni oldini olish maqsadga erishishdagi eng yaxshi yo‘ldir. Omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilishdan maqsad, ular o‘z mablag‘laridan foydalanayotgan banklar tomonidan qanday xavf-xatarli operatsiyalar bajarilayotganligi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega emaslar.

Bu borada respublikamizda amalga oshirilgan ishlardan biri 1997 yil mart oyidan boshlab jahon andozalariga mos keladigan va banklar faoliyatini oydinlashtirish imkonini beradigan tijorat banklari hisob-varaqlari yangi rejasi amalga joriy qilingani bo‘ldi. Yangi hisob-varaqlar rejasini joriy qilinishi banklar faoliyati “oshkoraligini” (inglizcha “transparent” - shaffoflik, ochiqlik, oydinlik) sarmoyadorlar, bank mijozlari va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta’minlash imkonini berdi.

Bank faoliyatini nazorat qilishning zarurligi amalga oshiriladigan monetar siyosatning asosini tashkil etish bilan birgalikda respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o‘tishdagi o‘ziga xos yo‘li bilan ham bog‘liqdir.

Respublikamizda Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilinishining asosiy maqsadi tijorat banklariga biron bir iqtisodiy chora ko‘rish emas, balki bank faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etib, bank tizimining barqarorligini oshirish natijasida bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Shu o‘rinda Markaziy bankning tijorat banklarini lisenziyalash borasidagi siyosatini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Banklarni lisenziyalash va ular faoliyatini tartibga solish, ya’ni bank nazorati bank tizimining barqarorligini saqlash, yangi moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lgan banklarning bozorga kiritilishini nazorat etish yo‘llaridan biridir. Banklarni ro‘yxatga olish va lisenziyalash jarayonini takomillashuvi, avvalambor, lisenziyalash andozalarini, ya’ni bank muassasalarining moliyaviy ahvoli, bank rahbarlari malakasi va obro‘sigga qo‘yiladigan talablarni oshirishdan iboratdir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, respublikamizda Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini sonini ko‘payishga yo‘l qo‘ygan MDH davlatlaridan farqli o‘laroq, banklarning sonidan ham ko‘ra sifatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa, ko‘plab davlatlarda yuz bergan moliyaviy inqirozlarni respublikamiz bank tizimiga o‘z ta’sirini o‘tkazmaganligi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklarini lisenziyalash va bank nazoratini tashkil etishda olib borayotgan siyosatini to‘g‘riligini yana bir bor isbotladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, banklar tomonidan o‘z kapitali yetarliligini ta’minlanishi, Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy me’yorlarga rioya etilishi, iqtisodiyotning real sohasiga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari o‘shishini va

riskning oqilona diversifikatsiyalanishini ta'minlanishi, kreditlar berish shartlarini, shuningdek, bank kredit portfelining holatini aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda nazorat qilinishi bank nazoratining mohiyatini bildiradi.

1.2. Bazel I va Bazel II talablarining ahamiyati.

Xalqaro moliya bozorlarida resurslarning yanada samarali taqsimlanishini ta'minlash yo'li bilan moliya innovatsiyalari, moliya bozorlarining ochiqligi hamda globalizatsiya mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va iqtisodiy o'sishlariga turtki bo'ldi. Shuningdek, kapital harakatining erkinligi qarzdorlar uchun yangi moliyaviy manbalarga yo'l ochilishiga va oqibatda investisiyalar miqdorining haddan tashqari ko'payib ketishiga hamda bank riskini oshishiga olib keldi. Bu o'z navbatida, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarni sinishiga sababchi bo'ldi.

70-yillar boshidan boshlab milliy va xalqaro darajada kredit tashkilotlari tomonidan riskni baholashda aniq qoida va me'yorlar kiritish yo'li bilan moliyaviy barqarorlikni himoya qilishga urinishlar qilingan. XX asrning 80-yillariga kelib, yuqorida aytib o'tilganidek bank ishining internasionallashuvi oqibatida bank nazorati tizimi xalqaro miqyosda shakllana boshladi. Mazkur davrda bank nazorati va tartibga solish masalalari bo'yicha Bazel qo'mitasi tarkib topdi.

Ushbu qo'mita to'g'risida olimlarimiz tomonidan tayyorlangan turli o'quv metodik qo'llanmalarda ma'lumotlar berilishiga qaramay, Bazel qo'mitasining tarkibiy tuzilishi, maqsad va vazifalari hamda tamoyillari tahlil qilinmaganligini hisobga olib, Bazel qo'mitasi to'g'risida to'liq ma'lumot berilishi respublikamiz bank tizimida ushbu talablardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi deb o'ylaymiz.

1974 yil iyun oyida G'arbiy Germaniyaning «Bankxaus Xershtatt» banki xorijiy valyutadagi operatsiyalaridan so'ng katta zarar ko'rdi va bankrotlikka uchradi. Shu bilan birga, valyuta kurslarini tartibga solib turuvchi Bretton-Vuds tizimining faoliyati to'xtatilgandan so'ng bir qator banklar ham juda katta zararlarga duch keldi. Jumladan, AQShning «Franklin Neshnl» bankining 1974 yil may oyida xorijiy valyutadagi operatsiyalardan ko'rgan zararlari natijasi ommaviy tarzda depozitlar va omonatlarni qaytarib olinishiga olib keldi. Bu esa bank faoliyatining to'xtatilishiga sabab bo'ldi.

Vujudga kelgan tanglik holatidan chiqib ketish maqsadida dunyoning 10 ta rivojlangan mamlakatlari, ya'ni Belgiya, Kanada, Fransiya, Shvesiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Shveysariya markaziy bank boshqaruvchilari 1974 yil sentyabr oyida moliya bozorlaridagi barqarorlikni ta'minlash maqsadida maxsus «kommyunike» (kelishuv) qabul qildilar. 1974 yil dekabr oyida Shveysariyaning Bazel shahrida bo'lib o'tgan «10»lik guruhi uchrashuvida Angliya Bankining boshqaruvchisi Gordon Richardson taklifiga ko'ra, boshqaruvchilar tomonidan banklarni tartibga solish va nazorat kilish uslublarini takomillashtirish maqsadida doimiy qo'mita tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi va shu tariqa Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi vujudga keldi. Yangi, doimiy

faoliyat ko'rsatuvchi bu qo'mitaning birinchi raisi etib Angliya Bankining bank nazorati boshqarmasi boshlig'i Djordj Blanden tayinlandi. Qo'mita sekretariati Shveysariyadagi Markaziy banklarning o'zaro hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi xalkaro hisob-kitoblar bankida joylashtirildi.

Qo'mita tuzilgan vaqtda «10»lik guruhi davlatlarining moliyaviy bozorlardagi operatsiyalari hajmi barcha operatsiyalar hajmining 90 foizini tashkil etgan edi. Asosiy ishtirokchilar sonining cheklanganligiga ("10"lik guruhi) qaramay, hamkorlikning kengayishi mintaqaviy guruhlarni tuzish orqali ta'minlandi. Ulardan birinchisi 1980 yil oktyabr oyida tashkil etilgan bank nazoratining Offshor guruhi hisoblanib, unda o'sha paytdagi barcha yetakchi Offshor markazlarining tartibga solish va nazorat qilish organlari vakillari ishtirok etdi.

Dastlab vakolatlar doirasi cheklanganligiga qaramay, qo'mita o'z faoliyatini ko'p yo'nalishlar bo'yicha kengaytirdi. Bu yo'nalishlar davlatlararo milliy bank nazorati mexanizmlari to'g'risida ma'lumotlar almashish, xalqaro banklar faoliyatini nazorat qilish usullari camaradorligini oshirish, kapital yetarliligining minimal normalarini tatbiq qilish shuningdek, nazorat organlarini qiziqtirgan boshqa muammolarni tahlil qilishga tegishlidir.

Shu bilan birgalikda, qo'mita ilgari qabul qilingan optimal standartlardan voz kechib, o'z faoliyatini bank nazorati sohasida hamda kapitalning yetarliligiga oid minimal normativlardan faol foydalanishga qaratdi. Moliyaviy bozorlarning dinamik rivojlanishida qo'mita kompleks sohalararo aloqalarga katta e'tibor qaratmoqda, jumladan, qimmatli qog'ozlar va sug'urta faoliyatlarini nazorat qiluvchi organlar bilan shuningdek, buxgalteriya hisobi va xalqaro audit standartlari kabi boshqa sohalar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda.

1975 yildan boshlab qo'mita xalqaro bank nazorati muammolari bo'yicha bir qator hujjatlarni ishlab chiqdi. Bu sohada bo'lib o'tgan o'zgarishlar qaysidir darajada qo'mita siyosatidagi o'zgarishlarni va uni nazoratiga yondashishni aks ettirsada, ammo xalqaro bank faoliyatidagi va moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlar qo'mita uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Xalqaro banklarning chet mamlakatlardagi operatsiyalari ustidan bank nazoratining samarali usullarini ishlab chiqish bo'yicha Bazal qo'mitasining birinchi tavsiyalari 1975 yil sentyabr oyida Birinchi Konkordatda bayon etildi. Bu hujjat asosan ma'lum bir bankning transmilliy operatsiyalarini nazorat qilishni amalga oshirish jarayonida davlatlararo nazorat organlari o'rtasidagi javobgarlikni taqsimlash muammolariga taalluqlidir. Konkordat nazoratning to'rtta asosiy tamoyilini belgiladi.

1. Chet mamlakatlar banklari tomonidan boshqa davlatlarda tashkil kilingan bank muassasalari faoliyatini nazorat qilish maqsadida qo'shma javobgarlik ushbu xorijiy bank muassasasi ochilgan davlat va xorijiy bank joylashgan davlat nazorat organlariga yuklandi.

2. Likvidlilik bo'yicha nazorat xorijiy bank muassasasi ochilgan davlat nazorat organlarining vazifasi hisoblanganligi sababli, likvidlilikni boshqarishda xorijiy banklar, odatda mahalliy normalarga rioya qilishlari lozim.

3. Xorijiy banklarning to'lovga layoqatliligini nazorat qilish asosan ushbu banklar joylashgan davlatning nazorat organlariga yuklandi.

4. Amaliy hamkorlik xorijiy bank joylashgan va uning muassasasi ochilgan

davlatlarning nazorat qilish organlari o'rtasida ma'lumot almashish hisobidan ta'minlashi lozim.

Buning uchun esa, hamkorlikka to'siq bo'ladigan barcha yuridik cheklovlarga, avvalambor, davlatlar bank siri bilan borliq muammolarni yechish lozim edi. Birinchi Konkordat dastlab chop etilmasdan, faqat nazorat organlariga tarqatildi, chunki u faqat milliy nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarga tegishli bo'lib, tijorat banklari faoliyatiga bog'liq emas deb hisoblanardi.

1983 yilda Birinchi Konkordat o'rniga qayta ko'rib chiqilgan Konkordat ishlab chiqildi. Qayta ko'rib chiqilgan Konkordat «Banko Ambroziano» xoldingining barbod bo'lishidan so'ng, 1982 yilda chop etildi. «Banko Ambroziano» Lyuksemburgdagi italyan bank guruhlarining xolding kompaniyasi hisoblanar edi. Chunki Lyuksemburg nazorat organlari uni banklarga qo'shmaganligi sababli, u qisman nazorat sohasidan chetda qolgan edi. Kompaniya barbod bo'lganidan so'ng Lyuksemburg va Italiya nazorat qilish organlari o'rtasida xolding kompaniya faoliyati ustidan nazoratga javobgarlik bo'yicha tortishuv (munozara) yuzaga keldi. Shu munosabat bilan qayta ko'rib chiqilgan Konkordatning tushunchalar bo'limida xalqaro bank guruhlarining, shuningdek xolding kompaniyalarining va aralash faoliyatdagi guruhlarining tarkibiy xususiyatlari aks ettirildi.

1990 yilda qayta ko'rib chiqilgan Konkordatga informasion ilova nashr etildi. Uning asosiga Bazal qo'mitasi va bank nazorati Offshor guruhlarining qo'shma ishchi guruhi hisoboti natijalari kiritildi. Ushbu hisobotda 1983 yilda qayta ko'rib chiqilgan Konkordatni amalga joriy qilish jarayonida vujudga kelgan muammolar ko'rib chiqilgan edi. Ilova o'z ichiga faoliyat olib borishga ruxsat olish, bosh bank joylashgan va uning muassasalari faoliyat ko'rsatayotgan davlatlarning nazorat organlari ma'lumotlariga bo'lgan talablari, bank sirini bekor qilish va tashqi auditning ahamiyati kabi bir qator maxsus qoidalarni olgan.

1990 yilda informasion ilova nashr etilgandan so'ng, 1992 yilda Nazoratning minimal standartlari to'g'risida takroriy bayonot e'lon qilindi. Nazorat organlarining xalqaro faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan keyingi tahlil «VSS!» bankining barbod bo'lishi va «Banko Nazionele del Lavoro» bankining Atlantadagi bo'limida sodir bo'lgan voqealardan so'ng 1992 yilning yozida amalga oshirildi. Shunga asosan, qo'mita quyidagi xulosaga keldi: qayta ko'rib chiqilgan Konkordat va 1990 yil informasion ilova yetarli asoslanganligiga qaramay, nazorat organlari ishlab chiqilgan standartlarni joriy qilishni faollashtirishlari lozim. Shuningdek, "10"lik guruhining barcha davlatlarida nazorat organlari tomonidan rioya qilinishi lozim bo'lgan bank nazoratining minimal standartlari to'plamini belgilash tavsiya kilindi.

Ikkinchi hisobot 1996 yilda Bazal qo'mitasi va bank nazoratining Offshor guruhi bilan qo'shma ishchi guruhi tomonidan tayyorlandi. Minimal standartlar e'lon qilinganidan so'ng, 4 yil davomida qo'mita ushbu standartlarni joriy qilinishida davlatlarning milliy nazorat organlari faoliyati ustidan monitoring o'tkazdi. Sezilarli taraqqiyotga qaramasdan, hamon bir qator muammolar yechilmay qolgan edi. Ishchi guruh minimal standartlarni, shuningdek nazorat organlariga o'zlarining an'anaviy milliy nazorat usullari yordamida ushbu standartlarni tatbiq etishda vujudga kelgan to'siqlarni tahlil qilib chiqdi.

Tekshirishlar o'tkazish va nazorat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan konsolidatsiya nazoratini samarali baholashda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan bir qator masalalarga oid amaliy tavsiyalar alohida qiziqish uyg'otdi. Minimal standartlarni risoladagidek amalga oshirishni ta'minlash maqsadida ishchi guruh 1986 yilda Stokgolmdagi bank nazorati bo'yicha navbatdagi Xalqaro Konferensiyada standartlarga rioya qilishni ta'minlash majburiyatini yana bir bor tasdiqlashni, shuningdek navbatdagi 1989 yil Konferensiyasi oldidan standartlarga rioya qilishni tekshirish lozimligini tavsiya qildi.

Nihoyat, 1997 yil aprel oyida konsultativ xarakterga ega bo'lgan dastlabki hujjat tayyorlangandan so'ng, 1997 yil sentyabr oyida bank nazorati asosiy tamoyillari to'liq ro'yxati e'lon qilindi. 1996 yil Bazel qo'mitasi tomonidan konsultativ xarakterga ega bo'lgan hujjatlarni nashr etgandan so'ng, bozor riskini hisob qilish maqsadida kapital to'g'risidagi Bitimga tuzatishni ko'zda tutadigan navbatdagi hujjatni chop etdi. Kapital to'g'risidagi Bitim kredit xavfidan yuzaga keladigan zararlarni bank kapitali hisobidan yopishni ko'zda tutardi. Shu bilan birga, ushbu xavf xususan, aksiyalar, qarz va boshqa moliyaviy instrumentlar bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha ham keladigan zararlar bilan bog'liqligini ko'zda tutardi.

Risk bilan bank kapitalining yetarliligini hisoblash o'rtasida aloqalar mustahkamlanishi hamda Bazel qo'mitasining kapital tarkibi bo'yicha yangi talablari 100 ga yaqin davlatlarda qabul qilinishi Jahon bank tizimini mutanosibli va ishonchliligini mustahkamlashga, xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar o'rtasida raqobatning tengligini ta'minlashda hamda nazoratni kelishuv asosida amalga oshirilishiga katta yordam berdi. Moliyaviy munosabatlar globalizatsiyasining kuchayishi va ular bilan bank riskliligining ortishi kredit tashkilotlarining ishonchliligini baholovchi yangi yo'llarni shu bilan birga kapital yetarliligi va risklarni baholashning yangi uslublarini topish zarurati tug'ildi. Milliy va xalqaro darajadagi bank nazoratining 25 ta fundamental asosiy tamoyillari 1997 yilda chop etilgan edi, so'nggi bor 2006-yilda chop etildi. Bu tamoyillar Bazel qo'mitasi tomonidan bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan 15 ta davlatning banklarni nazorat qilish organlari bilan birgalikda ishlab chiqildi. Taxmin qilinardiki, jahonning barcha davlatlarida hukumatining nazorat va boshqa organlari banklarni nazorat qilishda Bazel qo'mitasining asosiy tamoyillariga tayanadi.

Asosiy tamoyillar Bazel qo'mitasi tomonidan tayyorlangan 3 jildli hujjatlar to'plami bilan birga chop etildi. To'plamda Bazel qo'mitasi tomonidan 1975 yildan buyon ishlab chiqilgan nazorat siyosatiga oid masalalar bo'yicha muvofiqlashgan asosiy hujjatlar ifoda etilgan. Bazel qo'mitasining asosiy tamoyillari 1997 yil sentyabr oyi oxirida Gonkongdagi Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon banki yig'ilishi arafasida nashr etilgan edi.

Asosiy tamoyillarning tayyorgarligi Bazel qo'mitasi hamda bir qator "10"lik guruhiga kirmaydigan, jumladan Xitoy, Chexiya, Gonkong, Meksika, Rossiya, Chili va Tailand davlatlari nazorat organlari bilan uzviy hamkorlikda amalga oshirildi. Ushbu ishda 8 ta davlat, jumladan, Braziliya, Vengriya, Indoneziya, Koreya, Malayziya, Polsha va Singapur, bevosita ishtirok etdilar. Asosiy tamoyillarda lisenziyalash va banklar faoliyatiga joriy nazoratga nisbatan talablarning minimal to'plami belgilangan.

Bazel qo‘mitasi uchun kotibiyat vazifasini xalqaro tashkilot hisoblangan, iqtisodiy va monetar izlanishlar markazi bo‘lgan Xalqaro hisob-kitob banki (XXKB) bajaradi. «Markaziy banklar uchun bank» bo‘lgan Xalqaro hisob-kitob banki markaziy banklar hamda jahon moliya hamjamiyati yo‘nalishida qarorlar qabul qilish jarayonida ko‘maklashadi. Hozirgi kunga kelib, 120 ga yaqin markaziy banklar va xalqaro moliya tashkilotlari ushbu bankda o‘z depozitlariga egadir. Xalqaro hisob-kitob banki ishonchliligi yuqori reytingga ega bo‘lgan banklarda, shuningdek, turli mamlakatlarning qisqa muddatli davlat qimmatli qog‘ozlariga mablag‘larni joylashtiradi.

Bazel qo‘mitasining bank nazoratiga oid asosiy vazifasi bank nazorati va tartibga solishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish bo‘lib hisoblanadi. Kelishuvga a‘zo bo‘lgan davlatlar qo‘mitaga ularning bank muassasalari uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni ishlab chiqishini yuklaydilar. Ushbu ko‘rsatmalar tijorat banklari faoliyatini turli jabhalarini tartibga solib turadi. Shuningdek ushbu ko‘rsatmalar a‘zo bo‘lgan davlatlarda qoida bo‘yicha bank qonunchiligining bir qismi bo‘lib qoladi.

Bazel qo‘mitasi faoliyatining asosiy yo‘nalishi bank tizimi uchun o‘z kapitaliga sifat va miqdor jihatdan yetarli talablarni o‘rnatish yo‘li bilan mustahkam faoliyatni ta‘minlashdan iboratdir. Bu o‘rinda asosiy hujjat bo‘lib, 1988 yilda markaziy bank vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va 1993 yilda amaliyotga joriy qilingan Kapital va risk bo‘yicha Bazel I kelishuvi hisoblanib, unda kapitalning yetarliligi bank tashkiloti tomonidan olayotgan risk darajasiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Bizga ma‘lumki, bank faoliyatini nazorat qilishda kapitalni yetarliligi asosiy faktor hisoblanadi. Boshlang‘ich mablag‘, mijozlar va kreditorlar ishonchini oshirish hamda bankrotlikdan himoyalashish amallarini bajarish bank operatsiyasini amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bank kapitali uning faoliyatini tartibga soluvchi bo‘lib hisoblanib, u orqali davlat nazorat tashkilotlari bankni moliyaviy nomutanosibligini va risk darajasini haddan tashqari ko‘payib ketishini oldini olish maqsadida iqtisodiy me‘yorlarni belgilashda foydalaniladi.

Turli davlatlar tomonidan yakka tarzda o‘rnatilgan bank kapitalining yetarliligi me‘yori xalqaro moliya tizimini mustahkamligini va ular o‘rtasida haqqoniy raqobatni ta‘minlamayapti. 1988 yilda bank kapitalini tartibga soluvchi talablarni yaqinlashtirish maqsadida Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi «Kapitalni o‘lchash usullari va andozalarini xalqaro yaqinlashtirish» (Bazel kelishuvi) borasidagi hujjatni tasdiqlab, unda kapital yetarliligi me‘yorini hisoblash uslubini belgiladi.

Kapital yetarliligini aniqlash bo‘yicha ishlab chiqilgan mazkur uslub kapital summasi bilan bank aktiv operatsiyalarining riskliligi o‘rtasida o‘rnatilgan bog‘liqlikni maqsadliligiga asoslanadi. Ushbu bog‘liqlik o‘z kapitalini riskka tortilgan aktivlarning jami miqdoriga yoki potensial kreditlar, investisiyalar hamda boshqa qo‘yilmalar bo‘yicha yo‘qotishlarning jami miqdori nisbati bilan aniqlanadi.

Mazkur uslubda kapital ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi darajali kapital to‘liq to‘plangan oddiy aksiyalar va dividendlar, yig‘ilmasdan to‘lanadigan imtiyozli aksiyalardan iborat bo‘lgan aksiyadorlik kapitali, ochiq (e‘lon qilinadigan) zaxiralar, qo‘shimcha to‘langan kapital, taqsimlanmagan foyda, ko‘zda tutilmagan

yo'qotishlarga qarshi umumiy zaxiralar va aniq bir davlat qonunchiligining o'ziga xosligi bilan bank tomonidan tuziladigan boshqa zaxiralardan tashkil topadi.

Shuningdek, kelishuvda ko'shimcha kapitalni, ya'ni ikkinchi darajali kapitalni shakllantirishning boshqa uslublari ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibiga kapitalning yetarliligi darajasi o'zgargan taqdirda hisobga olinadigan turli shakldagi zaxiralar va aralash moliya instrumentlari kiradi. Ko'shimcha kapitalni komponentlaridan biri bu aktivlarni balansida ko'rsatilgan boshlang'ich qiymatini (bino, qimmatli qog'ozlar va boshqalar) joriy bahoda qayta hisoblashdan kelib chiqqan bank aktivlarni qayta baholash zaxirasi hisoblanadi.

Ikkinchi darajali kapitalning navbatdagi komponenti bu ssudalar bo'yicha yo'qotishlarga qarshi umumiy zaxiradir. U ssuda portfeli bo'yicha ko'zda tutilmagan yo'qotishlarni qoplashga qaratilgan bo'lsagina amalda qo'llaniladi. Agarda mazkur zaxira aniqlangan sifatsiz ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga qaratilgan bo'lsa, u favquloddagi yo'qotishlarni qoplash uchun erkin ishlatila olinmaydi va shunga muvofiq u kapitalni hisoblashda hisobga olinmaydi.

Ikkinchi darajali kapital tarkibiga aksiya va qarz majburiyatini o'z ichiga olgan (dividendlar, yig'ilib boriladigan imtiyozli aksiyalar, aksiyalarga konvertatsiya qilib beriladigan obligatsiyalar) qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari kirishi mumkin. Oxirgi yillarda g'arbda banklar tomonidan chiqariladigan majburiyatlarning subordinar turi mashhur bo'ldi. Subordinar majburiyatlar bu qimmatli qog'ozlarning asosiy turi bo'lib, uning maxsus ta'minoti bo'lmasdan, bank tugatilgan hollardagina kreditorlarning talablari qondirilgandan so'ng qaytariladi. Subordinar majburiyatlarni kapital tarkibiga kiritish uchun ularning boshlang'ich qaytarish muddati kamida besh yil bo'lishi, shuningdek hisobga olinadigan summasi umumiy kapitalning 50% dan oshmasligi lozim. Bu iqtisodiy me'yorlar kapitalning yetarliligi koeffisientlari bilan birga Jahon banki maslahatchilari bilan ishlab chiqilib, 1998 yilda bank nazorati amaliyotiga joriy qilingandi.

Bazel qo'mitasi bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'zda tutilmagan risklarni oldini olish uchun 1997 yilda amaliyotga III-darajali kapitalni kiritdi. III darajali kapital tarkibiga qisqa muddatli subordinar qarz (maksimal muddati 2 yildan oshmasligi kerak) kiritilgan bo'lib, u I darajali kapitalning 250 % dan oshib ketmasligi kerak.

Xalqaro bank nazorati talablarini, ya'ni me'yorlarini o'rnatishda mahalliy sharoit makroiqtisodiy holatini hisobga olish lozim.

Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan barcha davlatlardagi banklarga nisbatan belgilangan, ya'ni ikkinchi darajali kapitalning hajmi birinchi darajali kapitaldan oshib ketmasligi to'g'risidagi talabi bugungi kunda bizning respublikamizda qo'llanilishi maqsadga muvofiq emas. Chunki hozirgi davrda rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilayotgan subordinar qarzlar va derivativ moliyaviy instrumentlar milliy bank amaliyotimizga kirib kelgani yo'q. Shu bilan birga ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha ham huquqiy normativ baza yaratilmagan.

Yuqorida aytib o'tilgan Bazel qo'mitasining kelishuviga ko'ra balans hamda balansdan tashqari moddalarning har biriga risk darajasini belgilab, ularning riskliligi o'xshashligi bo'yicha guruhlariga ajratadi. Risk koeffisientlari to'rtga bo'lingan: 0, 20, 50 va 100 %.

Bazel qo'mitasining kelishuviga muvofiq xalqaro faoliyatni amalga oshiruvchi banklar uchun aktivlari riskka tortilgan birinchi darajali kapitalning minimal miqdori 4 % bo'lishi o'rnatilgan bo'lib, birinchi va ikkinchi darajali kapitallardan tashkil topgan jami kapitalning riska tortilgan aktivlarga nisbatan yetarliligi 8 % bo'lishi belgilangan. Kapital yetarli bo'lmagan taqdirda bank uch usul orqali me'yoriy talablarga moslashtirilishi mumkin: kapitalni oshirish orqali, aktivlarni qisqartirish orqali, riskliligi yuqori bo'lgan qo'yilmalar miqdorini qisqartirish orqali aktivlar tarkibini o'zgartirsa bo'ladi.

Risk bilan bank kapitalining yetarliligini hisoblash o'rtasida aloqalar mustahkamlanishi hamda Bazel qo'mitasining kapital tarkibi bo'yicha yangi talablari 100 ga yaqin davlatlarda qabul qilinishi jahon bank tizimini mutanosibli va ishonchligini mustahkamlashga, xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar o'rtasida raqobat tengligini ta'minlashda hamda nazoratni kelishuv asosida amalga oshirilishiga katta yordam berdi.

Bank nazoratiga kapitalning yetarliligi me'yori orqali kredit tashkilotlarini ishonchligini aniqlash amaliyotini tatbiq etish jahon bank tizimida ma'lum bir natijalarni berdi: o'tgan o'n yil ichida rivojlangan davlatlar kredit tashkilotlarining kapital yetarliligi o'rtacha ko'rsatkichi 9,3 dan 11,2% ga oshdi. Moliyaviy munosabatlar globalizatsiyasining kuchayishi va ular bilan bank riskliligining ortishi kredit tashkilotlarining ishonchligini baholovchi yangi yo'llarni, shu bilan birga kapital yetarliligi va risklarni baholashning yangi uslublarni topish zarurati tug'ildi.

Bazel qo'mitasi jahon tajribasini umumlashtirgan holda 1999 yilning boshlarida bank kapitalining yetarliligi to'g'risidagi nizom masalalariga bag'ishlangan muloqotni tashkil qiladi. Muloqot chog'ida oxirgi 10 yil ichida bozor amaliyotini jadal rivojlanishi sharoitida hamda turli yangiliklarni paydo bo'lishi bilan moliya dunyosida ham o'zgarishlar vujudga kelib, amaldagi uslubda hisoblangan bank kapitali yetarliligi koeffisenti har doim ham uning moliyaviy holatini ishonchli ko'rsatkichi bo'la olmasligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, mazkur muloqotda shuni ham alohida ta'kidlab o'tishdiki, amaldagi nizomda ayrim bank operatsiyalarining turlari bo'yicha riskni kamaytirish usullarini qo'llashni rag'batlantirish ta'minlanmagan. Masalan, garov ta'minoti kapitalni yetarliligiga qo'yilgan talabni minimal kamayishiga olib keladi xolos. Boshqa holatlarda amaldagi me'yorlar kredit riskliligini kamaytirish yo'lini izlashga imkon bermaydi.

Ko'p tarfli o'tkazilgan muloqotlar natijasidan so'ng Bazel qo'mitasi 1999 yil iyun oyida kapitalni yetarliligini ta'minlash muammosiga yangicha yondashish hamda banklar tomonidan me'yorlarni buzmasligi ustidan nazoratni yaxshilash masalalariga bag'ishlangan ma'ruzani e'lon qildi. Yangi sxema uch bazaviy va uni to'ldirib turuvchi komponentlarga asoslanadi: kapital yetarliligiga minimal talab, nazorat jarayonlari hamda bozor instrumentlaridan samarali foydalanish.

Mazkur komponentlarni birgalikda qo'llash orqali kredit tashkilotlari tomonidan bank kapital bazasini uning riskliligi va strategiyasiga muvofiklashtirishni ta'minlash orqali boshqaruvni yaxshilashga olib keladi. Ushbu komponentlarni mohiyatan alohida o'rganib chiqamiz.

Kapital yetarliligiga minimal talablar. 1988 yil kelishuvning asosiy elementlari, ya'ni regulativ kapitalni aniqlash hamda kapitalni riskka tortilgan aktivlarga nisbatining eng kam miqdori yangi hujjatlarda o'zgarishsiz qoldi. Yangi talablar asosan riskka tortilgan aktivlarni hisoblashga qaratilgan riskni baholashni o'z ichiga oldi.

Bazel qo'mitasi hisobga olinadigan risklar tarkibini kengaytirishni taklif qildi. Uchta yirik toifa ajratildi: kredit, bozor va boshqa risklarga kirgan birinchi navbatda bank balansining hisobvaraqlari bo'yicha operasion va foiz risklarini, shuningdek, likvidlikni, obro'-e'tiborni va boshqalarni yo'qotish riskliligi o'z ichiga oladi. Kapital yetarliligiga eng kam bo'lgan talab o'z ichiga kredit va operasion risklarni baholashni olib, bunda bozor riskliligini baholashga talablar o'zgarmaydi. Foiz riskliligini baholash murakkab modelni qo'llashni talab qilganligi munosabati bilan Bazel qo'mitasi uni ikkinchi komponentga kiritishni maqsadga muvofiq deb topgan.

Kredit va operasion risklarni baholashda banklar tomonidan quyidagilardan foydalanish ko'zda tutilgan: ichki reytingning andozaviy, baza usullari; ichki reytingning mukammal usuli.

Aktivlarning turli toifalari bilan bog'liq risklarni baholash aniqligini oshirish uchun banklarga tashqi kredit reytinglaridan foydalanish imkonini, ya'ni moliya instrumentlarini investision jihatdan jalb qilishni baholash bilan malakali shug'ullanadigan ixtisoslashgan moliya agentligi tomonidan, shuningdek, eksport operatsiyalarni kafolatlash bilan shug'ullanadigan sug'urta kompaniyalarga berish masalasi ko'tarilgan edi. Mazkur sohada Standart and Poor's, Moody's Service, Fitch IVSA mashhur firmalardan hisoblanadi.

Ushbu kelishuvga muvofiq Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga (IHRT) a'zo bo'lgan mamlakatlar qarzdorlari va bu mamlakatlardan tashqari bo'lgan qarzdorlarga bo'lishni tugatish ko'zda tutilgan. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, qarzdorlarni bunday bo'lish ularning sifatiga qo'yiladigan talablarni to'liq aks ettirmaydi. Yangi usul sohasida qarzdor (aktiv)lar bo'yicha riskning asosiy toifalari ko'rsatilgan: davlat boshqaruv va hokimiyat tashkilotlari (hukumat, mamlakat Markaziy banki), tijorat banklari, aniq sohaning nomoliyaviy tashkilotlari, jismoniy shaxslar, loyihani moliyalash hamda kapitalda qatnashish.

Yangi tizim bo'yicha muhim o'rinni ixtisoslashtirilgan reyting agentliklari o'ynaganligi sababli ularni tanlab olish mezonlari (ob'ektivlik, aniq, uslublardan foydalanish, reyting agentliklariga bo'lgan ishonch) oldindan kelishib olinadi.

Yuqorida aytib o'tilgan kapitalni aniqlash bo'yicha yangi talab o'zgarishsiz qoldi. Kapitalni yetarliligi to'g'risidagi 1988 yildagi Nizomga muvofiq qarzdorlarga beriladigan kreditlar uning moliyaviy holatidan qat'iy nazar 8 foiz miqdorida o'z mablag'lari bilan ta'minlanishi lozim. Berilayotgan kreditlar ta'minotiga bunday o'rnatilgan talab iqtisodiy nuqtai nazardan ko'p banklar kapitalini norasional taqsimlanishiga olib keldi. Kredit riskliligi kichik bo'lgan tijorat banklari balansining aktiv portfeli iqtisodiy nuqtai nazardan o'z kapitalini yuqori miqdorda ta'minot sifatida ajratishi lozim bo'ladi. Va aksincha kredit riskliligi darajasi yuqori bo'lgan banklarda ko'zda tutilmagan vaziyatlar yuz bergan hollarda o'z kapitali yetishmasligi mumkin.

Bankning o'z kapitali xavf va zararlar vujudga kelganda bankni faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Shuning uchun kapitalning himoya alomatlari uning miqdori bilan emas, balki uni aktivlarga: (birlamchi zaxira, kreditlar, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqalar) joylashtirish tarkibi darajasi bilan belgilanadi. Qabul qilingan kelishuvga muvofiq kapitalni yetarliligi xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi risk xarakteri bilan belgilanadi.

2005 yildan boshlab qarzdorning kredit qobiliyati har bir mijozga beriladigan bankning ichki reyting tizimi bilan baholanadigan bo'ladi. Bunda, to'lovga qobiliyatlik reytingi qancha past bo'lsa, o'z kapitali miqdoriga bo'lgan talab shuncha yuqori bo'ladi. Mustaqil ishlab chiqarish reyting tizimidan foydalanish tijorat banklari uchun kreditlashga har tomonlama qarzdor bilan bog'liq risk darajasi va turiga qarab yondashish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda zamonaviy dunyoda risklar doim diversifikatsiya qilinib borishi hamda bank oldida mazkur risklarni baholash uslublarini har doim yaxshilab borish vazifasi turadi. Ushbu masalani hal qilish uchun banklarning o'zlarini hamda nazorat organlarini, maslahat beruvchi firmalarni, reyting agentliklarining harakatlarini muvofiqlashtirish lozim bo'ladi.

Mavzuning mohiyatidan kelib chiqib Bazel qo'mitasining iqtisodiy me'yorlarni bajarilishini nazorat organlari tomonidan nazorat qilish yuzasidan bildirgan takliflariga qisqaga to'xtalib o'tsak. Banklar kapitalni yetarliligiga qo'yiladigan talabni yangilashning muhim o'rnini Bazel qo'mitasi nazorat faoliyatini mukammallashtirishga qaratgan. Nazorat organlarining maqsadi bankning kapital bazasi holatini nazorat qilish bo'lsa, ularning strategiyasi – bank kapitalini bankning risk umumiy tuzilmasiga muvofiqligini ta'minlashdir. Shu sababli nazorat organlari banklarning o'z mablag'lari kapitalni yetarliligi me'yoringing eng kam talablarini bajarishini talab qilishi Huquqiga ega bo'lishi, shuningdek, kapital bazasini baholash jarayoni va reytingi ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Bazel qo'mitasi kapital yetarliligi darajasini hamda kapitalni qo'shimcha miqdorlari (kapitalning ikkinchi darajasi)ni baholashda bank va nazorat organlari iqtisodiy jarayonlarni bog'liqligi hamda umumiy makroiqtisodiy holatni e'tiborga olishni taklif qilgan.

Bank holatiga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jarayonlarni oldini olish maqsadida istiqbolli testni o'tkazish lozim bo'ladi. Shuningdek, Bazel qo'mitasi bank tomonidan qabul qilingan strategiya, uning kapitali va to'lov qobiliyatini saqlash imkonini bermasa, nazorat organi uning faoliyatiga aralashish xuquqi berilishi borasidagi taklifi bilan chiqqan.

Aktiv va passivlar sezgirligi asosida yotuvchi kredit-depozit operatsiyalari bo'yicha foiz riskliligi bankning likvidligi va kapitalga jiddiy xavf bo'lib hisoblanadi. Bank uzoq va qisqa muddatli foiz darajalari farqi o'rtasidagi qo'shimcha daromad olishga intilishi bilan kutilmaganda pul bozoridagi baholarni o'zgarishiga bog'liq bo'lib qoladi. Mablag'larni joylashtirish va jalb qilish muddatlari o'rtasida farq bo'lmagan taqdirda ham yo'qotishlardan to'liq sug'urta qilib bo'lmaydi, chunki qo'yilmalar va qarzlar bo'yicha foiz stavkalar orasidagi farq bir-biri bilan bog'lanmagan bo'lishi mumkin.

Bank faoliyatida turli tabiatdagi foiz riskliligini paydo bo'lishini hisobga olgan holda, Bazel qo'mitasi mazkur turdagi riskni ikkinchi komponent doirasida hisobga

olishni maslahat bergan. Banklar foiz riskliligi darajasi miqdoriga mos ravishda kapitalni yetarli darajasiga ega bo'lmasa, unda ular bank faoliyatiga aralashishi orqali yoki riskni kamaytirishni yoki o'z kapitali miqdorini oshirishni talab qilishlari mumkin bo'ladi. Qo'mita shuni tushunib yetdiki, bunday banklarni topish uchun milliy miqyosda ma'lum darajada erkin faoliyat ko'rsatish hamda ssuda-depozit operatsiyalari bo'yicha foiz riskni hisoblash uslubini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Shunday qilib rivojlangan xorij davlatlarida bank nazorati tizimini shakllanishida asosiy e'tibor Markaziy banklar va tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olishga, kreditorlar va omonatchilar huquqini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini yaratishga qaratilgan. Katta yo'qotishlar bilan bog'liq bank risklarini aniqlashda xalqaro kelishuv Bazel qo'mitasi talablari katta ahamiyatga egadir.

2006 yilning oxiriga kelib Bazel qo'mitasi Bazel II kelishuvini amaliyotga tadbiiq etdi. Ushbu kelishuvda ham kapital yetarliligining minimal miqdori 8% ligi saqlanib qoladi. Yangi kelishuv uchta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular:

1. kapitalning minimal miqdoriga talab;
2. kapital etarliligining nazorat organlari tomonidan tahlil etish;
3. ma'lumotlarni keng ommaga e'lon qilish.

Ushbu kelishuvda risklar ikki turga, ya'ni kredit va operasion riska bo'linadi. Bazel II kelushuvining asosiy qo'llanish sferasi - bu konsolidatsiyalashgan banklar, bank xoldinglari, bank guruhlar bo'lib, ular xalqaro bank faoliyati bilan shug'ullanishadi.

Bazel qo'mitasi tomonidan 2006 yilda qabul qilingan bank nazoratini nazorat qilish bo'yicha 25 tamoyilining asosiy maqsadi samarali bank nazoratini tashkil qilishdir. Ushbu tamoyillar 7 guruhga bo'lingan.

- ✚ Ob'ektivlik, mustaqillik, vakolatlilik, shaffoflik va hamkorlik (tamoyil 1);
- ✚ lizeziyalash va tuzulma (tamoyil 2-5);
- ✚ prudental nazorat va tartibga solish (tamoyil 6-18);
- ✚ bank nazoratining usullari (tamoyil 19-21);
- ✚ hisobotlar va ularni oshkor etish (tamoyil 22);
- ✚ nazoratchilarning axloqi va ularning vakolatlari (tamoyil 23);
- ✚ konsolidatsiyalashgan banklar va xorijda faoliyat yurituvchi banklar nazorati (tamoyil 24-25).

Ushbu tamoyillarda bank nazoratini tashkil etish asoslari va kapital yetarliligi, yirik kreditlar, likvidlilik riski, bozor riski, operasion risk, kredit riski, mamlakat riski, foiz riski, risklarni boshqarish riski, ichki nazorat va ichki audit kabi bo'limlari bor.

Fan-texnologiyalarning rivojlanib borishi, internetning ommalashib borishi **e-banking** (Internet-banking)ning ham rivojlanib borishiga zamin yaratmoqda. Bu o'z navbatida Bazel qo'mitasi oldiga Internet banking risklarini oldini olish imkonini beruvchi tamoyillar ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu maqsadda birinchi marta 2000-yil oktyabr oyida internet banking risklarini oldini olish, ular ustidan nazorat qilish va ularning risklarini boshqarish bo'yicha tamoyillarni ishlab chiqdi. Ikkinchi marta esa 2003 yil iyul oyida elektron banking uchun risklarni

boshqarish tamoyillari ishlab chiqarildi. Elektron banking rivojlanib borishi xalqaro miqyosda nazoratni tashkil qilish va mamlakatlar bank nazoratchilari o'rtasida hamkorlikni ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bank nazorati organlari o'rtasida hamkorlikning ta'minlanishi xalqaro miqyosdagi qonunchiliklar qabul qilinish ehtiyojini keltirib chiqarmaydi. Elektron bankning rivojlanib borishining ikki sababi bor: birinchidan, banklar tomonidan taklif qilinayotgan elektron bank xizmatlari uning mijozlari tomonidan keng foydalanilmoqda, shuningdek, bank mijozlari tomonidan Internet xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda; ikkinchidan, yangi texnologiyalarning rivojlanib borishi banklarga inson mehnatidan foydalanmagan holda turli xildagi bank xizmatlarni taklif etish imkonini bermoqda va bank mijozlarining ortib borishiga xizmat qilmoqda. Lekin, elektron banklar faoliyatida uchraydigan risklar bu yangi paydo bo'lgan risklar emas, bular biz bilgan likvidlilik riski, mamlakat riski, operasion risk, strategik risk va boshqalardir.

1.3. Bazel III talablari va uni joriy etish shartlari.

Butun dunyoga mashhur xalqaro BAZEL qo'mitasi 1975 yildan buyon o'z faoliyatini boshlagan. Ushbu qo'mita Xalqaro hisob kitoblar banki qoshida tashkil etilgan hamda 27 ta dunyoning yetakchi davlatlari markaziy banklari bilan hamkorlikda umumjaxon bank tizimi dolzarb masalalari yuzasidan turli xil zarur tavsiyalar hamda talablarni ishlab chiqadi.

2010 yil 12 sentyabrdan kuchga kirgan G20 davlatlari Moliya vazirlari hamda Markaziy banklari raislari tomonidan ma'qullangan yangi hujjat asosan xususiy kapital yetarliligi masalasiga alohida urg'u berishga qaratilgan. Ushbu yangi kelishuv oldingi Bazel 2 kelishuvini rad etmaydi, balki uni to'ldiradi hamda kuchaytiradi. Barcha talablar bosqichma bosqich 2013 yil 1 yanvardan boshlab bir necha yil (5-10 yil) amalga oshirilishi lozim.

Bazel qo'mitasining «Samarali bank nazoratini ta'minlovchi tamoyillari» 25 ta asosiy tamoyildan iborat bo'lib, ularning mazmun-mohiyat jihatidjan quyidagilardan iborat:

1-tamoyil samarali bank nazorati uchun zaruriy shartlardan iborat bo'lib, bunda:

- bank nazoratini amalga oshiruvchi organ aniq belgilangan vazifa va majburiyatlarga, operativ mustaqillikka va tegishli moddiy bazaga ega bo'lishi;
- bank nazorati uchun yetarli huquqiy asos zarurligi;
- nazorat etuvchi organlar o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmining va bunday axborotlarning maxfiyligini ta'minlash lozimligi qayd etilgan.

2-5 tamoyillar banklarni lisenziyalash va talablar tarkibini o'z ichiga olib, mazkur tamoyillarda:

- banklar singari lisenziyalash va nazorat qilish talab etiladigan tashkilotlarga ruxsat etilgan faoliyat turlarini, tashkilotlarning nomida «bank» so'zidan foydalanishning qonuniyligi aniq belgilash;

- lisenziya beruvchi organ ma'lum o'ziga xos talablarni o'rnatish huquqiga ega bo'lishi va bunday talablarga mos kelmaydigan muassasalardan lisenziyalash uchun arizalarni qabul qilmasligi;

- lisenziyalash jarayoni hech bo'lmaganda, bankda egalik munosabatlari

tarkibini, direktorlar va bosh menejerlarning kasbga muvofiqligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, bankning operativ moliyaviy rejasi, ichki nazorat tarkibi, bankning moliyaviy holatini, jumladan bankning o'z mablag'lari holatini baholashni o'z ichiga olishi;

- bank nazorati organi mavjud banklardagi sezilarli ta'sis ulushini yoki nazorat paketini uchinchi shaxslarga o'tkazish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish va zarur hollarda uni rad etish huquqiga ega bo'lishi;

- bank nazorati organi bank tomonidan amalga oshirilgan xaridlarni yoki investisiyalarni qayta baholash uchun o'ziga xos talablar o'rnatish vakolatiga ega bo'lishi hamda sho'ba va tobe tarkibiy tuzilmalar bank uchun yuqori tavakkalchilikni yuzaga keltirmasligiga va samarali bank nazoratini amalga oshirish uchun to'sqinlik qilmasligiga ishonch hosil qilishi kerakligi belgilangan.

6-15 tamoyillar majburiy talablar va tartibga solish jaryonlari bilan bog'liq bo'lib, ularda:

- bank nazorati organi barcha banklar uchun bank o'z zimmasiga oladigan tavakkalchilik darajasiga mos keladigan kapital yetarliligi bo'yicha talablarini o'rnatishi, ehtimoliy yo'qotishlarni qoplay olish imkoniyatlarini inobatga olgan holda, kapital tarkibini aniqlab berishi;

- bankning siyosati, operativ faoliyati hamda ular tomonidan kreditlar berish va investisiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq tartib qoidalarni, shuningdek kredit va investisiya portfellarining joriy boshqaruvini xolis tekshirish har qanday nazorat tizimining ajralmas qismi ekanligi;

- bank amaliyotga, aktivlar sifatini baholash metodikasiga mos keladigan, shuningdek kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni zahiralar bilan ta'minlash bo'yicha samarali siyosat ishlab chiqishi va shu asosda faoliyat ko'rsatishi lozimligi;

- bankda rahbariyatga o'zaro daxldor kreditorlar va qarzdorlarni aniqlash imkoniyatini beruvchi yetarli axborot tizimining mavjud bo'lishi, bank nazorati organi esa qarz mablag'larini bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhi o'rtasida ruxsat etilgan taqsimlanish chegarasini aniqlab berishi;

- bankka daxldor shaxslarni kreditlashda suiiste'mollikka yo'l qo'yilishi holatlarini bartaraf etish maqsadida bank nazorati organi banklardan kreditlarni hamma uchun bir xil shartlar asosida berilishini talab qilishi va uni samarali nazorat qilib borishi, shuningdek nazorat qilish va tavakkalchilikni kamaytirish maqsadida zaruriy choralarni ko'rishi;

- bankda mablag'larni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazishda, xalqaro kreditlash va xalqaro investision faoliyatda yuzaga keladigan mamlakatlar bo'yicha tavakkalchilikni kuzatish va nazorat qilishni belgilab beruvchi siyosat va metodikaning ishlab chiqilganligi;

- bankda bozor narxleri va kotirovkalarining tebranishi bilan bog'liq tavakkalchilikni aniq baholash, kuzatish va nazorat qilish tizimining mavjud bo'lishi;

- bankda mavjud tavakkalchilik aniqlash, o'lchash, monitoring o'tkazish va nazorat qilish va iloji boricha ular bo'yicha yo'qotishlarni qoplanishini ta'minlash imkoniyatini beruvchi, bank tomonidan yo'l qo'yilgan barcha tavakkalchiliklarni boshqarishni qamrab oluvchi tizimning faoliyat ko'rsatishi;

- bank nazorati organi bankda bankning amalga oshirayotgan operatsiyalari

hajmi va tavsifiga muvofiq ichki nazorat tizimining faoliyat ko'rsatishini talab qilishi, bu tizim – bankni boshqarish, zahiralarni to'ldirish, aktiv va passiyalar bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish, aktivlarni saqlanishini kuzatish bilan bog'liq bo'lgan, mustaqil ichki va tashqi auditga tegishli funksiyalarning amalga oshirish bo'yicha vakolatlar va majburiyatlarni aniqlab berishi;

- bank nazorati organi banklardan moliya tizimida etika va malaka standartlarini oshirish hamda bankdan bilib turib yoki bilmasdan kriminal holatlarda foydalanishni bartaraf etish buyicha ishlab chiqilgan, siyosat, amaliyot va ish usullarini ishlab chiqishni talab qilishi lozimligi alohida qayd etilgan.

16-20 tamoyillarda banklar faoliyatini tartibga solishning joriy uslubi o'z aksini topgan bo'lib, ularda:

- samarali bank nazorati tizimi bank faoliyati ustidan tashqi kuzatuvni amalga oshirish bilan birga banklarni tekshirish va tashqi audit tekshiruvidan o'tkazishni o'z ichiga olishi;

- bank nazorati organi bank rahbarlari bilan doimiy aloqani ushlab turishi va mazkur moliyaviy institutlar tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning mohiyatini chuqur tushunishi;

- bank nazorati organi umumiy xarakterdagi, shuningdek alohida masalalar bo'yicha banklar tomonidan taqdim etiladigan majburiy hisobotlar va statistik axborotlarni yig'ish, tekshirish va tahlil qilish vositalariga ega bo'lishi;

- bank nazorati organi joyiga chiqib tekshirish yoki tashqi audit o'tkazish orqali olingan axborotlarni mustaqil tekshirish imkoniyatiga ega bo'lishi;

- nazorat organlarining birlashgan holda banklar guruhiga nisbatan nazorat funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi bank nazoratining ajralmas qismi hisoblanishi ko'rsatilgan.

21-tamoyil axborotlarni taqdim etishga doir talablardan iborat bo'lib, unga ko'ra bank nazorati organi, bankning moliyaviy holati va uning daromadliliigi to'g'risida ishonchli ma'lumotga ega bo'lish maqsadida, bankda o'rnatilgan tartib-qoidalarga va metodikaga muvofiq buxgalteriya hisobi yuritilayotganligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

22-tamoyilda esa nazorat organining vakolatlari, jumladan bank nazorati organi banklar tomonidan majburiy talablarining bajarilmasligi holatlari qayd etilgan, ya'ni bank faoliyatida tartib-qoidaning buzilishiga yo'l qo'yilganda yoki boshqa har qanday yo'l bilan omonatchilar manfaatlariga xavf yuzaga kelgan taqdirda, vaqti-vaqti bilan to'g'rilashlar kiritish uchun yetarli vositalarga ega bo'lishi va zarur hollarda bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi lisenziyani bekor qilishi yoki tegishli idoralarga tavsiya berishi kerakligi qayd etilgan.

23-25-tamoyillar xalqaro bank operatsiyalari to'g'risida bo'lib, ushbu tamoyillarda:

- bank nazorati organi xalqaro bank operatsiyalarini amalga oshiradigan bank muassasalari ustidan monitoring olib borish va bunday bank muassasalari tomonidan, va birinchi navbatda, ularning xorijdagi filiallari, qo'shma korxonalar va sho'ba banklari tomonidan boshqa davlatlarda o'tkaziladigan barcha turdagi operatsiyalarga nisbatan majburiy normalarni qo'llash orqali keng miqiyosda nazoratni amalga oshirishi;

- keng miqiyosdagi nazoratni amalga oshirishda nazorat ostidagi bankka aloqasi bo'lgan boshqa nazorat organlari, asosan nazorat ostidagi bank ro'yxatdan o'tgan hududning nazorat organlari bilan aloqalarni ushlab turish va axborot almashinuvi asosiy omil bo'lib xizmat qilishi;

- bank nazorati organlari, xorijiy banklar tomonidan mazkur mamlakatda amalga oshirilayotgan operatsiyalar milliy standartlarga mos kelishini talab qilishlari, bankning shtab-kvartirasi joylashgan mamlakat nazorat organlariga, mazkur bank va uning xorijdagi bo'linmalari ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zaruriy axborotlar taqdim etish vakolatiga ega bo'lishi lozimligi o'z aksini topgan.

Banklar xamda nazorat organlari kapital yetarliligi bo'yicha qo'yidagi meyorlardan foydalanishar ekan;

- Birinchi guruh - *bankning o'z kapitalini depozitlar umumiy summasiga nisbati.*

Kapital yetarliligi = $O'z K / D$

• Ikkinchi guruh - *bankning uz kapitalini riskka ko'ra tortilgan aktivlarga nisbati.*

Kapital yetarliligi = $O'z K / AR$

• Bu usuldan 1914-1952 yillarda foydalanishgan, lekin XX asrning ikkinchi yarmiga kelib kapital adekvatligiga nisbattan qarashlar o'zgara boshladi. Bunda kapitalni yetarliligini baxolashda depozitlardan aktivlarning sifati ko'rsatkichi muhimroq ekanligi malum bo'la boshladi. Bank kapitalining yetarliligi bank yo'qotishlarini bank omonatchilari va kreditorlari uchun ta'sirsiz o'tishini taminlashi zarur.

Bazel Qo'mitasining asosiy meyoriy xujjatlari:

- Samarali nazoratning asosiy prinsiplari. (1997-yil)
- BAZEL I (1988-yil)
- BAZEL II (2004-yil)
- BAZEL III (2009-yil)

2013 yil birinchi yanvardan boshlab 2019 yil birinchi yanvariga qadar yangi standartlarni tatbiq etish.

Bazel III – Bazel II ga ga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar.

Bankning o'z kapitali strukturasiidagi o'zgarishlar.

Kapital yetarliligiga qo'yiladigan talablarning oshirilishi.

Kapitalni himoyalovchi buferlarni tashkil etilishi:

1. «Konservatsiya buferi»
2. «Kontrsiklik bufer»

Bankning asosiy kapitali – soliqlar to'languncha riskka tortilgan aktivlarga nisbattan 2% tashkil etgan.

Bazel bu ko'rsatkichni (common equity) 2013-2015 yillar oraligida 2 % dan soliqlarni to'lagandan so'ng 4,5 % tashkil etishini talab qilmoqda.

Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi barcha aktivlarning 3,0 foizi sifatli I darajali kapital bo'lishini hisobga olgan holda va Bazel 3 me'yorlariga muvofiq K2 koeffisienti 2015 yilning 1 sentyabridan 0,075 (7,5 foiz); 2016 yilning 1 yanvaridan 0,085 (8,5 foiz); 2017 yilning 1 yanvaridan 0,095 (9,5 foiz); 2018 yilning 1 yanvaridan 0,105 (10,5 foiz) va 2019 yilning 1 yanvaridan 0,110 (11 foiz) miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi (TAUS) chegirmalar ajratilgan holda tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati 10 foizdan kam bo'lmashligi kerak. Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti K1 quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$K1 = RK / TAUS$$

2016 yil 1 yanvardan boshlab K1 ning eng kichik darajasi 0,115 (11,5 foiz) miqdorida belgilanadi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda K1 ning eng kichik darajasini 0,145 (14,5 foiz) miqdorida ta'minlashlari shart.

Shuningdek, 2017 yilning yanvaridan ushbu ko'rsatkich 0,125 (12,5 foiz); 2018 yilning 1 yanvaridan ushbu ko'rsatkich 0,135 (13,5 foiz) tashkil etadi.

Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi qo'shimcha zaxiradan iborat. Bunday zaxiradan maqsad banklar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik davrlarida zararlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kapital zaxirasining ta'minlanishini kafolatlash hisoblanadi.

Asosiy kapitalga bo'lgan talablar:

Birinchi darajali kapitalga bo'lgan minimal talablar oshirildi.

Uning xajmi 2013-2019 yillar oralig'ida 4% dan 6% oshirilishi talabi kiritildi.

Himoyalovchi «KONSERVATSIYA BUFERINI» kiritilishi:

- Birinchi darajali kapitalni 2,5% miqdorida ko'shimcha zahira «kapitalni konservatsiya qiluvchi bufer» tashkil etiladi.

1-jadval

2013-2019 yillarda birinchi darajali kapitalning oshirish me'yorlari

	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Birinchi darajali kapital (TIER 1 KAPITAL)	4.5	5.5	6.0	6.0	6.0	6.0	6.0

- Buning natijasida birinchi darajali kapitalning umumiy miqdori 7 % (2,5% + 4,5%) tashkil etishi zarur.

Zahirani tashkil etishdan maqsad – moliyaviy va iqtisodiy stresslar (inqirozlar) sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni moliyalashtirish uchun manbani shakllantirish.

Banklar 2015-2018 yillarda soliqlar to'langandan so'ng qoladigan sof foydadan ajratmalar ajratish orqali quyida keltirilgan ko'rsatkichlardan kam bo'lmagan miqdorda kapitalni oshirish bo'yicha barcha choralarni ko'rishlari lozim.

Kapitalning monandligiga qo'yilgan minimal talablar (%)

Talab kuchga kirish sanasi	Regulyativ kapitalga, (K1)	I darajali kapitalga, (K2)	I darajali asosiy kapitalning regulativ kapitaldagi ulushi
01.09.2015	10	7,5	6
01.01.2016	11,5	8,5	7
01.01.2017	12,5	9,5	7,5
01.01.2018	13,5	10,5	8,5
01.01.2019	14,5	11	9,5

Leveraj koeffitsientini hisoblashda kelgusida balans aktivlarida aks etishi ehtimoli bo'lgan bank balansining «Ko'zda tutilmagan holatlar» hisobvaraqlaridagi aktivlar ham hisobga olinadi. Bularga kapitalni monandligini hisoblashda qo'llaniladigan aktivlar kiradi.

Balansdan tashqari aktivlar leverajning asosiy manbasi hisoblanadi. Shuning uchun banklar leveraj koeffitsientini hisoblashda yuqorida qayd etilgan balansdan tashqari aktivlarni, kreditning qayta hisoblash omilini (100 foiz) qo'llagan holda, quyidagi ikki holatdan tashqari, hisoblashlari lozim:

- xosilaviy (derevativ) operatsiyalar kapital monandligini hisoblashda foydalaniladigan «tavakkalchilikka dastlabki moyillik»ka muvofiq o'tkazilishi;

- bank har doim o'zi tomonidan so'zsiz bekor qiladigan barcha majburiyatlar uchun 10 foizlik kreditning qayta hisoblash omilini qo'llashi lozim.

Nazorat savollari

1. Xalqaro bank nazorati usullari.
2. Xalqaro bank nazorati usullarining O'zbekiston bank tizimidagi amaliyoti.
3. Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishda xalqaro Bazel qo'mitasining tamoyillari.
4. O'zbekistonda bank nazoratini xalqaro Bazel qo'mitasi tamoyillari asosida takomillashtirish masalalari.
5. Bank nazoratini tashkil etish bo'yicha O'zbekistondagi mavjud muammolar.

Foydalanilgan adabiyotlar:**Maxsus adabiyotlar**

1. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar, № 11 (6705)

2. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'itangan Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisidagi nutqi, Toshkent - «O'zbekiston» - 2016

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi

4. Shelagh Heffernan, Modern Banking, John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England, 2005

5. Murray N. Rothbard, The Mystery of banking, Ludwig von Mises Institute, Auburn, Alabama, 2008

6. Mullajonov F.M. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. T. ”O‘zbekiston” 2011.

7. Norqobilov S., Dadaboyeva H., Jo‘raev O‘. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. Magistrlar uchun darslik / Toshkent Moliya instituti.–T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007, 180 bet.

Internet resurslari

1. www.economics.ru
2. www.ifmr.uz
3. www.lex.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.bankir.uz
6. www.cbu.uz
7. www.bankinfo.uz
8. www.google.uz

2-mavzu: Elektron (naqd pulsiz) to‘lov tizimi va to‘lov tizimida masofaviy bank xizmatlarining ahamiyati

Reja:

- 2.1. Elektron (naqd pulsiz) to‘lov tizimi tushunchasi va ahamiyati.
- 2.2. Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi tahlili.
- 2.3. Masofaviy bank xizmatlarining vujudga kelishi va evolyusiyasi.
- 2.4. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining amaldagi holati tahlili

Tayanch iboralar: *Axborotlashtirish, vakillik hisobvaraqa, Protsessing markazi, benefisiar bank, kliring tizimi, banklararo to‘lov tizimi, tashabbuskor bank, tranzaksiya, elektron hujjat, masofaviy bank xizmatlari.*

3.1. Elektron (naqd pulsiz) to‘lov tizimi tushunchasi va ahamiyati.

Banklararo to‘lov tizimi banklar o‘rtasidagi milliy valyuta (so‘m)da elektron to‘lovlarni banklarning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirish uchun mo‘ljallangan.

Banklararo to‘lov tizimining qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi va Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi. Banklararo to'lov tizimining foydalanuvchilari Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida vakillik hisobvarag'iga ega bo'lgan banklar va moliyaviy institutlar hisoblanadi.

Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi (keyingi o'rinlarda - MB HKM) - bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar Bosh boshqarmasining Hisob, hisobot va hisob-kitoblar boshqarmasi bo'limi bo'lib, uning vazifasiga tijorat banklarining bosh ofislariga vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash kiradi.

Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi (keyingi o'rinlarda - ABM) - amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatasion xizmatlarini ta'minlaydigan markaz.

Banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish uchun foydalanuvchi banklarning MB HKM bilan, banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlar o'tkazish uchun esa - ABM bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida tartibga solinadi.

Jismoniy shaxslar va ulardan to'lovlarni qabul qilib oluvchi sub'ektlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, uy-joy kommunal, mobil aloqa, raqamli televidenie, notarial va boshqa xizmatlar bo'yicha to'lovlarni dam olish kunlarisiz kechayu-kunduz (24/7) real vaqt rejimida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari orqali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi yaratilgan bo'lib, bugungi kunda mazkur tizim orqali ikki yo'nalishda to'lovlar kliringi amalga oshirilmoqda.

Birinchi yo'nalish doirasida Markaziy bankda bank plastik kartochkalari amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha banklarning vakillik hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash mexanizmi yaratildi va Yagona umumrespublika Protssessing markazi bilan o'zaro faoliyati yo'lga qo'yildi.

Elektron to'lovlar banklardan faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida amalga oshiriladi, agarda MB HKM va bank o'rtasidagi shartnomada boshqa holat kelishilmagan bo'lsa.


Soat 9-00 dan 16-00 gacha - banklararo hisob-kitoblar bo'yicha elektron to'lov hujjatlar (keyingi o'rinlarda - ETH)ni uzatish - qabul qilish - nazorat qilish vaqti.

1) Banklar mazkur davrning har qanday vaqtida MB HKMga ETHlarni uzatishlari mumkin.

2) Jo'natishga mo'ljallangan ETH nazoratdan o'tadi, bankning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, shifrlanadi va bank telekommunikatsiya tarmog'i bo'yicha MB HKMga bundan keyingi qayta ishlashlar uchun uzatiladi.

Soat 17-00 gacha Respublika byudjeti hamda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining tegishli hisobvaraqlariga mablag'larni o'tkazish bo'yicha ETHlarni uzatish amalga oshiriladi. Bunda soat 16-30 gacha tijorat banklari o'rtasidagi, soat 17-00 gacha esa - tijorat banklaridan Markaziy bank hamda Xalq bankiga, shuningdek

Markaziy bankdan yuborilgan ETHlarni qayta ishlanilishi yakunlanadi.



3-rasm. Elektron to'lov hujjatlarning o'tish sxemasi⁹

Soat 17-00 dan ABM banklarga kunning yakunlanishi va yaroqsiz (brak) deb topilgan ETHlar to'g'risida (tashabbuskor bank va benefisiar bank bo'yicha) habarnoma jo'natadi.

Shundan keyin ABMda "Kunning yakunlanishi" bosqichi amalga oshiriladi. MB HKMda quyidagilar "Kunning yakunlanishi" bosqichini bajarilishining shartlari hisoblanadi:

- banklardan ETHni qabul qilish vaqtining tugashi;
- MB HKMga uzatilgan barcha ETH qayta ishlangan va banklarning tegishli vakillik hisobvaraqlarida aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Banklarda "Kunning yakunlanishi" bosqichining vaqti bankning ichki to'lov tizimi qoidalariga muvofiq mustaqil ravishda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kreditni boshqarish xususiyat (parametr)laridan kelib chiqqan holda, banklararo ETHlarining o'tkazish vaqtini to'lov tizimi masalalarini nazorat qiluvchi rais o'rinbosarining yozma farmoyishiga asosan uzaytirishi mumkin. Bu haqda tizim qatnashchilari va foydalanuvchilari ETHga ishlov berish vaqtining tugashiga bir soat qolguniga qadar kechiktirilmadan habardor qilinadi.

Bank filiallari o'zining mijozlari o'rtasidagi barcha to'lovlarni bank xizmatini ko'rsatish uchun tuzgan shartnomasiga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiradi.

- Bankning mas'ul xodimi pul-hisob-kitob hujjatlarini olishda ro'yxati;
- hujjatning raqami;
 - hujjatning sanasi;
 - to'lovchining nomi;

⁹ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.

to'lovchining shaxsiy hisobvarag'i raqami;
 soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR);
 to'lovchi bankning kodi;
 to'lovchi bankning nomi;
 hujjatning summasi (raqam bilan);
 oluvchining nomi;
 oluvchining shaxsiy hisobvarag'i raqami;
 oluvchi bankning kodi;
 oluvchi bankning nomi;
 hujjatning summasi so'z bilan (avtomatik tarzda yoziladi);
 to'lovning maqsadi kabilar

keltirilgan barcha majburiy rekvizitlarning to'g'ri to'ldirilishi bo'yicha vizual tekshirish o'tkazadi.

ETHlarida banklar va ularning filiallari vakillik hisobvaraqlari raqamini, shuningdek, MB HKM kodini qo'yish taqiqlanadi.

Bank filialida debet hujjatlari (tijorat bankning hisob-kitob cheklari, emissiya to'lovlari)ni rasmiylashtirishda quyidagi tartib mavjud:

1) Emissiya operatsiyalarida memorial order rasmiylashtiriladi:

DEBET	20102, 20106;
KREDIT	17301;

2) tijorat bankning hisob-kitob cheklari bo'yicha operatsiyalar uchun:

DEBET	20206,	29896;
KREDIT		19903;

Banklar bank qonunchilik hujjatlari, o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga rioya qilmagan hollarda, Markaziy bank debet memorial orderlarni shakllantirish yo'li bilan banklarning vakillik hisobvaraqlaridan jarima undirish huquqiga ega.

Kiritilgan pul-hisob-kitob hujjati asosida bankning filialida dasturiy ravishda ETH shakllantiriladi, u ichki nazoratdan o'tadi, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi, shifrlanadi va bankning To'lov (Hisob-kitob) markaziga uzatiladi.

Tashabbuskor bankda, ichki nazorat va elektron raqamli imzo tekshiruvi o'tkazilganidan so'ng, banklararo hisob-kitoblar bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

1) Tashabbuskor bankning To'lov (Hisob-kitob) markazida filiallardan olingan ETHlariga asosan:

Kredit operatsiyalari (OT - 01, 02, 05, 06, 11) bo'yicha:

DEBET	22204 tegishli filial hisobvarag'i;
KREDIT	10301 bankning hisobvarag'i;

Debet operatsiyalari (OT - 14) bo'yicha:

DEBET	10301 bankning hisobvarag'i;
KREDIT	22204 tegishli filial hisobvarag'i;

2) Markaziy bankning ma'lumotlarni qayta ishlash bo'limida Markaziy bankning Hisob-kitob-kassa markazlaridan olingan ETHga asosan:

Kredit operatsiyalari (OT - 01, 02, 05, 06, 11) bo'yicha:

DEBET	22204 tegishli Hisob-kitob-kassa markazi hisobvarag'i;
KREDIT	11005;

Debet operatsiyalari (OT - 06) bo'yicha:

DEBET	11005;
KREDIT	22204 tegishli Hisob-kitob-kassa markazi hisobvarag'i;

Benefisiar bankda, ichki nazorat va elektron raqamli imzo tekshiruvi o'tkazilganidan so'ng, banklararo hisob-kitoblar bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

1) Benefisiar bankning To'lov (Hisob-kitob) markazida bankka ETH kelib tushganda:

Kredit operatsiyalari (OT - 01, 02, 05, 06, 11) bo'yicha:

DEBET	10301;
KREDIT	22204 tegishli filial hisobvarag'i;

Debet operatsiyalari (OT - 14) bo'yicha:

DEBET	22204 tegishli filial hisobvarag'i;
KREDIT	10301;

2) Markaziy bankning ma'lumotlarni qayta ishlash bo'limida ETH kelib tushganda:

Kredit operatsiyalari (OT - 01, 02, 05, 06, 11) bo'yicha:

DEBET	11005;
KREDIT	22204 tegishli Hisob-kitob-kassa markazi hisobvarag'i;

Debet operatsiyalari (OT - 06) bo'yicha:

DEBET	22204 tegishli filial hisobvarag'i;
KREDIT	11005;

Benefisiar bankning To'lov (Hisob-kitob) markazidan kelib tushgan ETHlari filialda ichki nazorat va elektron raqamli imzosi tekshiruvidan o'tadi. Ijobiy natija olinganda, o'tkazmalar filial va uning mijozlarining tegishli hisobvaraqlari bo'yicha aks ettirilgan holda amalga oshiriladi.

Agar mijozning hisobvaraqlar raqami noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, bu holda mablag'lar oluvchi uchun 23206 - «Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar» hisobvarag'iga yoki to'lovchi uchun 17305 - «Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar» hisobvarag'iga o'tkaziladi, undan uch ish kuni mobaynida maqsadi


bo'yicha hisobdan o'chirilishi kerak.

Elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimi Markaziy bank Apparati 2009 yil 1 maydan amalga to'liq joriy etilgan bo'lib, hozirgi kunda mazkur EHA tizimi vositasida Markaziy bank apparati, barcha hududiy Bosh boshqarmalar tarkibiy bo'linmalari orasida hujjatlar elektron tarzda almashinadi.

Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida elektron hujjat almashinuvi barcha tijorat banklarining Bosh ofislarida EHA tizimi uchun maxsus ajratilgan kompyuter vositasida amalga oshiriladi.

Markaziy bank tarkibiy bo'linmalaridan tijorat banklari va ularning filiallariga mo'ljallangan elektron hujjatlar tijorat bankining Bosh bankiga mazkur EHA tizimi vositasida etkazib beriladi. Tijorat banklari o'zlarining ichki pochta tizimi yoki telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda tegishli tarkibiy bo'linmalariga (filiallariga) elektron hujjatlarni etkazib beradi.

Markaziy bankning EHA tizimi boshqa shunday tizimlardan farqli ravishda bir qator imkoniyatlarga ega. Bularga tizimda ma'lumotlarni tirajlanishini oldini olish maqsadida umumiy elektron papkalardan foydalanish, ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda hisobotlarni avtomatlashtirilgan tartibda hosil qilish va undan foydalanish ruxsat etilgan barcha mutaxassislarining elektron papkalariga joylashtirib qo'yish, hujjatlarni qayd etish bo'yicha elektron jurnallarini yuritish, hujjatlarning ijrosi holati, kelgan va jo'natilgan hujjatlar, bajarilgan, bajarilish muddati o'tgan, qayd qilingan sanasi bo'yicha nazoratga olingan, nazorat muddati o'tgan va ma'lum muddat oralig'idagi kiruvchi va chiquvchi hujjatlar bo'yicha avtomatlashgan tarzda turli hisobotlarni shakllantirish hamda elektron hujjat aylanishi tizimining Markaziy bankning boshqa avtomatlashgan tizimlari bilan integrallashtirish imkoniyatlarini kiritish mumkin.



4-rasm. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tarnzaksiyalari soni, (ming ta)¹⁰

¹⁰ <http://www.cbu.uz/oz/payment-systems/interbank/>

Bugungi kunda respublikamizda xalqaro andozlarga javob beruvchi samarali elektron to'lovlar tizimi yaratilgan bo'lib, u o'z navbatida, 3 ta to'lov tizimidan – banklararo to'lov tizimi, bankning ichki to'lov tizimi va chakana to'lov tizimidan tashkil topgan.

2019 yil davomida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar soni 2018 yilga nisbatan 6,0 foizga kamayib, 70,2 mln. tani tashkil etgan bo'lsada, amalga oshirilgan operatsiyalar summasi esa 1126,9 trln. so'mni tashkil qilgan va 2018 yilga nisbatan 30 foizga ortgan.

млрд сўм



5-rasm. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar summasi, mlrd so'm¹¹

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi to'lov hujjatlaridan foydalaniladi:

- memorial order;
- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi;
- akkreditivga ariza;
- tijorat bankining hisob-kitob cheki.

Banklar memorial orderlardan fuqarolarning, olib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda, yozma topshiriqnomalari bo'yicha naqd pulsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin. Tijorat banklari o'z operasion xarajatlarini naqd pulsiz tartibda amalga oshirayotganda memorial order tuziladi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari


Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilib O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga jo‘natilganidan so‘ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga ertasi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish (storno berish) yo‘li bilan, tuzatish memorial orderlari asosida to‘g‘rilanishi lozim. Bunday hollarda hisobvaraqlardan summalar mijozlarning roziligisiz hisobdan chiqariladi. Bu haqda bank bilan mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomada ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lishi shart.

To‘lov topshiriqnomasi — mijozning unga xizmat ko‘rsatuvchi bankka o‘z hisobvarag‘idan oluvchining hisobvarag‘iga ma‘lum bir summani o‘tkazish to‘g‘risidagi topshirig‘ini anglatadi.

To‘lov talabnomasi — o‘zida mablag‘ oluvchini to‘lovchi tomonidan bank orqali ma‘lum bir summani to‘lash to‘g‘risidagi talabi aks ettirilgan pul-hisob-kitob hujjatidir.

Inkasso topshiriqnomasi mablag‘ oluvchining bankka to‘lovchining hisobvarag‘idan so‘zsiz tartibda mablag‘larni hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi topshirig‘ini anglatadi.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shaklida, mijozning (to‘lovchining) topshirig‘iga va uning ko‘rsatmasiga muvofiq akkreditiv ochgan bank (bank-emitent), o‘z zimmasiga uning kontragenti-mablag‘ oluvchi foydasiga to‘lovni amalga oshirish majburiyatini yoki mablag‘ oluvchi tomonidan akkreditivda ko‘zda tutilgan hujjatlarni va boshqa shartlarni bajarish sharti bilan ushbu to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarni boshqa bankka taqdim etishni o‘z zimmasiga oladi.



6-rasm. Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar soni (to‘lov hujjatlari bo‘yicha)¹²

¹² <http://www.cbu.uz/oz/payment-systems/payment-documents/>

Tijorat bankining hisob-kitob cheki — mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankiga chek beruvchining hisobvarag'idan chek ushlovchining hisobvarag'iga ma'lum summadagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha bergan topshirig'idir.

Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali 2019 yilda amalga oshirilgan tranzaksiyalarning to'lov hujjatlari kesimidagi tarkibidato'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 40,8 mln.tani (jami tranzaksiyalar sonidagi ulushi 58 foiz) va tranzaksiyalar summasi esa 749,2 trln. So'mni (jami tranzaksiyalar summasining 66,5 foizi), memorial orderlar asosida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 20,4mln.tani (29 foiz) va tranzaksiyalar summasi 371,5 trln. so'mni (33 foiz), inkasso topshiriqnomalari asosida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 8,7 mln.tani (12,3 foiz) va tranzaksiyalar summasi 5,4 trln. so'mni (0,5 foiz) tashkil etdi.

2019 yil davomida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi jami 265 bank ish kuni faoliyat yuritgan bo'lib, o'rtacha kunlik tranzaksiyalar soni 265,1 ming tani, o'rtacha kunlik tranzaksiyalar summasi esa 4,3 trln. co'mni tashkil etdi.

Hukumat qarorlari ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining Ijro etuvchi apparati, davlat va boshqaruv organlari bilan Markaziy bank hamda uning barcha hududiy Bosh boshqarmalari orasida yagona himoyalangan elektron pochta va elektron hujjat aylanishi tizimi yo'lga qo'yilgan.

EHA tizimlarini joriy etilishi munosabati bilan vazirlik va idoralarda ish yuritish hamda ijrochilik intizomini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy talablar, hujjatlarni elektron tarzda almashish, ularni elektron tarzda qayd etish, elektron nazorat kartochkalarni yuritish, elektron hujjatlar arxivini tashkil etish va boshqa talablarni hisobga olgan holda qayta ishlab chiqilishi taqazo etiladi.

Respublika "Elektron hukumat" tizimini tatbiq qilishda idoralararo hujjat almashinuvini joriy qilish uchun avvalo barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida himoyalangan elektron pochta va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish, idoralarning ichki EHA tizimlari bilan idoralararo EHA tizimi integratsiyasini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Shu sababli, 2016 yilda Markaziy bankning barcha xududiy Bosh boshqarmalarida EHA tizimini to'liq joriy qilish ya'ni, Markaziy bank va uning hududiy Bosh boshqarmalari tomonidan ma'lumotlar hamda elektron hujjatlarni tijorat banklari, ularning filiallari va tarkibiy bo'linmalariga bevosita uzatilishini tashkil etilishi, Markaziy bankning EHA va Ye-ijro tizimlarining integratsiyasi bo'yicha ishlar olib borilishi respublika bank tizimidagi dolzarb masalalarni tezkor echilishini ta'minlaydi.

Banklardan ETH kelib tushganidan keyin, MB HKMda ularni avtomatlashtirilgan qayta ishlash tashkil etiladi.

Qayta ishlash jarayonida kelib tushgan ETHlar ichki nazorat va elektron raqamli imzo tekshiruvidan o'tadi. Nazoratdagi rekvizitlar yoki elektron raqamli imzoda xatolar aniqlanganda, xato ETHlari qayta ishlashdan chiqarib tashlanadi. Shuningdek, ETH BDMAB bazasida benefisiar bank va tashabbuskor bank mijozlarining hisobvaraqlari mavjudligi bo'yicha rekvizitlar nazoratidan o'tadi. Agar ETHning rekvizitlarida ko'rsatilgan hisobvaraqlar o'rnatilgan tartibda BDMABda ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, ushbu ETH tegishli xato kodi ko'rsatilgan holda yaroqsiz deb

topiladi.

Har bir ETH batafsil tahlil qilinishidan oldin, quyidagilar bo'yicha tekshiriladi:

a) joriy kunning boshida vakillik hisobvarag'i holatini tekshirganda ijobiy natija chiqishi;

b) elektron to'lovni amalga oshirish uchun bankning vakillik hisobvarag'ida yetarli mablag'larning mavjudligi.

Tekshirish mobaynida, har bir ETH qayta ishlangandan keyin bankning vakillik hisobvarag'ida qolishi ko'zda tutilgan qoldiq summasi hisoblanadi. Fayl almashuvida dastlab hisobvaraqqa o'tkaziladigan, keyin esa, hisobdan o'chiriladigan barcha elektron to'lovlar hisobga olinadi.

ETHda bironta xato aniqlansa, shuningdek, elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun bankning vakillik hisobvarag'ida mablag'lar yetarli bo'lmasa, mazkur ETH qayta ishlashdan chiqariladi va bu haqda bankka xato kodi ko'rsatilgan holda axborot taqdim etiladi.

Agar tekshiruv jarayonida xatolar aniqlanmasa va vakillik hisobvarag'ining qoldig'i banklararo hisob-kitoblar bo'yicha elektron to'lovlarni o'tkazish imkonini bersa, ETH MB HKM amaliyot kunida keyingi qayta ishlashning barcha bosqichlaridan o'tadi.

3.2. Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi tahlili

Jismoniy shaxslar va ulardan to'lovlarni qabul qilib oluvchi sub'ektlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, uy-joy kommunal, mobil aloqa, raqamli televidenie, notarial va boshqa xizmatlar bo'yicha to'lovlarni dam olish kunlarisiz kechayu-kunduz (24/7) real vaqt rejimida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari orqali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi yaratilgan bo'lib, bugungi kunda mazkur tizim orqali ikki yo'nalishda to'lovlar kliringi amalga oshirilmoqda.

Birinchi yo'nalish doirasida Markaziy bankda bank plastik kartochkalari amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha banklarning vakillik hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash mexanizmi yaratildi va Yagona umumrespublika Protsessing markazi bilan o'zaro faoliyati yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda barcha bank plastik kartalari orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar bo'yicha yakuniy moliyaviy hisob-kitoblar Markaziy bankning kliring tizimi orqali o'tkazilmoqda.

2017-2020 yil davomida aholining naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada kengaytirish, savdo va pullik xizmat ko'rsatish ob'ektlarini to'lov terminallari bilan jihozlash, plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish hamda bank plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda foydalanuvchilarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:


- aholi bilan pullik hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga to'lov terminallarini ijaraga berish mexanizmi qayta ko'rib chiqilib, ijara haqi 50 foizga qisqartirildi va milliy valyutada belgilandi (yakka tartibdagi

tadbirkorlarga – 15 ming so‘m, yuridik shaxslarga – 25 ming so‘m);

- to‘lov terminallari infratuzilmasini yanada kengaytirish maqsadida tijorat banklariga 2017-2020 yillar mobaynida Protssessing markazlarining texnik tavsifnomalariga muvofiq, hisob-kitob to‘lov terminallari, infokiosklar, bankomatlar va boshqa tegishli uskunalarni xarid qilishda tender savdolarini o‘tkazmasdan shartnomalar tuzish huquqi berildi;

- yangi bank xizmati turini joriy etish maqsadida bank plastik kartochkalari orqali aholining iste‘mol ehtiyojlari uchun muddatli (overdraft) kreditlar berish tartibi joriy qilindi.

Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi so‘nggi ikki yil mobaynida ketma-ket 2 barobarga, shu jumladan, 2019 yilda 2018 yildagi 10,2 trln. so‘mdan 20 trln. so‘mgacha oshdi.



7-rasm. Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi, mlrd. so‘mda¹³

Jumladan, hisob-kitoblar kliring tizimi orqali 2019 yil mobaynida amalga oshirilgan tranzaksiyalarning 25,7 foizi aholining byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarga (maktabgacha ta‘lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va boshqalar) to‘lovlari, 22 foizi avtomobil xarid qilish uchun to‘lovlar, 9,9 foizi elektr energiyasi uchun to‘lovlar, 9,2 foizi tabiiy gaz uchun to‘lovlar, 6,4 foizi soliq va boshqa majburiy to‘lovlar, 5,5 foizi notarius va FHDYo to‘lovlari, 4,3 foizi yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima to‘lovlari, 3,6 foizi bojxona to‘lovlari, 3,5 foizi Davlat xizmatlari markazlariga to‘lovlar, 1,8 foizi issiqlik quvvati uchun to‘lovlar hamda qolgan 8,1 foizi boshqa to‘lovlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Zero, keyingi yillarda O‘zbekiston bank tizimida izchil va aniq maqsadli islohotlar olib borilmoqda, chora-tadbirlar, bank-moliya xizmatlarini ko‘rsatish sifatini tubdan yaxshilashga doir bir qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1989-sonli Qarori bilan Markaziy bankning «Chakana to‘lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti

hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash» loyihasi respublika «Elektron hukumat» tizimining axborot tizimlari tarkibiga kiritildi. Shu munosabat bilan respublikamizda naqd pulsiz chakana to'lovlarning amalga oshirilishida jismoniy shaxslar va ulardan to'lovlarni qabul qilib oluvchi tomonlar o'rtasida hisob-kitoblarning zamonaviy samarali tizimini tashkil etish maqsadida, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2014-yil 21-fevraldagi 4/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan holda Adliya vazirligida 2014-yilning 4-aprelida 2570-son bilan davlat ro'yxatiga olindi.


Ushbu Nizom talablari respublikamizda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Kliring tizimi orqali milliy valyutada naqd pulsiz chakana to'lovlarni amalga oshirishga nisbatan tatbiq etiladi. Kliring tizimini yaratishdan maqsad unga tijorat banklari filiallari, kassalari va O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Protsessing markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Bundan tashqari, mazkur tizim mijozlarga kechayu-kunduz bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish va bank infokiosklari orqali ishlash imkoniyatini beradi. Mazkur O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Hisob-kitoblar kliring axborot dasturiy majmuasining loyihasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda Markaziy bank huzurida Hisob-kitob banki tashkil etilib, bank mijozlarining majburiyatlari bo'yicha banklarning vakillik hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash mexanizmi yaratildi va Yagona umumrespublika Protsessing markazi bilan o'zaro faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bu bosqichni belgilangan muddatda, ya'ni 2013-yil 16-sentabrda bajarilib, hozirgi kunda barcha bank plastik kartalari orqali amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha yakuniy hisob-kitoblar Markaziy bankning Kliring tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, huquqiy asoslarni belgilab berish maqsadida «O'zkart banklararo chakana to'lov tizimi faoliyati to'g'risida»gi Nizomga (ro'yxat raqami 2369, 2012-yil 30-may) tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Hozirgi kunda bank kartalari bilan ushbu tizim orqali amalga oshirilgan o'rtacha oylik tranzaksiyalar summasi 2,14 trln. so'mga yetdi. Ikkinchi bosqichda 2013-yilning 4-choragi va 2014-yilning 1-choragi davomida Markaziy bankning Kliring tizimi bilan Davlat soliq qo'mitasi axborot tizimi, shuningdek, «O'zbekenergo» aksiyadorlik jamiyati hamda «O'ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyalarining billing tizimlari integratsiya qilingan holda soliq va boshqa majburiy to'lovlar, elektr energiya va gaz iste'mol uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotida qo'llaniladigan ixtiyoriy dastur yoki xizmat o'ziga xos qonuniy jihatdan mustahkamlangan asosga ega bo'lishi talab etiladi. Bunda aynan xizmat turining amalda davlat tomonidan ruhsat etilganligi va foydalanuvchilar huquq hamda majburiyatlari aniq belgilanishini ko'rsatadi. Natijada bank mijozlari ham kafolatlangan tegishli xizmatlardan foydalanishda o'z huquq va majburiyatlarini bilib olishadi va xizmat havfsizligiga ishonch hosil qilishadi.

Yuqorida sanab o'tilgan normativ hujjatlar to'lov tizimlarini tuzishning umum qabul qilingan xalqaro tamoyillariga asosan ishlab chiqilgan bo'lib markaziy

bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi.



8-rasm. Markaziy bankning Kliring tizimi¹⁴

Mamlakatimizda davlat organlari, xo'jalik yuritiuvchi sub'ektlar, shuningdek aholining kundalik faoliyatida axborot texnologiyalarini keng miqyosda tatbiq etishga alohida e'tibor berilmoqda va bu esa davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jahonning yirik savdo kompaniyalari an'anaviy savdo usullaridan foydalanish bilan birga elektron tijoratdan ham keng foydalanmoqdalar. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda dunyo aholisining 10%¹⁵ haridlarni internet tarmog'i orqali amalga oshirmoqda va bu raqam kundan kunga o'sib bormoqda.

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvi tegishli texnologiyalarni nafaqat tashqi bozorda, balki ichki bozorda ham amalga joriy etilishini taqozo etadi.

Respublikamizda elektron tijoratni tartibga solish bo'yicha tegishli normativ-

¹⁴ <http://uz.infocom.uz/2016/02/26/mamlakat-bank-tizimida-zamonaviy-axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari-ning-orni-va-ahamiyati/>

¹⁵ Yevrostat ma'lumotlari www.bizhit.ru

huquqiy baza yaratilgan. Biroq, axborot texnologiyalari va tijoratning bugungi kundagi rivojlanish darajasi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni yanada puxtarroq tartibga solishni talab etadi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining joriy yilning 17 yanvardagi yig'ilishidagi topshiriqlarini ijrosini ta'minlash uchun Markaziy bank tomonidan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi. Yangi tahrirdagi qonun O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015 yil 22 may, O'RQ-385-sonli Qarori bilan qabul qilindi, unga ko'ra respublikada elektron tijoratni yanada rivojlantirilishi va rag'batlantirilishi ko'zda tutildi. Unga ko'ra respublikada olib borilayotgan demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish doirasida elektron tijorat sohasini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Xususan, elektron tijorat sohasidagi davlat siyosati elektron tijoratni rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy va boshqa shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Elektron tijorat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- elektron tijorat vositasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

- elektron tijorat vositasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik sohasiga investisiyalar, zamonaviy texnologiyalar va jihozlarni jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish;


- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini ularning elektron tijorat sohasidagi faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy, iqtisodiy, statistik, ishlab chiqarish-texnologik, ilmiy-texnikaviy va boshqa axborot bilan ta'minlash;

- elektron tijorat sohasidagi ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarni rag'batlantirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- elektron tijorat sohasidagi xalqaro hamkorlik.¹⁶

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 8 apreldagi 7-A/4-sonli Qarori asosida "«GlabUzCard» banklararo universal chakana to'lov tizimi faoliyati to'g'risida"gi nizomi qabul qilindi. Unga ko'ra «GlabUzCard» banklararo universal chakana to'lov tizimida ham Protssessing markazi vazifalarini «Yagona xalqaro protssessing markazi» mas'uliyati cheklangan jamiyat qo'shma korxonasi bajaradi. BPK orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar va ularga tegishli boshqa ma'lumotlar maxsus dasturiy ta'minot vositasida shifrlangan holda amalga oshiriladi. Protssessing markazining «GlabUz» to'lov tizimining boshqa a'zolari bilan o'zaro munosabatlari axborot almashish orqali amalga oshiriladi. «GlabUz» to'lov tizimining a'zosiga axborot almashish huquqi Protssessing markazida xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma tuzilganidan keyin beriladi.

¹⁶ «Xalq so'zi» gazetasining 2015 yil 23 maydagi 103 (6286)-soni



9-rasm. Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring tizimi orqali 2019 yilda amalga oshirilgan to'lovlar tarkibi, foizda¹⁷

Zarur hollarda, axborotlarni elektron tashuvchilar orqali belgilangan muddatlarda yetkazishda kurerdan foydalanilishi mumkin. Bunda axborotlar personalizatsiyalangan va shifrlangan holda bo'lishi lozim.

Protsessing markazining asosiy vazifalari:

- to'lov vositalarining barcha turlari bo'yicha banklararo tranzaksiyalar protsessingini kun davomida uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlash;
- BPKning birlamchi emissiyasini amalga oshirish;
- «GlabUz» to'lov tizimining a'zolari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va kliringini tashkil etish;
- «GlabUz» to'lov tizimining BPKning reestrini shakllantirish;
- «GlabUz» to'lov tizimi a'zolarini ro'yxatga olish va ularning yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- tizimni tashkil qiluvchi bosh kalitni boshqarish;
- soxtalashtirish va firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida BPK, terminallar, infokiosklar, bankomatlar va boshqa tegishli uskunalar, shuningdek to'lov tizimi a'zolari ma'lumotlarining yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash;
- «GlabUz» to'lov tizimi a'zolari bilan xalqaro to'lov tizimlari o'rtasida axborot almashinuvini tashkil etish;
- «GlabUz» to'lov tizimi a'zolari uchun umumiy bo'lgan stop-list va normativ axborot ma'lumotnomasiga xizmat ko'rsatish;
- shifrlangan ma'lumotlarning maxfiylik rejimini va «GlabUz» to'lov tizimining ishlash xavfsizligini ta'minlash;
- «GlabUz» to'lov tizimining texnik vositalaridan foydalanish, ularning ishlashini kuzatish va rivojlantirishni ta'minlash;

¹⁷ <http://www.cbu.uz/upload/medialibrary/d0d/Markaziy-bankning-2019-yil-uchun-hisoboti.pdf>

- BPKlarning loyihalarini rivojlantirish va ularni joriy qilish uchun sharoit yaratish;

- «GlabUz» to'lov tizimining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, kuzatib borish, takomillashtirish va boshqarish;

- BPK asosida joriy etilayotgan mahsulotlar hamda BPKga xizmat ko'rsatuvchi uskunalarni «GlabUz» to'lov tizimida joriy etish, amaliyotga kiritish va foydalanish yuzasidan xulosa berish;

- marketing tadqiqotlarini o'tkazish;

- BPK orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha o'quv seminarlarini o'tkazish.

Protssessing markazi quyidagi huquqlarga ega:

Muvofiqlashtiruvchi kengashning qaroriga yoki Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bankning yozma murojaatiga asosan emitentning BPK bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib turish;

Protssessing markazi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun belgilangan miqdorda haq olish. Quyidagilar Protssessing markazining majburiyatlari hisoblanadi:

- «GlabUz» to'lov tizimi a'zolari tomonidan BPK orqali operatsiyalarni amalga oshirishlari uchun kerakli sharoitlar va imkoniyatlar yaratish;

- Bosh kalitning saqlanishi va maxfiylikni ta'minlash;

- «GlabUz» to'lov tizimi a'zolari, shuningdek xalqaro to'lov tizimlari o'rtasida axborotlarni o'z vaqtida almashinishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;

- Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bankdan olingan xabarnoma asosida «GlabUz» to'lov tizimining a'zosi bo'lgan bank bilan Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank o'rtasida tuzilgan xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarmayotgan emitentning «GlabUz» to'lov tizimidagi operatsiyalarini vaqtincha to'xtatib turish;

- «GlabUz» to'lov tizimining a'zosi bo'lgan bankning tugatilganligi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, bu haqda tugatish komissiyasining maxsus qarori olingan kundan keyingi bank kunidan boshlab bir bank ish kunidan kechiktirmay mazkur bankning BPK bo'yicha barcha operatsiyalarni to'xtatish;

- «GlabUz» to'lov tizimi xizmatlarining uzluksizligini ta'minlash;

- axborotni muhofaza qilish va xavfsizlik choralari ta'minlash;

- «GlabUz» to'lov tizimi a'zolarining operatsiyalari bo'yicha axborotlarning muhofazasini ta'minlash va saqlash, xavfsizlik choralari ko'rish;

- BPK emitentlarining reestrini yuritish;

- BPKga xizmat ko'rsatish tizimining dasturiy ta'minotini hamda tegishli uskunalarni o'z vaqtida sinovdan o'tkazishni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida chet el valyutasidagi BPKlar asosida amaliyotlarni o'tkazilishini, shuningdek «GlabUz» to'lov tizimi doirasida muomalaga chiqarilgan BPK orqali O'zbekiston Respublikasidan tashqarida amaliyotlarni o'tkazilishini ta'minlash maqsadida «GlabUz» to'lov tizimi xalqaro to'lov tizimlari bilan aloqalar o'rnatadi.

O'zaro aloqalar o'rnatilgan xalqaro to'lov tizimlarining chet el valyutasidagi BPK orqali O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazilgan amaliyotlar bo'yicha axborot kliringini, shuningdek «GlabUz» to'lov tizimi doirasida muomalaga

chiqarilgan BPK orqali o'tkazilgan barcha amaliyotlar bo'yicha protsessing vazifalarini «Yagona xalqaro protsessing markazi» mas'uliyati cheklangan jamiyat qo'shma korxonasi bajaradi.

«GlabUz» to'lov tizimi doirasida muomalaga chiqarilgan BPK orqali O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan amaliyotlar bo'yicha hisob-kitoblar kliringi xalqaro to'lov tizimlarining prinsipial ishtirokchisi maqomiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining xalqaro to'lov tizimlari bilan tuzgan o'zaro shartnomalari doirasida amalga oshiriladi.

O'zaro aloqalar o'rnatilgan xalqaro to'lov tizimlarining chet el valyutasidagi BPK asosida O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazilgan amaliyotlar bo'yicha hisob-kitob kliringini amalga oshiruvchi bank Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.02.2018 yildagi № PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonida mamlakatda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ish olib borilmoqda.

2.3. Masofaviy bank xizmatlarining vujudga kelishi va evolyusiyasi

Ma'lumki, banklar zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismi bo'lib, bozor va ishlab chiqaruvchilar talablari bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat olib boradi. Ular jahon iqtisodiy hayotining markazida joylashgan bo'lib, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning ehtiyojlariga xizmat ko'rsatish orqali sanoat va savdoni, qishloq xo'jaligi va aholini o'zaro bog'laydilar.

Keyingi yillarda respublika tijorat banklari chakana operatsiyalarni rivojlantirish orqali o'z mijozlariga taqdim etiladigan xizmatlar turlarini ko'paytirishga va o'z faoliyatini diversifikatsiya qilishga harakat qilmoqda. Ushbu maqsadda mijozlar tomonidan bankomatlar, mobil telefonlar va Internet orqali o'z hisob raqamlarini masofaviy boshqarish kabi elektron xizmat ko'rsatish texnologiyalari faol tarzda amaliyotga joriy etilmoqda. Masofaviy bank xizmatlarini hayotga tadbiiq qilish orqali kredit tashkiloti o'zining an'anaviy operatsiyalariga qo'shimcha ravishda, mijozlar ehtiyojini to'laroq va sifatliroq qondiradigan yangi bank mahsulotlarini ham qo'llamoqda.

Qayd etish joizki, masofaviy bank xizmati deganda, bank binosi tashqarisidagi mijozning bevosita talabini qondirish maqsadida turli xildagi telekommunikatsiya tarmoqlari orqali bank mahsulotlarini va xizmatlarini taqdim etish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanayotgan davlatlar qatorida o'z yo'li va milliy dasturiga ega hisoblanadi. Bir qator rivojlangan davlatlarning tajribalarini atroflicha o'rganib chiqilgan bo'lib, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishni maqsad qilib olgan. Prezidentimizning «Banklar – iqtisodiyotimizning lokomativi bo'lishi kerak» degan shiorlari, hamda «Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun» xizmat qilish kerak kabi bir qator shiorlari banklarni yanada ziyrak va keng qamrovli ishlarni tashkil qilishga undamoqda. Mamlakatimiz bank tizimini ikki pog'onada tashkil

etilishi, Markaziy bank hamda tijorat banklari zimmasiga ma'suliyatli vazifalarni yukladi. Ikki pog'onali tizimni joriy etishda quyidagi natijalarga erishish maqsad etib belgilandi. Bular jumlasiga naqd pul mablag'larini bankdan tashqari aylanishini qisqartirish, aholining keng qatlamini bank faoliyatida qatnashishga jalb etish, Respublika banklari tomonidan xalqaro xizmatlarni ko'rsatishni kengaytirish, bank, pul, kredit tizimining tamoyil va qoidalarini jahon andozalariga mos ravishda ishlab chiqish va hokazolar.

Ta'kidlab o'tilgan maqsadlarni amalga oshirishda zamonaviy bank texnologiyalarning o'rnini beqiyosdir. Plastik kartochoqlarni muomalaga kiritilishi iqtisodiyotimizni jadal suratlarida rivojlanishiga, jumladan pulning bankdan tashqari aylanmasini qisqartirishga, pulning aylanish tezligini maqbul doirada bo'lishiga, pul massasiga xizmat ko'rsatish harajatlari (qog'oz pullar chiqarish, tashish, sanash, qayta sanash va h.k.)ni kamayishiga, aholini bank bilan ishlashini takomillashtirishga va boshqa bir qator ijobiy faktorlarni rivojlanishiga olib keladi.

Umuman olganda, mohiyati jihatidan bank va mijoz muloqotining an'anaviy va masofaviy bank xizmati sxemalari orasidagi farq juda katta emas. Bank xizmatlari xam, hisobraqamlar xam «o'z joyida» qolgan bo'lib, faqatgina bank xodimi va mijozlarni o'zaro bog'laydigan aloqa turi o'zgaradi, xolos. Ya'ni, faqat bank ofisida bajarilishi mumkin bo'lgan operatsiyalar, bank ofisiga xos bo'lgan funksiyalar endilikda masofadan turib ham amalga oshirilishi mumkin. Mijoz o'z «oyoqlariga dam berishi» mumkin, daqiqalik operatsiyani amalga oshiraman deb, bank binosiga borish yuliga ketadigan qimmatli ish vaqtini yo'qotishi shart bo'lmay qoldi. Mijoz-bank, internet, telefon yoki mobil banking kabi masofaviy bank xizmati turlari, o'zaro farqlanishiga qaramasdan, mijozlarga xizmat qilishning an'anaviy usullaridan nisbatan quyidagi umumiy ustunliklarga ega:

- xizmat ko'rsatish sifatining oshishi, masofaviy bank xizmati orqali vaqt cheklovi olib tashlanadi, ya'ni mijoz o'z hisobraqamini xaftasiga yetti kun, kuniga yigirma to'rt soat davomida boshqarish imkoniga ega bo'ladi. Vaqt cheklovidan tashqari, mijozning geografik holatiga ham e'tibor berilmaydi. Mijoz dunyoning istalgan nuqtasidan o'z tranzaksiyalarini o'tkazishi mumkin bo'ladi, buning uchun personal kompyuter va internet global tarmog'i yoki mobil telefon va aloqa tarmoqi bo'lsa kifoya;

- yangi bank mahsulotlarini yaratish, amaliyotga tatbiq etish yoki mavjud moliyaviy xizmatlarni masofaviy aloqa vositalari bilan uyg'unlashtirish va o'zaro integratsiyasini oshirish orqali banklararo raqobat sharoitida bankning raqobatbardoshlik ko'rsatkichining oshishi;

- filiallarni boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish orqali bank operatsiyalari tannarxining kamayishi.

Mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish evaziga bank harajatlarning qisqarishi masofaviy bank xizmati rivojining ikkinchi omili hisoblanadi. Chunki internet orqali masofaviy xizmatlarni amalga oshirishi uchun bank global tarmoqda o'z ishtirokini ta'minlasa, ya'ni «virtual ofisi»ni ishga tushirsa, bo'ldi. Ushbu «virtual ofis» orqali mijoz bank-mijoz dasturini yuklab olishi yoki to'g'ridan-to'g'ri internet bankingga ulanib, zaruriy operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Bunda bank mijozlarga xizmat qiluvchi serverni o'rnatishi va mijozlarning topshiriqlarini

avtomatlashtirilgan bank axborot tizimiga o'tkazuvchi shlyuzlarni yaratishi zarur bo'ladi. Albatta, ushbu harakatlar qo'shimcha harajatlar bilan bog'liq bo'lsada, internet tarmog'i orqali ishlaydigan masofaviy bank xizmati tizimini joriy qilishga ketadigan jami harajatlar bankning yangi filialini ochish uchun ketadigan harajatlaridan ancha kam bo'ladi. Shu bilan birga, «virtual ofis»da xizmat ko'rsatiladigan mijozlar soni filial mijozlari sonidan bir necha marta ortiq bo'ladi.

Masofaviy bank xizmati tizimidan keladigan sof foydani hisoblash mushkul masala hisoblanadi, chunki bu tizim orqali daromad bilvosita keladi. Bevosita daromad esa (masalan tizimdan foydalanganlik uchun haq) odatda juda kam yoki umuman bo'lmaydi, albatta bu holat muayyan bankning mijoz siyosatiga bog'liqdir. Bundan tashqari, masalan, axborot taqdim etish shaklida ko'llaniladigan internet banking tizimi uchun foydaga asoslangan samaradorlik ko'rsatkichini aniqlashning o'zi noo'rin, chunki bu turdagi internet banking mijozlarga bepul ravishda taqdim etiladi. Masofaviy bank xizmati tizimlarining samaradorligi ular keltiradigan foyda emas, balki tejalgan harajatlar evaziga shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, bank qurilishga yoki ijaraga ketadigan harajatlarni qisqartirish, bank xodimlari shtati va ularning bajaradigan ishlar hajmini qayta ko'rib chiqish, bank filiallarida bajariladigan kam daromadli operatsiyalar salmog'ini kamaytirish imkoniga ega buladi.

Mijozlarga internet orqali bank xizmatini ko'rsatish taraqqiyotining navbatdagi omili - bu elektron tijoratning rivojlaninishi hisoblanadi. Elektron tijoratning an'anaviy tijoratdan farqi shundaki, bu holda faoliyat faqat tarmoq ichida amalga oshiriladi.

Elektron tijorat tarixi 1914 yildan, ya'ni General Petroleum Corporation of California korxonasi tomonidan chiqarilgan neft mahsulotlari uchun to'lov kredit kartasidan boshlangan. 1982 yilning noyabr oyida esa Nottingham Building Society qurilish kompaniyasi Shotlandiya banki va British Telecom telefon kompaniyasi hamkorligida Homelink tizimini joriy etdi hamda elektron tijorat sifatida telefon-banking dan olindi. O'tgan asrning 90-yillarda ".COM" domenining yaratilishi bilan Internet global tarmog'ida elektron to'lov kartalarini avtorizatsiya qilish orqali tovar va xizmatlarning sotilishidan iborat bo'lgan veb-tijorat yuzaga keldi. Zamonaviy tadbirkorlik faoliyati aynan shu yunalishda rivojlana boshladi va bugungi kunda elektron tijorat nafaqat jahon iqtisodiyotining katta salmog'ini egallaydi, balki o'z imkoniyatlarini kundun-kunga oshirib ham bormokda.

G'arbiy Yevropa banklari o'rtasidagi raqobatning tobora kuchayishi natijasi o'laroq mijozlarni nafaqat saqlab qolish balki yanada ko'proq jalb etish maqsadida turli yangi xizmatlar o'ylab torildi va taklif etila boshlandi. Shu asnodan XX asrning 80 yillarida bank xizmatlarining "uydan turib foydalanish" singari shakllari taklifi avjiga chiqishni boshladi. 1982 yilning noyabr oyida Nottingham Building Society qurilish kompaniyasi va Shotlandiya banki British Telecom telefon kompaniyasi bilan hamkorlikda Homelink tizimini yo'lga qo'ydi. Bu tizim ham 1983 yil o'rtalariga qarab to'liq hajmda ishga tushirildi va shundan so'ng bu singari xizmatlarni boshqa kredit tashkilotlari ham taqdim eta boshladilar.

Bank xizmatlarini faqat telefon orqali ko'rsatish imkoniyatini birinchi bo'lib ingliz banki First Direct (1989 yil) taklif qildi. Bu bank ishi tarixida ilk marotaba

faqat telefon orqali xizmat ko'rsatadigan bankning yuzaga kelganligini alohida ta'kidlash joiz, chunki bu bankning birorta ham bo'limi yo'q edi. First Direct banki o'z mijozlariga elektron kanallar orqali xizmat ko'rsatayotgan eng birinchi hamda hozirda ham juda samarali faoliyat yuritayotgan banklardan biridir.

Internet orqali o'z xizmatlarini taklif etuvchi birinchi sof internet banki 1995 yilda paydo bo'lgan First Security Network Bank hisoblanadi. Elektron xizmatlarning birinchi yili natijalariga ko'ra uning aktivlari 110 mln dollarni tashkil qilgan. Kapitalining o'rtacha oylik o'sishi 20%ni tashkil etgan. Mijozlarining hisobvaraqlari esa o'n mingtaga oshgan. 1997 yilda to'liq virtual bankka aylangan bo'lsada, mijozlarning ishonchsizligi tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchragan. 1998 yilda AQSh ning "Royal Bank Financial Group" tomonidan sotib olingan. Bu bank o'z xizmatlarini faqat internet doirasidagina amalga oshiradi va mijozlar bilan ishlash uchun hech qanday moddiy shakldagi ofisga ega emas. Bu bank o'z mijozlariga bankning veb sayti orqali har hil bank hisobraqamlari ochishga va ularni boshqarishga, tovar va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish va shaxsiy hisobraqamidagi mablag'larning qoldiqlarini tekshirishga imkoniyat beradi. Bank mijozlari AQSh ning 45 ta shtatlarida bor.

Yevropadagi birinchi Virtual bank Germaniyadagi Drezden bank guruhining sho'basini bo'lib, o'z operatsion faoliyatini 1996 yilda boshlagan "Advance Bank" hisoblanadi. Bu xildagi banklarga boshqa misollar – Bankdirect (1999 yilda asos solingan), (1999 yilda asos solingan), Compubank (1998), Netbank (1996).

2001 yilning martida Yaponiya hukumati SONY korporatsiyasining Online banking ochish uchun lisenziya bergan. Bu bankda faqatgina birinchi oyning o'zida yigirma bir ming hisobraqam ochilgan. Amerika va yaponiya virtual bankirlarining muvaffaqiyati shu bilan ifodalanadiki, 2004 yildagi har uch bankdan biri internet banking ni qo'llagan. Jahon banking ma'lumotiga qaraganda, 2010 yilda online banking foydalanuvchilar soni 300 mingga oshdi.

Bank xizmatlari bozori elektron hujjat aylanishi tizimiga o'tgan davrlardan boshlab bir qancha turdagi elektron xizmatlar qo'llanila boshlandi va mijozlarga keng miqyosda taklif etildi. Kompyuter texnologiyalari hamda internetning faol qo'llanilishi xilma xil bank xizmatlari bozorini yuzaga kelishiga zamin bo'ldi.

Masofadan turib boshqariladigan bank xizmatlari bevosita elektron vositalar yordamida amalga oshirilishi tabiiy holga aylanib bordi. Natijada barcha masofaviy bank xizmatlariga yangicha elektron banking degan ta'rif ham ishlatila boshlandi.

Telefon banking – stasionar telefonning tonal xizmati yoki bankning Sall-sentri orqali o'z hisobraqamini boshqarish.

RS banking – Shaxsiy kompyuter modemi va "Bank-mijoz" dasturi orqali o'z hisobraqamini boshqarish.

Video-banking – "Infokiosk"lar va videokonferensiyalar orqali o'z hisobraqamini boshqarish.

Mobil banking – Mobil telefon orqali o'z hisobraqamini boshqarish.

Internet banking – Shaxsiy kompyuter va internet tarmog'i orqali o'z hisobraqamini boshqarish.


ATM banking – bankomatlar orqali o'z hisobraqamini boshqarish.

Interaktiv televizion banking – zamonaviy televizor va internetdan

foydalangandan holda o'z hisobraqamini boshqarish.

Mobil banking turlariga tavsif:

WAP-banking – mobil telefon va internet tarmog'i orqali o'z hisobraqamini boshqarish.



10-rasm. Elektron bankingning turli guruhlarga tasniflanishi¹⁸

SMS-banking – qisqa xabarlar orqali o'z hisobraqamini boshqarish.

STK-banking – mobil telefon sim-kartasiga o'rnatilgan maxsus dastur orqali boshqarish (bunda aniq mobil tarmoq operatoriga bog'liq bo'ladi);

JAVA-banking – mobil telefon o'ziga o'rnatilgan maxsus dastur orqali boshqarish (bunda mobil tarmoq operatoriga bog'liq bo'lmaydi);

NFC-banking (Near Field Communication) – 2-5 sm oralig'ida ishlaydigan radiotarmoq orqali foydalaniladi. Bunda maxsus chip sotuvchining terminalida joylashtiriladi va mijoz to'lovini o'tkazmoqchi bo'lganida o'z mobil telefonini ushbu terminalga yaqinlashtiradi, maxsus identifikasion raqamlarni teradi va to'lovni amalga oshiradi.

Endi esa ushbu bank xizmat turlariga to'laroq tasnif berib o'tamiz.

Mobil banking — bank kartalari yoki hisob-raqamlarini cho'ntak ixcham kompyuterlari, kommunikatorlar va smartfonlar orqali boshqarish hisoblanadi. Onlayn tizimida ishlaydi. Barcha turdagi moliyaviy hujjatlar bilan ishlash imkonini beradi. Shifrlash mexanizmi hamda elektron raqamli imzo (ERI)ni o'z ichiga olgan holda jamoa bo'lib ishlash imkoniyatini ham yaratadi. Mobile-Banking “Kaftingizdagi bank” konsepsiyasini amalga oshirgan holda tunu kun ishlaydi, tezkor va mijozlarning elektron banking xizmatlari spektridan to'liq funksiyada foydalanishni ta'minlaydi.

Telefon banking — bank hisob-raqamlariga hamda kartalariga telefon orqali

¹⁸ Muallif tomonidan tuzildi.

kirish dasturi. Bu xizmat orqali joriy qoldiqlar haqida ma'lumot, faksga ma'lum muddat uchun ko'chirma (vipiska), kartalarni hisobini to'ldirish yoki blokda qoldirish, telefon to'lovlari va hokazolarni bilish imkoniga ega bo'linadi.

Telefon bankingdan foydalanilayotganda mijoz berilgan raqamga telefon qiladi hamda bog'langandan keyin telefonni tovushli rejimga o'tkazadi. Ovozli menyuning instruksiyasiga amal qilgan holda, hamda tegishli punktni tanlagach, mijoz kerakli ma'lumotni ovozli habar yoki faks bo'yicha hujjat ko'rinishida olish imkoniga ega bo'ladi.

Yuqoridagi bank xizmat turidan asosan qo'ng'iroq markazlari faoliyatiga o'xshash tarzda foydalanish imkoni bor va o'ziga xos jihati buning uchun internet tarmog'i shart emas. Rossiyaning juda ko'plab banklaridan xususan Bank24.ru banki ushbu xizmat turini o'z faoliyatida juda keng qo'llamoqda. Avstraliya va Yangi Zelandiyaning ANZ banki, Buyuk Britaniyaning Lloyds TSB banki va Kanadaning CIBC banklari tomonidan ko'rsatilayotgan Phone-Banking xizmat turini namuna sifatida ko'rsatish mumkin.

Web-Banking — Internet-Bankingning yengillashtirilgan ko'rinishi bo'lib, elektron raqamli imzo (ERI) mexanizmiga ega emas, bank kartalari hamda hisob-raqamlariga kirish imkonini Internet orqali hamda istalgan Web-brauzer orqali berishga mo'ljallangan.

Ushbu bank xizmati turi asosan rivojlangan mamlakatlardan AQSh, Yaponiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida faol qo'llaniladi. Bugungi kunda ushbu xizmat turini standart Internet Explorer dasturidan foydalangan holda ko'pchilik foydalanmoqda.

WAP-Banking — bank kartalari hamda hisob-raqamlariga kirishni mobil aloqa vositasidagi WAP orqali amalga oshirish imkonini beruvchi xizmat. Bunda mijoz bank old haqida ma'lumot olish, valyuta kurslari, hisob-raqamdagi va kartalardagi joriy qoldiq balansni bilish imkonini beradi. Undan tashqari mijoz tegishli muddat uchun o'zining hisobi haqida ko'chirma so'rash, kartalarni to'ldirish va blok qilish, WAP-to'lovlarni amalga oshirishi mumkin.

Ushbu xizmat turining eng qulay jihati, internetga kirish imkoni bo'lgan har qanday mobil aloqa vositasining WAP xizmati orqali kiriladi va hech qanday maxsus xizmat turi yoki dasturni talab etmaydi.

SMS-Banking - SMS yordamida bank kartalari hamda hisob-raqamlariga kirish xizmati. Ushbu xizmat turida joriy qoldiqlar, hisob hamda kartalardagi mablag'lar harakati, hisob-raqamidan ko'chirma ma'lumotlarini SMS-xabar tarzida olish mumkin. SMS-xabarlari jo'natmalarini mijoz o'zi mustaqil ravishda Internet-Banking i PC-Banking orqali sozlashi mumkin. Bank yangilik kanallariga obuna bo'lish, SMS-so'rovlarni amalga oshirish imkoniyatlari ham yaratilgan.

Telebank tizimi. Mijozlarga masofadan turib xizmatlar ko'rsatishga telefon va boshqa maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladigan Telebank tizimini ham kiritish mumkin. Bunda telefon va maxsus dasturlar yordamida bankda o'rnatilgan komp'yuter mijozning savollariga avtomatik tarzda javob beradi. Telebank mijozga turli ma'lumotlarni og'zaki va yozma shaklda olish, shuningdek, mijozning o'z hisobvarag'i bo'yicha bir qancha aktiv operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi.

RC-Banking — oflayn tizimida bank kartalari hamda hisob-raqamlarini boshqarish xizmati. Barcha turdagi moliyaviy hujjatlar bilan ishlash imkonini beradi. Oldingi ma'lum bo'lgan Bank-Mijoz xizmatining evolyusion rivojlanishi natijasi hisoblanadi. Elektron raqamli imzo shifrlash mexanizmiga ega, bank serveri bilan bog'langan holatda mijozlik komponentlarini avtomatik yangilashni ta'minlaydi, jamoa bo'lib ishlash imkonini yaratadi hamda buxgalteriya dasturlari bilan o'zaro aloqada ishlash imkoniyatiga ega.

“**RC-Banking**”da 2 ta tizim “yirik” hamda “nozik” mijozlarga mo'ljallangan tizimlarga bo'linadi.

Yaqin yaqindan beri banklar chakana xizmatlarining shakli “nozik mijozlar” uchun mo'ljallangan bo'lishi tarafdori bo'lishmoqda, chunki Internet-bankingda mijozlar har qanday internet tarmog'iga ulangan kompyuter yordamida maxsus dasturiy ta'minot o'rnatmasdan turib ham ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. “Yirik mijoz” esa ko'proq yuridik shaxslar bilan ishlash uchun qulay hisoblanadi.

Birinchisi – bu “**Bank-mijoz**” tizimi bo'lib, unda shaxsiy kompyuterga kredit tashkiloti mutaxassisleri tomonidan o'rnatiladigan yetarli hajmdagi maxsuslashtirilgan ahborot dasturiy ta'minot (bank kompyuterlashgan tarmog'iga kirish, operatsiyalar ma'lumotlar bazasidan foydalanish, ma'lumotnoma, shifrlash vositalari va h.k.lardan foydalanish mumkin bo'lgan dastur) o'rnatiladi.

Ikkinchisi – bu internet banking tizimi bo'lib, ma'lum bir turdagi brauzerdan foydalangan holda ma'lumotni maxsus identifikatsiyalovchi tashuvchilar (“kodlashgan disketlar”, “smart kartalar” va h.k.) yordamida ishlash imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Internet-banking– Bank-Mijoz tizimining takomillashgan ko'rinishi hisoblanadi. Mijoz internet tarmog'iga ulangan kompyuter yordamida bankning veb-sayt bilan bevosita bog'langan Internet-banking tizimiga kiradi. So'ngra mijoz avtorizaiya mexanizmi orqali o'zining identifikatsiyasini (aynan tegishli mijoz foydalanayotgani tasdig'i) amalga oshiradi hamda shundan so'ng o'z hisobi haqida ma'lumotni bilii yoki boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mijozning o'z hiso-varag'i bilan bog'liq bo'lgan barcha operaiyalar haqiqiy bank provodkalarida namoyon bo'ladi. Bank shu singari operatsiyalarni o'tkazish imkoniyatiga aynan maxsus o'rnatilgan dastur bo'lmish – Internet-banking tizimi orqali ega bo'ladi.

O'zining oldingi avlod vakilining barcha munosib afzalliklarini saqlab qolgan holda, Internet-banking mijozlar uchun qulay bo'lgan bir qancha qo'shimcha ustunliklarga ham egadir:

- kompyuterga qo'shimcha dasturiy ta'minotni o'rnatishning zarurati yo'q;
- mijoz o'zining bankdagi hisobi holati haqida eng tezkor ma'lumotni olish imkoniga ega (bankda mijoz hisobiga kelib tushgan mablag' haqida ma'lumot bank bilan bir vaqtning o'zida mijozga ham ma'lum bo'ladi);
- mijoz va bank o'rtasidagi barcha hujjatlar almashinuvi elektron ko'rinishda bo'ladi hamda mijozdan qog'oz ko'rinishidagi tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatish talab etilmaydi. Shuningdek, bank ham o'zidan mijozning birinchi talabiga binoan har qanday bank hujjatini qog'oz nusxasi ko'rinishida majburiyatidan ham voz kechmaydi.

Shu bilan birgalikda, Internet-banking home-bankingning bir turi sifatida ham

namoyon bo‘ladi. **“Home-banking”** – bu masofaviy bank xizmati texnologiyasi bo‘lib, mijozga bank xizmatlaridan foydalanish imkonini bank ofisiga bormasdan turib bajarish imkonini beradi. Bu texnologiya 80 yillar boshida dunyo yuzini ko‘rgan hamda shu paytga qadar muhim evolyusion bosqichlardan o‘tgan. Home-banking rivojlanishi uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich – telefon banking. Bugungi kunda bu bank xizmati telefonlarning ovozli raqam terish imkoniyati bilan kengaytirilgan. Ikkinchi bosqich – PC-banking, mijozga o‘z shaxsiy kompyuteri hamda modemi yordamida bank serveriga ulanish hamda bank operatsiyalarini bajarish imkonini beradi (Internet orqali emas). Uchinchi bosqich – bu hozirgi kundagi tarmoqli yoki Internet-bankingning gurkirab rivojlanayotgan bosqichidir. PC-bankingdan u shunisi bilan farq qiladiki bank bilan hamkorlikda ishlayotgan tashkilot Internetning keng imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining amaldagi holati tahlili

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar yuqori texnologik xususiyatlarga ega bo‘lib, mijozlarga masofaviy xizmatlarning keng rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda respublikamizda banklararo raqobatning rivojlanib borishi bilan, tijorat banklarining innovasion texnologiyalardan foydalanib bank xizmatlarini ko‘rsatish amaliyoti takomillashib bormoqda. Tijorat banklarida bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (bank-mijoz, internet banking, mobil-banking, SMS-banking)dan foydalanuvchilar soni ham doimiy ortib bormoqda.

Banklararo raqobatning rivojlanishi tijorat banklari faoliyatini kengaytirishga intilib, yuqori foyda olishga harakat qiladi. Banklararo raqobatda xizmatlar bozorida yuqori mavqega ega bo‘lish, ma‘lum bank xizmatlar bozorini egallashda eng istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlaridan biri zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish amaliyotini rivojlantirish hisoblanadi. Zamonaviy bank xizmatlari bozori tijorat banklariga bir qancha ustunliklarni beradi. Birinchi navbatda, ushbu xizmatlar mijoz segmentining asosiy qismini qamrab oladi. Natijada, bank mijozlari bazasi kengayishi hisobiga bankning kredit portfeli oshadi va resurs bazasi mustahkalanadi. Bankning biznesi samarali va barqaror bo‘ladi hamda ank egalari uchun uning obro‘yini oshirib, potensial mijozlarni keng jalb qilishga zamin yaratadi.

Zamonaviy bank xizmatlariga quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ushbu xususiyatlari bilan an‘anaviy bank xizmatlaridan farq qiladi:

- zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish masafodan turib amalga oshiriladi;
- bank xizmatlari zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari asosida amalga oshiriladi;
- aksariyat hollarda mijozlarning o‘zlari operasionist vazifasini bajarib, bank xodimlari ishtirokisiz amalga oshiriladi;
- makon va zamon tanlamaydi, ya‘ni dunyoning istalgan nuqtasidan va istalgan vaqtda ushbu bank xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Hozirgi davrda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari

boshqa sub'ektlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarga nisbatan, informasion texnologiyalarning rivojlanishiga muvofiq, yuqori rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Chunki, bugungi kunda banklar faoliyatida informasion texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida xizmatlar ko'rsatishni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqmoqda.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan(distansion) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalari hisoblanadi hamda kompyuter va telefon tarmoqlari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari quyidagi turlari mavjud:

1. “Bank-Mijoz” – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi va ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi. Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi va xizmatlar ko'rsatiladi.

2. Internet-banking – bu mijozlarning banklardagi hisobvaraqlarini internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizim hisoblanib, mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan bank xizmatidir. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi va mijozlar telefon orqali bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimi bo'lib, bankning maxsus telefon raqamiga mijoz belgilangan SMS-so'rovni yuborish orqali ma'lumot olish mumkin.

4. Mobil-banking – smartfonlar orqali banklarning maxsus mobil ilovasini o'rnatish orqali bankga bog'lanish imkonini beruvchi va operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi tizimdir.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

1. hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
2. hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
3. hisobvaraqa qoldig'i;
4. kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida ma'lumot.

Tijorat banklarini xizmatlari miqdoriy tavsifi xizmatlar soni, ularning ko'lami va doirasi bilan belgilansa, bank xizmatlarining sifat tavsifi xizmatlar sifati, tezkorligi va aniq-adresli amalga oshirilishi, bu xizmatlardan mijozlarning qanoatlanish darajasi bilan ifodalanadi. Tijorat banklari xizmatlari miqdoriy va sifat tavsifi hamda uning samaradorligi ular tomonidan baholash sohasidagi olib borilayotgan siyosat bilan uzviy bog'liqdir. Turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq harakatlarini shu jumladan, ushbu xizmatlar uchun asoslangan baholarni aniqlash yordamida tijorat banklari uchun bozorning o'zgaruvchan konyunkturasiga moslashish imkoni

tugʻiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimiz bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangani sari tijorat banklari ham chakana amaliyotlar, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turini oshirish orqali oʻz faoliyatini diversifikatsiyalashga erishmoqda.

Masofaviy bank xizmatlari koʻrsatishni bankomat va infokiosklarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Foydalanishi sodda boʻlgan ushbu uskunalar bugungi kunda mijoz va kassir oʻrtasidagi anʻanaviy muomalaga chek qoʻyib, oʻziga xos mini-bank ofisi vazifasini oʻtamoqda. Hozirgi paytda bankomatlardan nafaqat naqd pul yechib olish, balki ular orqali tovar va xizmatlar boʻyicha turli toʻlovlarni amalga oshirish mumkin.

Naqd pulsiz toʻlovlar hajmining oʻsish dinamikasi birinchi navbatda, tovar va xizmatlar uchun toʻlovlarning bankomatlar orqali amalga oshirilishi, plastik kartalar vositasida koʻrsatilayotgan xizmatlar koʻlami va infratuzilmasining kengayishi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Toʻlovlarni naqd pulsiz amalga oshirishning innovasion shakllariga boʻlgan ehtiyoj muttasil ortib bormoqda. Tadbirkorlik subʻektlari va aholi tejamli, kam vaqt va harakat sarflaydigan, yuqori axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, maʼlumot olishga koʻproq ishtiyoq bildirmoqda. Mana shu ehtiyojni inobatga olib, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlari koʻrsatish koʻlamini kengaytirishga, bu yoʻlda esa global internet tarmogʻi imkoniyatlaridan samarali foydalanish choralarini koʻrishga intilmoqdalar.


Ayni paytda barcha tijorat banklari internet tarmogʻida oʻzlarining web-saytlarini ochib, uni bankning faoliyatiga oid maʼlumotlar, yangi xizmat turlari va shartlari, mijozlar manfaatiga tegishli axborotlar bilan muntazam boyitib bormoqda. Markaziy bank veb-sayti orqali esa davlat interaktiv xizmatlari koʻrsatish yoʻlga qoʻyilgan.

Mamlakatimiz bank tizimining rivojlanishida albatta elektron toʻlov tizimining rivojlanishi muhim oʻrin egallaydi. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan aholiga “Bank-mijoz” dasturi, mobil banking, internet banking, SMS banking va tashqi oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatuvchi qurilmalardan yaʼni, bankomat, infokiosk va terminallar kabi masofadan boshqariluvchi xizmat turlari koʻrsatilib kelinmoqda. Ushbu xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni ham yildan-yilga ortmoqda.

3-rasm maʼlumotlariga koʻra, respublikamizda masofadan bank xizmatlarini qoʻrsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2011 yilda 24545 tani tashkil etgan boʻlsa, 2012 yilda 56735 tani, 2013 yilda 108496 tani, 2017 yilga kelib 2042111 tani, 2018 yilda esa 4453240 tani va 2019 yilda 7959107 tani tashkil etgan.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining 2010 yil 23 oktyabrdagi 34/8-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat koʻrsatish tizimlarida ishlash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomi tijorat banklarida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat koʻrsatish tizimi orqali bank mijozlari bankning aloqa kanallari orqali axborot almashinuvi yaʼni banklar masofadan bank

xizmatlari taklif etishda muhim ahamiyat kasb etdi.¹⁹



11-rasm. Masofadan bank xizmatlarini qo‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (1 yanvar holatiga)²⁰

Natijada, tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2011 yil 1 yanvar holatiga 24545 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yil 1 yanvar holatiga 10153458 taga yetganini ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).

Ushbu o‘tgan to‘qqiz yildan ortiqroq muddatda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 413 barobardan ko‘proqqa, foiz hisobida 41366 foizdan ko‘proqqa ortgan. Ushbu xizmatlardan foydalanuvchilarning 9462450 tasi ya‘ni, 93 foizdan ko‘prog‘i jismoniy shaxslar ekanligi, xizmatlar bozorida bank mijozlari internet-banking va “Bank-mijoz” xizmatlariga nisbatan mobil-banking va SMS banking xizmatini tanlashi sezilarli darajada bo‘lmoqda. Banklar kesimida esa AT Xalq banki, “Agrobank” ATB va TIF Milliy banklarining foydalanuvchilari 4263793 tani jami foydalanuvchilarning 42 foizga yaqinini tashkil etishi, ushbu banklarning respublikamiz bo‘yicha bank filiallari sonining ham ko‘pligi bilan ifodalanadi.

Xususan, "O‘zbekiston sanoat-qurilish banki" ATBda zamonaviy bank xizmatlari soni ortib borishi natijasida bank mijozlarining soni ham keskin ravishda kundan-kunga ortib bormoqda. "O‘zbekiston sanoat-qurilish banki" ATB 2020 yil 1 yanvar holatiga masofaviy bank xizmatlari orqali 808 mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxslar maqomidagi mijozlariga keng ko‘lamli turli bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. "O‘zbekiston sanoat-qurilish banki" ATB da masofaviy bank xizmatlarining yangi turlarini joriy qilish, bank xizmatlari sifatini oshirish va mijozlariga ko‘rsatayotgan xizmatlarni qulaylashtirish va xizmat xaqlarini arzonlashtirish, xizmatlari ko‘lamini kengaytirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.²¹

¹⁹ Mamadiyarov Z.T. O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlari va ularni rivojlantirish istiqbollari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2019 yil

²⁰ www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma’lumotlari asosida.

²¹ Mamadiyarov Z.T. O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlari va ularni rivojlantirish istiqbollari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2019 yil

O‘zbekistonda masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2020 yil 1 yanvar holatiga (donada)

№	Bank nomi	Yuridik shaxslar va YaTTlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1.	TIF Milliy banki	52 969	1 657 243	1 710 212
2.	"O‘zsanoat-qurilish banki" ATB	31 464	777 366	808 830
3.	"Agrobank" ATB	96 250	1 343 740	1 439 990
4.	"Ipoteka-bank" ATIB	98 400	870 055	968 455
5.	"Mikrokreditbank" ATB	48 152	639 018	687 170
6.	AT Xalq banki	91 332	1 022 259	1 113 591
7.	ChEKI "Savdogar" ATB	8 380	67 803	76 183
8.	ATB "Qishloq qurilish bank"	18 499	243 333	261 832
9.	"Turonbank" ATB	15 783	148 771	164 554
10.	ChEKI "Hamkorbank" ATB	69 714	716 852	786 566
11.	"Asaka" ATB	19 546	561 568	581 114
12.	"Ipak Yo‘li" AITB	18 783	314 381	333 164
13.	"Ziraat bank Uzbekistan" AJ	1 174	13 218	14 392
14.	"Trastbank" XAB	19 871	81 795	101 666
15.	AT "Aloqabank"	14 739	244 809	259 548
16.	"KDB Bank O‘zbekiston" AJ	600	31 664	32 264
17.	"Turkiston" XATB	2 805	7 570	10 375
18.	Eron "Soderot" sho‘ba banki	128	741	869
19.	"Universal bank" ATB	3 371	36 369	39 740
20.	"Kapitalbank" ATB	21 519	128 297	149 816
21.	"Ravnaqbank" XATB	1 675	8 801	10 476
22.	"Davir-Bank" XATB	17 772	49 817	67 589
23.	ChEKI "Invest Finance Bank" ATB	16 601	212 520	229 121
24.	"Asia Alliance Bank" ATB	9 551	109 447	118 998
25.	"Hi-Tech Bank" XATB	1 337	20 261	21 598
26.	"Orient Finans" XATB	9 492	150 207	159 699
27.	"Madad Invest Bank" ATB	427	2 235	2 662
28.	"O‘zagroeksportbank" ATB	107	389	496
29.	"Poytaxt bank" AJ	511	1 796	2 307
30.	"Tenge bank" ATB	56	125	181
Jami		691 008	9 462 450	10 153 458

Manba: www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma’lumotlari asosida.

ATB "Qishloq qurilish bank" bankida ham 2017 yilda jismoniy shaxslar uchun yangi - "Depozit-banking" xizmatini joriy qilindi. Bu xizmat mobil dastur bo‘lib, bank omonatchilari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun bank muassasalariga kelmasdan shaxsiy mobil telefonlari orqali o‘zining talab qilib olguncha va muddatli omonat hisobraqamlaridagi pul mablag‘larini:

- omonatlarga hisoblangan foizlarni chiqim qilish;
- muddati kelgan omonatlarni to‘liq yoki qisman qayta rasmiylashtirish (agar mijoz omonatini qisman rasmiylashtirmoqchi bo‘lsa, qolgan qismini uning talab qilib olinguncha hisob raqamiga avtomatik ravishda o‘tkaziladi);

- omonatni muddati kelganda naqdsiz olish;
- omonatni muddatidan oldin naqdsiz olish imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, "Depozit banking" mobil dasturi yordamida bank mijozlari doimo o'zlarining omonatlarining muddatlari to'g'risida SMS xabarnoma olish imkoni ham mavjuddir.

4-jadval

O'zbekistonda bank infratuzilmasi va masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni (31 dekabr holatiga, donada)²²

№	Turlari	2011 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2018/2011 yillar o'zgarishi (martada)
1.	Chiqarilgan bank kartochkalari soni (ming dona)	7909	15215	16316	19523	19226	17686	2,2
2.	Bank kartochkalari orqali yillik tranzak-siyalar hajmi (mlrd. so'm)	10192,4	22758,0	31324,0	53050,0	52972,0	63713,5	6,3
3.	To'lov terminal-lari soni	85741	169581	183060	208536	235712	244913	2,9
4.	Infokiosk va bankomatlar soni	491	1870	2345	4954	5632	6859	14,0
5.	Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilari							
	Coni (donada)	24545	534800	1061022	2042111	4453240	7959107	324,3
5.1.	<i>Yuridik shaxslar va YaTTlar</i>							
	Coni (donada)	14241	62227	81492	135629	227879	359770	25,3
	Omonatchilar ulushi, foizda	1,2	4,3	5,4	8,3	13,0	19,1	
5.2.	<i>Jismoniy shaxslar</i>							
	Coni (donada)	10304	472573	978530	1906482	4225361	7599337	737,5
	Omonatchilar ulushi, foizda	0,1	3,1	6,0	9,8	22,0	43,0	

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yil 31 dekabr holatiga bank plastik kartochkalari soni 7 mln. 909 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilning shu davrida 19 mln. 523 mingtaga yetgan. 2017 yilda bank plastik kartochkalari soni 19 mln. 226 mingtani tashkil etdi. 2018 yil 1 yanvardan "Duet" kartochkalari orqali pul o'tkazmalari to'xtatilganligi sababli, 2018 yilda bank plastik kartochkalari soni 17 mln. 686 mingtagacha kamaygan. Umuman olganda bank plastik kartochkalari soni 2018 yilda 2011 yilga nisbatan 2,2 martaga oshgan.

Garchi 2018 yilda bank plastik kartochkalari soni kamaygan bo'lsada bank kartochkalari orqali yillik tranzaksiyalar hajmi o'tgan 2017 yilga nisbatan sezilarli darajada o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 2011 yilda 10192,4 mlrd. so'mni, 2015 yilda 31324,0 mlrd. so'mni, 2017 yilda 52972,0 mlrd. so'mni va 2018 yilda esa 63713,5 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu esa bank kartochkalari orqali yillik tranzaksiyalar hajmi 2018 yilda 2011 yilga nisbatan 6,3 martaga ko'p bo'lganligini ko'rsatmoqda. To'lov terminallari ham ushbu davrda ya'ni 2011 yilda 85741 tani

²² O'sha manba.

tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib 244913 taga yetgan. Ushbu davrda to'lov terminallari soni 2,9 martaga oshgan. Infokiosk va bankomatlar soni 2000 yilda atiga 98 tani tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda 171 tani, 2010 yilda esa 363 tani tashkil etgan. 2011 yilga kelib 491 taga yetgan bo'lsa, 2018 yilda ularning soni 6859 tagacha ortgan va ularning soni 2018 yil 31 dekabr holatiga 2011 yilga nisbatan 14 barobarga organini ko'rishimiz mumkin.²³

Bank depozitorlari milliy axborotlar bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni 2011 yilda 1159890 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019 yil 1-yanvar holatiga 1880634 taga yetgan. Ya'ni ushbu davrda omonatchilar soni 1,62 barobarga oshgan. Bank depozitorlari milliy axborotlar bazasida ro'yxatga olingan mijozlar hisobvaraqlari soni esa 2011 yilda 3926356 tani tashkil etgan va har bir mijozga 3,4 tadan hisobvaraq to'g'ri kelgan, 2018 yilda esa hisobvaraqlari soni 7263621 tani va har bir mijozga 3,9 tadan hisobvaraq to'g'ri kelgan. 2018 yilda 2011 yilga nisbatan bank depozitorlari milliy axborotlar bazasida ro'yxatga olingan mijozlar hisobvaraqlari soni 1,85 martaga ko'paygan.²⁴

O'zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish hisobiga bank xizmatlarining tarqalishi asta-sekin o'sib bormoqda, ammo aholining katta qismini asosiy bank mahsulotlari bilan hali ham yetarlicha ta'minlanmagan. O'zbekistonda 2018 yil 1 yanvar holatiga voyaga yetgan har 100000 kishiga to'g'ri keladigan bankomat va infokiosklar soni 25 tani tashkil etsa, qo'shni Qozog'istonda esa bu ko'rsatkich 75 tani, Yaponiyada 128 tani va Kanadada esa 230 tani tashkil etgan. O'zbekistonda ham bu ko'rsatkich 2019 yil 1 yanvar holatiga biroz yaxshilangan, ya'ni bankomat va infokiosklar soni 6859 tani tashkil etgan va voyaga yetgan har 100000 kishiga 44 tani tashkil etgan.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilari soni 2011 yilda bor-yo'g'i 24545 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018 yil 31 dekabr holatiga 7959107 taga yetgan. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilari soni 2018 yilda 2011 yilga nisbatan 324,3 barobarga ortgan. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilari sonining keskin ortishi, jismoniy shaxslarning bu xizmatlardan foydalanish ko'lemi kengaygani hisobiga, chunki masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar va YaTTlar soni 2011 yilda 14241 tani tashkil etgan, 2018 yil 31 dekabr holatiga esa 359770 taga yetgan, ya'ni ushbu davr mobaynida 25,3 marotabaga oshgan bo'lsa, ushbu xizmatlarda foydalanuvchi jismoniy shaxslarning soni 2011 yilda 10304 ta bo'lgan bo'lsa, 2018 yil 31 dekabr holatiga 7599337 taga yetgan va 2018 yilda 2011 yilga nisbatan 737,5 marotabaga oshgan (4-jadval).

Bank depozitorlari milliy axborotlar bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni 2011 yilda 1159890 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 14241 tasi ya'ni 1,2 foizi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar va YaTTlar, 2018 yil 31 dekabr holatiga esa bank depozitorlari milliy axborotlar bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni 1880634 taga yetgan va shundan 359770 tasi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar va YaTTlar tashkil etgan.

Muomalaga chiqarilgan bank kartochkalari soni 2011 yilda 7909 ming tani

²³ Mamadiyarov Z.T. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlari va ularni rivojlantirish istiqbollari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2019 yil

²⁴ O'sha manba.

tashkil etgan bo'lsa, shundan 10304 tasi ya'ni 0,1 foizi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar tashkil etgan, 2018 yil 31 dekabr holatiga esa muomalaga chiqarilgan bank kartochkalari soni 17686 ming taga yetgan va shundan 7599337 tasi ya'ni 43 foizi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar tashkil etgan. Ya'ni, jismoniy shaxslar o'rtasida shaxsiy plastik kartochkalaridagi pul mablag'larni boshqarishda mobil ilovalarning ahamiyati kundan-kunga ortib borayotganligidan dalolat bermoqda (4-jadval).

5-jadval

Voyaga yetgan har 100000 kishiga to'g'ri keladigan bankomat va infokiosklar soni (2019 yil 1 yanvar holatiga)

Egallab turgan o'rni	Davlat nomi	Soni
1	Makao (Kitay)	325
2	Janubiy Koreya	273
3	Kanada	221
4	San Marino	192
5	AQSh	174
6	Avstriya	169
7	Portugaliya	166
8	Rossiya	161
9	Xorvatiya	148
10	Avstraliya	146
35	Qozoqiston	84
50	Yangi Zelandiya	65
100	Gvatemala	35
114	O'zbekiston	28
150	Zimbabve	6

Manba: <https://www.indexmundi.com/facts/indicators/FB.ATM.TOTL.P5/rankings>

Hozirgi kunda tijorat banklari aholiga qulaylik yaratish va zamonaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish maqsadida 24/7 rejimida, kechayu kunduz uzluksiz xizmat ko'rsatadigan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalarini tashkil qilib, foydalanishga topshirib kelmoqda. Shoxobchalar zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bankomatlar, infokiosk, infomonitor va «Internet-banking» xizmatidan foydalanuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga xizmat ko'rsatuvchi klaviaturali infokiosk qurilmalari bilan jihozlanmoqda. 24/7 rejimida ishlaydigan mazkur shoxobchalarning ko'payishi bankomat va infokiosklar sonining oshishiga olib kelmoqda.

Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (Bank-Mijoz, Internet-banking, Mobil-banking, SMS-banking va boshqalar)ni respublika miqyosida doimiy takomillashtirib borish bo'yicha ishlar barcha banklar tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilishi bir tomondan milliy bank tizimining rivojlanish tendensiyalaridan guvohlik bersa, boshqa tomondan respublika iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining yanada mustahkamlanishiga sharoit yaratadi.

Nazorat savollari

1. Banklararo hisob-kitoblar deganda nimani tushunasiz?
2. «GlobUzCard» chakana to'lov tizimi haqida ayting?
3. Bank plastik kartochkalarining to'lov tizimidagi ahamiyatini ayting?
4. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada kengaytirish uchun nimalar qilish lozim?
5. Masofaviy bank xizmatlarining turlari va ularning xususiyatlarini ayting?
6. Banklarning transformatsiyalashuvida masofaviy bank xizmatlarining ahamiyatini ayting?
7. Markaziy bankning Kliring tizimining ishlash tartibini tushuntiring?
8. Elektron to'lov hujjatlarining o'tish sxemasini tushuntiring?
9. Naqd pulsiz hisob-kitob hujjatlarini bir-biridan farqini tushuntiring?
10. Tijorat banklari filiallari bilan qanday hisob-kitob ishlarini olib boradi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

Maxsus adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi
2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 07 noyabr, №O'RQ-578
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2777-sonli Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 8 apreldagi «GlobUzCard» banklararo universal chakana to'lov tizimi faoliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi № 7-A/4-sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomi №2465, 03.06.2013y.
8. Shelagh Heffernan, Modern Banking, John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England, 2005
9. Apostolos Ath Gkoutzini, Internet Banking and the Law in Europe: Regulation, Financial Integration and Electronic Commerce, 2010, Cambridge University Press
10. B. Nicoletti, Mobile Banking, 2014, Palgrave Macmillan UK.
11. Omonov A., Qoraliyev T., Banklarda buxgalteriya hisobi. "Iqtisod-moliya" 2014.

12. Navro‘zova K., Ortiqov O., Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi. “Iqtisod-moliya” 2014.

13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/3–sonli Qaroriga ilova “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom.

14. Mamadiyarov Z.T. O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlari va ularni rivojlantirish istiqbollari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2019 yil.

15. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. I nashri. Omonov A.A., Qoraliev T.M. TMI, -T.: Iqtisod-Moliya», 2014. 241 b.

16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti.

Internet resurslari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. www.edu.uz.-O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:
3. www.press-service.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
4. www.uza.uz – O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.
5. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
6. www.uzreport.com – Biznes axborotlari portali.
7. www.cer.uz - (Sent ekonomicheskix issledovaniy)
8. www.ebrd.com – (The European Bank for Reconstruction and Development)
9. www.imf.org – (International Monetary Fund)
10. www.ifmr.uz – (Institut Prognozirovaniya i Makroekonomicheskix Issledovaniy pri Ministerstve Ekonomiki i Promishlennosti Respubliki Uzbekistan)
11. www.lex.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)
12. www.ziyonet.uz – (Ta’lim portali)
13. www.bank.uz – (Bank xizmatlari ma’lumotlar bazasi)
14. www.cbu.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti).

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

Masala №1

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 1 milliard so‘m bo‘lib, uning tarkibida 80 foizi oddiy aksiyalar va 20 foizi imtiyozli aksiyalardan iborat. Aksiyalarning nominal qiymati 10000 so‘m. Aksiyadorlik jamiyatining ustavida imtiyozli aksiyalar bo‘yicha yillik dividend 15 foiz qilib belgilangan. Aksiyadorlik jamiyatining umuiy yig‘ilishida yil natijalariga asosan aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash uchun jami 200 million so‘m ajratildi. Ajratilgan summadan imtiyozli aksiyaga qancha dividend va oddiy aksiyaga qancha dividend to‘lanishini hisoblang.

Masala №2

Aksiyadorlik jamiyatining aksiyasini nominali 10000 so‘m. “Toshknet” Respublika fond birjasida aksiyadorlik jamiyatining har bir aksiyasi 14500 so‘mdan sotildi. Aksiyadorlik jamiyati aksiyasining bozor kursini hisoblang.

Masala №3

Sarmoyador birjadan nominali 10000 so‘m bo‘lgan korporativ obligatsiyani 9000 so‘mdan sotib oldi. Mazkur korporativ obligatsiya bo‘yicha yillik foiz stavkasi 20 foiz va foiz yil oxirida to‘lanadi. Korporativ obligatsiyaning amal qilish muddati 3 yil. Korporativ obligatsiyaning joriy daromadlilikini hisoblang.

Masala №4

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 2 milliard so‘m bo‘lib, uning tarkibida 90 foizi oddiy aksiyalar va 10 foizi imtiyozli aksiyalardan iborat. Aksiyalarning nominal qiymati 20000 so‘m. Aksiyadorlik jamiyatining ustavida imtiyozli aksiyalar bo‘yicha yillik dividend 10 foiz qilib belgilangan. Aksiyadorlik jamiyatining umuiy yig‘ilishida yil natijalariga asosan aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash uchun jami 250 million so‘m ajratildi. Ajratilgan summadan imtiyozli aksiyaga qancha dividend va oddiy aksiyaga qancha dividend to‘lanishini hisoblang.

Masala №5

Aksiyadorlik jamiyatining aksiyasini nominali 15000 so‘m. “Toshknet” Respublika fond birjasida aksiyadorlik jamiyatining har bir aksiyasi 27500 so‘mdan sotildi. Aksiyadorlik jamiyati aksiyasining bozor kursini hisoblang.

Masala №6

Sarmoyador birjadan nominali 100000 so‘m bo‘lgan korporativ obligatsiyani 95000 so‘mdan sotib oldi. Mazkur korporativ obligatsiya bo‘yicha yillik foiz stavkasi 20 foiz va foiz yil oxirida to‘lanadi. Korporativ obligatsiyaning amal qilish muddati 3 yil. Korporativ obligatsiyaning joriy daromadlilikini hisoblang.

Masala №7

Markaziy bankdan tijorat banki 7 ish kuniga 200 mln. so‘m kreditni yuqorilikvid aktivlar garovi asosida, to‘lashi kechiktirib bo‘lmaydigan to‘lovlar uchun berishni

iltimos qildi. Markaziy bankda deponentlangan majburiy zaxiralari 600 mln. soʻmna tashkil qiladi. Garovga 200 mln. soʻmlik davlat qimmatli qogʻozlari taqdim etiladi.

Quyidagi savollarga javob bering.

1. Ushbu kreditni olishga qanday banklarning huquqi bor?
2. Ushbu tijorat bankiga qanday xajimda kredit berish mumkin?
3. Garov obʻekti boʻlib qanday davlat qimmatli qogʻozlari hisoblanadi?
4. Ushbu kredit qanday foiz stavkalari boʻyicha berilishi mumkin?
5. Kredit muddatida qaytarilmasa qanday iqtisodiy chora koʻrilishi mumkin?

Masala №8

Fuqaro Ikromov A. oʻzining ihtiyoridagi depozit omonat-sertifikatini muddatdan oldin topshirmoqchi. Depozit – omonat sertifikatini nominali 50000 soʻm, amal qilish muddati 1 yil va u boʻyicha yillik foiz stavkasi 16 foizni tashkil etadi. depozit – omonat sertifikati boʻyicha 7 oy muddat oʻtgan. Tijorat banki fuqaro Ikromov A.ga depozit – omonat sertifikati boʻyicha qancha miqdorda foiz toʻlab beradi.

Masala №9

Sarmoyador birjadan nominali 100000 soʻm boʻlgan korporativ obligatsiyani 85000 soʻmdan sotib oldi. Mazkur korporativ obligatsiya boʻyicha yillik foiz stavkasi 16 foiz va foiz yil oxirida toʻlanadi. Korporativ obligatsiyaning amal qilish muddati 3 yil. Korporativ obligatsiyaning joriy daromadlilikini hisoblang.

Masala №10

Aksiyadorlik jamiyatining aksiyasini nominali 20000 soʻm. “Toshknet” Respublika fond birjasida aksiyadorlik jamiyatining har bir aksiyasi 45500 soʻmdan sotildi. Aksiyadorlik jamiyati aksiyasining bozor kursini hisoblang.

Masala №11

Markaziy bankdan tijorat banki 2 ish kuniga 500 mln. soʻm kreditni yuqorilikvid aktivlar garovi asosida, toʻlashi kechiktirib boʻlmaydigan toʻlovlar uchun berishni iltimos qildi. Markaziy bankda deponentlangan majburiy zaxiralari 1000 mln. soʻm tashkil qiladi. Garovga 400 mln. soʻmlik davlat qimmatli qogʻozlari taqdim etiladi.

Quyidagi savollarga javob bering.

1. Ushbu kreditni olishga qanday banklarning huquqi bor?
2. Ushbu tijorat bankiga qanday xajimda kredit berish mumkin?
3. Garov obʻekti boʻlib qanday davlat qimmatli qogʻozlari hisoblanadi?
4. Ushbu kredit qanday foiz stavkalari boʻyicha berilishi mumkin?
5. Kredit muddatida qaytarilmasa qanday iqtisodiy chora koʻrilishi mumkin?

Masala №12

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 2 milliard soʻm boʻlib, uning tarkibida 95 foizi oddiy aksiyalar va 5 foizi imtiyozli aksiyalardan iborat. Aksiyalarning nominal qiymati 15000 soʻm. Aksiyadorlik jamiyatining ustavida imtiyozli aksiyalar boʻyicha yillik dividend 10 foiz qilib belgilangan. Aksiyadorlik jamiyatining umumiy

yig'ilishida yil natijalariga asosan aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash uchun jami 200 million so'm ajratildi.

Ajratilgan summadan imtiyozli aksiyaga qancha dividend va oddiy aksiyaga qancha dividend to'lanishini hisoblang.

V.KEYSLAR BANKI

1-Keys

Yog‘ochni qayta ishlash uyushmasi faktoring firmasi bilan regress huquqi bilan hisoblarning oldindan to‘lovi bo‘yicha faktoring xizmatidan foydalanishga shartnoma tuzdi. Shartnomaga muvofiq raqam - fakturalarning oldindan tulovi bo‘yicha avans to‘lovi hisob miqdorining 90% ini tashkil qiladi. Faktoring xizmati uchun komission to‘lovlar raqamlar aylanmasidan yillik 0.75% ga teng deb belgilandi. Firma bergan bahosi bo‘yicha shubhali qarzar uchun raqam aylanmasidan 2.5% yillik komission to‘lov oladi. Bu foiz o‘tgan yilga nisbatan ko‘pdir. Raqam- fakturalarning o‘rtacha aylanishi - 45 kun. Bank krediti bo‘yicha foiz stavkasi - yillik 18%.

Mahsulot realizatsiyasining yillik aylanmasi – 22 mln. so‘m. Undan 60%i faktoring firmasiga kelib tushgan. Mahsulot realizatsiyasi har oyda bir tekisda amalga oshiriladi.

Topish kerak:

1. Yetkazib beruvchi va firma o‘rtasidagi faktoring shartnomalarini turlarini ayting. Xozirgi paytda shartnomaning qaysi turi tuzilgan va uning asosiy shartlari kanday.
2. Ushbu shartnoma asosida firma rejalashtirayotgan foyda summasini hisoblang.
3. Faktoring firmasi riskni kamaytirishning kaysi usulini qo‘llashini ko‘rsating.

2-Keys

Quyidagi jadvalda tijorat banklari balans ma’lumotlari keltirilgan.

Ko‘rsatkichlar	Tijorat banklari					
	O‘z R TIF Milliy Banki			ATB “Agrobank”		
	miqdori, (mln.so‘m)	salmog‘i, foizda	jami bank kapitalidagi ulushi, foizda	miqdori, (mln, so‘m)	salmog‘i, foizda	jami bank kapital-idagi ulushi, foizda
I darajali kapitali						
Ustav kapitali	22 386			50 000		
Qo‘shilgan kapitali	0			1 444		
Kapital zaxiralar	18 082			52 493		
Devalvatsiya zaxirasi	503 705			0		
Taqsimlanmagan foyda	67 080			16 404		
Jami:						
II darajali kapital						
Joriy yilning sof foydasi	30 388			10 499		
Qart baholash zaxirasi	3 875			394		
Subordinar qarz	0			0		
Jami:						
Regulyativ kapital	645 776			131 233		

Aniqlang:

1. Tijorat banklari kapitali tarkibi va dinamikasiga tavsif bering.
2. Tijorat banklaridagi jami I- darajali va II- darajali kapital miqdorini va ulushini hisoblang.
3. Bankning jami va regulyativ kapitalini aniqlang.
4. Umumiy xulosa bering.

3-keys

Maer Amshel Rotshild Rotshild banklari sulolasi asoschisi va mashxur nemis bankiri bo'lib insoniyat ta'rixidagi eng badavlat oila sanaladi. Uni ba'zi bir manbalarda Xalqaro moliyachilarning otasi deb bilishadi, shuningdek hamma vaqtning eng buyuk yigirmata biznesmenlarning ichidan 2005-yildagi ko'rsatkichlarga binoan Forbes ommabop jurnalida 7- o'rinni egallagan.

Maer Amshel Rotshild 1744-yilning qishida Mayndagi Frankfurtdagi kelib chiqishi yahudiy millatiga mansub Amshel Moisey Rotshild (1755-yilda vafot etgan) va Shonche Rotshildlar oilasining sakkizinchi farzandi bo'lib dunyoga kelgan. Rotshildlar avlodi aslida bu ismni 1577-yildan beri davom ettirishadi va birinchilardan bo'lib bu nomni Izaak Elchanan Rotshild o'zining ismiga qo'shib olgan. Bu holatga uning uyi Judengasse peshtoqida bitilgan Zum Roten Schild degan so'zlarga bo'lgan qiziqish sabab bo'lgan. Keyinchalik nabiralari uning sharafiga bu familiyani o'z nasldoshlar orasida davom ettirib kelishadi va 1664-yilda Rotshildlar oilasi boshqa Judengasse – Hinterpfann nomli uyga ko'chib o'tishgan, shuningdek ushbu honadon Rotshildlarning fikricha, 19-asrning boshiga qadar oilaviy biznesni rivojlantirgan uy deb hisoblashgan. Maerning otasi valyutalar ayirboshlash va savdogarlik biznesiga ega bo'lgan hamda o'sha davrlarda shaxzoda Gessenning shaxsiy tanga bo'yicha homiysi bo'lgan. Oilaviy uylari esa, uning otasi barpo etgan do'konning ustki qismida joylashgan bo'lib, eniga uyning hajmi 3.4 metrni tashkil etgan. Lekin uyning torligiga qaramasdan o'sha davrda ushbu honadonda 30 kishidan ortiq odam yashagan.

Muhokama uchun savollar:

1. Nima deb o'ylaysiz, banklarni rivojlanishida bankirlar oilasining ahamiyati mavjudmi?
2. Agar siz ham bankirlar oilasi a'zosi bo'lganingizda iqtisodiyotda qanday ishlarni amalga oshirgan bo'lardingiz?
3. Nima sababdan Rotshildlar oilasidan kredit olish oson hisoblangan?
4. Boshqa bankirlar oilasini bilasizmi?
5. Bankirlar oilasining kamchiliklari va avzalliklari?

4-keys

JTTB-dunyoda birinchi davlatlararo investisiyalar instituti bulib, XVF bilan bir vaktida 1944 yilning iyul oyida tashkil kilingan.

Jahon bozorining tashkiliy tizimi raxbar tashkiloti bo'lib Boshqaruvchilar Kengashi direktorlar (ijrochi tashkilotlar) hisoblanadi.

1993 yilga kadar JB a'zolari soni 176 taga etdi, shunga qaramay, Bank tizimining uncha katta bulmagan iqtisodiyoti va ishlab chiqarishi rivojlangan

mamlakatlar guruhi boshqaradi. AQSh bunga boshchilik qiladi. 1993 yilning 30 iyulidan boshlab bank faoliyatini «ettilik» boshqaradi, bu AQSh, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanada davlatlaridir.

JB Bosh organi Vashingtonda joylashgan va AQSh o'zining ustivorligini doim bildirib turadi, lekin keyingi paytlarda G'arbiy Evropa va Yaponiya mamlakatlarining ta'siri kuchaymoqda.

JB prezidenti Amerika mamlakatining davlat rahbarlari yoki moliya tizimining boshqaruvchilaridan saqlanib kelgan. 1968-81 yillarda AQSh mudofaa vaziri R.Maknamara, undan keyin AQSh xususiy banklar prezidenti O.Klauzen bo'lgan. 1980 yil oxirlaridan AQSh Kongresining a'zosi B.Konneybl rahbarlik qilgan, 1990 yillardan buen yana bu lavozimni moliya biznesi vakili L.Kreston egalladi.

O'z faoliyatini esa 1946 yil iyuldan boshlagan. Hozirgi kunga kelib uning ajratgan qarzlari jami 594 mlrd \$ ga etdi. Uning a'zolari soni 184 tani tashkil etadi.

Hodimlari soni 10000 dan ortiq bo'lib dunyoda 120 dan ortiq ofisiga ega Bank asosan ikki turdagi ssudalar ajratadi:

- biri bu iqtisoiy-ijtimoiy rivojlanishni raqbatlantirish maqsadida Investision ssudalar;

- ikkinchisi siyosat va institusional islohotlarni moliyalashtirish maqsadida Rivojlanish siyosati qarzlardir.

O'zbekiston Jahon bankiga 1992 yil 21 sentyabrda a'zo bo'ldi, uning oldidagi majburiyatlari bajarish uchun 12,1 mln. AQSh dollari miqdorda badal to'ladi.

Jahon banki 1993 yili Toshkentda o'z vakolathonasini ochdi va uning O'zbekistondagi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- Ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalgam oshirishga moliyaviy jihatdan ko'mak berish;

- Bozor strukturasi shakllanishida texnik yordam ko'rsatish;

- Mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash

Jahon banki guruhining Boshqaruvchilar kengashi 06.12.11da bankning O'zbekiston bilan hamkorlik qilishining yangi strategiyasini qabul qildi. Ushbu strategiya Jahon bankining 2012-2015 – yillardagi O'zbekistondagi faoliyati bo'yicha bosh dastur bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu yillar davomida bank O'zbekistonga 1,3 milliard dollar miqdorida moliyaviy paketni taqdim qilib, uning ichiga Jahon banki guruhi tarkibiga kiruvchi Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasining (International Development Association) imtiyozli kreditlari va Xalqaro taraqqiyot va tiklanish bankining (International Bank for Reconstruction and Development) qarzlari kiradi.

Yangi strategiyani amalga oshirishda 2008-2011 – yillar davomida amalga oshirilgan oldingi strategiyaning ijobiy tajribalaridan foydalaniladi, – deydi Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Takuya Kamata. O'zbekiston ulkan imkoniyatlarga ega mamlakat. Mamlakat yoshlari yaxshi ta'limga ega – bu bebaho resurs”.

Muhokama uchun savollar:

1. Jahon banki kreditlarni qanday mamlakatlarga beradi?
2. Jahon bankining O'zbekiston bilan aloqalari qanday holatda?

3. Jahon bankining avzalliklari va kamchiliklari.
4. Mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda Jahon bankining o'rni qanday deb o'ylaysiz?
5. Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki haqida ayting?
6. Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki maqsad va vazifalarini tushuntiring?

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1) Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

«Zamonaviy bank ishi» moduli bo'yicha tinglovchilarning mustaqil ta'limi shu modulni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Ushbu modulni tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida quyidagi ko'rinishda mustaqil ishlar tashkil etiladi:

- auditoriya sharoitida- test (0.5 ball);
- auditoriyadan tashqari – keys(1 ball) va referat (1 ball).

Modulga oid keys-stadi va referatni Axborot resurs markazi manbalari hamda izlanish ob'ekti bo'lmish tijorat banklarining iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlarini to'plagan holda bajariladi. Mustaqil ta'lim natijalari modul bo'yicha baholash mezonlari asosida baholanadi.

2) Mustaqil ta'lim mavzulari

1. O'zbekiston respublikasining bugungi kundagi bank tizimi va uning asosiy operatsiyalari.
2. Tijorat banklari kapitaliga qo'yilgan talablar.
3. O'zbekiston respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarini nazorat qilish va faoliyatini tartibga solish instrumentlari. Tijorat banklarining bugungi kundagi faoliyatini takomillashtirish muammolari.
4. Hisob-kitob operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni va mohiyati.
5. Bank elektron to'lov tizimi. Bank plastik kartochkalari bilan hisob-kitoblar.
6. Faktoring hisob-kitoblar mohiyati. Faktoring turlari va ularga xarakteristika.
7. Tijorat banklarining mablag'lari va ularning tarkibiy tuzilishi. Banklarning passiv operatsiyalari. Tijorat banklari kredit potensialini tuzilishi.
8. Tijorat banklari kapitali va ularni tarkibi.
9. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kapitaliga qo'yilgan talablar.
10. Kapitalni yetarlilik ko'rsatgichi.
11. Tijorat banklar faoliyatida depozit operatsiyalarini ahamiyati va tashkil qilish qoidalari.
12. Banklarning moliya bozorida oladigan mablag'lari va ularni ko'paytirish yo'llari.
13. Bank kredit potensialiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni boshqarish.
14. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni tarkibiy tuzilishi.
15. Bank aktivlarning risk va daromad darajasi bo'yicha tavsifi. Banklarning kredit operatsiyalari va ularni takibiy tuzilishi.
16. Tijorat banklari kredit portfeli, uning bahosi va boshqarilishi. Tijorat banklar tomonidan zamonaviy kreditlashtirish tizimi.
17. Tijorat banklarining kredit siyosatini namoyon qiluvchi omillar. Kredit berish tamoyillari va ularning qisqacha tavsifi.
18. Kredit ta'minoti va uni hozirgi kundagi mavjud muammolari.

19. Bank ssudalari, qattiq, garov va qimmatbaho qog'ozlarni ta'minlash formalari va ko'rinishlari.

20. Veksellardan, faktoringli operatsiyalardan va shu kabilardan foydalanish mexanizmi va tartibi.

21. Bank ssudalarini ta'minlash shakllari va turlari.

22. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida respublikada moliyaviy bozorning roli.

23. Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarining roli.

24. Qimmatbaho qog'ozlar bozorini tuzulishi va qatnashchilari. Banklarning qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha tijorat va investision operatsiyalari.

25. Bank qimmatbaho qog'ozlarni emitenti sifatida, banklarning emission ta'sis faoliyatini tashkil etish.

26. Qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha banklarning vositachilik operatsiyalarini mazmuni.

27. Banklarning brokerlik operatsiyalarini amalga oshirish qonunlari. Banklarning qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalarini tartibga solish hujjatlarini rasmiylashtirish, jamg'arma sertifikatlari.

28. Veksel umumiy kredit va hisob-kitob hujjati sifatida.

29. Tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari va ularni turkumlanishi.

30. Tijorat banklari investisiya operatsiyalarining tuzilishi va ularni bank daromadini oshirishdagi roli.

31. Valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari.

32. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o'rni, valyuta operatsiyalarini olib borishda banklarning huquqi, banklarni valyuta operatsiyalarini lisenziyalash tartibi.

33. Halqaro valyuta qonunchiligi. O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi.

34. Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini o'tkazish tartibi. Valyuta bozori va valyuta birjasi.

35. Tijorat banklari tomonidan mijozlarni chet el valyutasida kreditlash tartibi.

36. Halqaro hisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan asosiy shakllari.

37. Valyuta operatsiyalarini o'tkazish qismi bo'yicha banklarning korrespondent munosabatlari.

38. Bank operatsiyalari risklari va ularni paydo bo'lish sabablari.

39. Banklar tavakkalchiligining klassifikatsiyasi va ularga tavsif.

40. Bazel talablari va ularning bank tizimidagi ahamiyati.

41. Qarz oluvchilar bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik.

42. Kredit tavakkalchiligi-kredit oluvchiga tegishli bo'lgan asosiy, foiz va ulushni tulanmay qolish tavakkalchiligining o'rni.

43. Kredit tavakkalchiligidan himoyalaniшни ta'minlovchi omillar.

44. Naqd pulsiz hisob-kitoblar sohasida bank tavakkalchiligi va uning turlari.

45. Tijorat banklari risklarini baholash va boshqarish usullari. Tijorat banklari tavakkalchiligi boshqarish vositalari.

46. O‘zbekistondagi tijorat banklarda vujudga keladigan risklar. Respublikabank tizimida bank tavakkalchiligining sug‘urtasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari.

47. Bank balansi likvidliligi va to‘lov qobiliyati tushunchasi.

48. Bank nazoratini takomillashtirishda xorij tajribasi.

49. Tijorat banklari balansi likvidliligi ko‘rsatgichlari.

50. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidliligi va to‘lov qobiliyatini tartibga solish.

VII. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Bank aktivlari	bu bankka tegishli hamda moddiy qiymatga ega bo‘lgan qiymatliklar: naqd mablag‘lar, qarzlarga berilgan mablag‘lar, binolar va asbob-uskunalardan tashkil topadi	What a bank owns, including loans, reserves, investment securities, and physical assets. Bank assets are typically listed on the left-hand side of a bank's balance sheet.
Bank likvidliligi	Bank likvidligi – bu bank tomonidan o‘zining joriy va kelajakdagi majburiyat va to‘lovlarini hamda kredit bo‘yicha mijozlarning talablarini o‘z vaqtida bajarish maqsadida kerakli vaqtda va miqdorda, zarar ko‘rmasdan likvid mablag‘larni jalb qila olish qobiliyatlarining yig‘indisidir	A bank's liquidity is determined by its ability to meet all its anticipated expenses, such as funding loans or making payments on debt, using only liquid assets.
Bozor riski	Valyuta riski, foiz riski va fond riski	Market risk is the risk of losses due to adverse market movements depressing the values of the positions held by market players.
Valyuta riski	Valyuta kursi o‘zgarishi oqibatida yuzaga keladigan yo‘qotishlar	Foreign exchange risk is the risk of incurring losses due to fluctuations of exchange rates.
Kapital yetarliligi	bankning to‘lovga qobilligi va likvidligini ta‘minlash imkonini beradigan kapitalning zaruriy minimal darajasi	Percentage ratio of a financial institution's primary capital to its assets (loans and investments), used as a measure of its financial strength and stability.
Kredit riski	kreditni o‘z vatida kaytarilmasligi va kredit shartlarini bajarilmaslik xavfi.	Credit risk is the risk of losses due to borrowers' default or deterioration of credit standing. Default risk is the risk that borrowers fail to comply with their debt obligations.
Likvidlilik riski	Bank majburiyatlarini o‘z vaqtida bajaraolmaslik xavfi.	Liquidity risk is broadly defined as the risk of not being able to raise cash when needed.
Operasion risk	Informasion tizimlardagi nosozliklar, kredit operatsiyalarini amalga oshirishda xodimlar malakasining yetishmasligi, personalning firibgarlik riski	Operational risks are those of malfunctions of the information system, of reporting systems, of internal risk monitoring rules and of procedures designed to take corrective actions on a timely basis.

Passiv	talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar; jamg'arma depozitlar; muddatli depozitlar; banklarning depozitlari; banklararo ssudalar;	Something that you owe. The biggest liabilities for most consumers are loans, including mortgages, car loans, credit-card balances, and installment accounts at stores.
Risk	Kredit muassasalari tomonidan amalga oshiriluvchi bank operatsiyalari xarakteridan kelib chiquvchi zarar ko'rish xavfi	Risk in finance is defined as the randomness of the return of investments, including both positive and negative outcomes. Under this view, a greater expected return is associated with a greater variability of outcomes.
Risk menjment	Risk darajasi tahlili va optimal strategiyani aniqlash	Risk management is the identification, assessment, and prioritization of risks followed by coordinated and economical application of resources to minimize, monitor, and control the probability and/or impact of unfortunate events or to maximize the realization of opportunities. Risk management's objective is to assure uncertainty does not deflect the endeavor from the business goals
To'lovga qobiliyatsizlik riski	Zararlarni qoplash imkoniyati pasayish xavfi	Solvency risk is the risk of being unable to absorb losses with the available capital.
Foiz riski	Foiz stavkalarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar xavfi	The interest rate risk is the risk of declines of net interest income, or interest revenues minus interest cost, due to the movements of interest rates.

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxsus adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi
2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 07 noyabr, №O'RQ-578
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2777-sonli Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 8 apreldagi «GlobUzCard» banklararo universal chakana to'lov tizimi faoliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi № 7-A/4-sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomi №2465, 03.06.2013y.
8. Shelagh Heffernan, Modern Banking, John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England, 2005
9. Apostolos Ath Gkoutzinis, Internet Banking and the Law in Europe: Regulation, Financial Integration and Electronic Commerce, 2010, Cambridge University Press
10. B. Nicoletti, Mobile Banking, 2014, Palgrave Macmillan UK.
11. Omonov A., Qoraliyev T., Banklarda buxgalteriya hisobi. "Iqtisod-moliya" 2014.
12. Navro'zova K., Ortiqov O., Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. "Iqtisod-moliya" 2014.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/3-sonli Qaroriga ilova "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom.
14. Mamadiyarov Z.T. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlari va ularni rivojlantirish istiqbollari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2019 yil.
15. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. I nashri. Omonov A.A., Qoraliev T.M. TMI, -T.: Iqtisod-Moliya», 2014. 241 b.
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti.

2. Internet resurslari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.

2. www.edu.uz.-O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:
3. www.press-service.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
4. www.uza.uz – O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.
5. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
6. www.uzreport.com – Biznes axborotlari portali.
7. www.ebrd.com – (The European Bank for Reconstruction and Development)
8. www.imf.org – (International Monetary Fund)
9. www.ifmr.uz – (Institut Prognozirovaniya i Makroekonomicheskix Issledovaniy pri Ministerstve Ekonomiki i Promishlennosti Respubliki Uzbekistan)
10. www.lex.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)
11. www.ziyonet.uz – (Ta’lim portali)
12. www.bank.uz – (Bank xizmatlari ma’lumotlar bazasi)
13. www.cbu.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti).